

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2021 Vol. 3**

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2021 Vol. 3

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)

## MUNDARIJA

### ADABIYOTSHUNOSLIK

#### BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

#### BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva (o'zbek)

Qosimjon Ma'murov (ingliz)

#### MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

#### TAHRIR HAY'ATI

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Vahit Turk (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To'xliyev

Qosimjon Sodiqov

Nurboy Jabborov

G'aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Hamidulla Dadaboyev

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Baxtiyor Abdushukurov

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Dilnavoz Yusupova

Qo'ldosh Pardayev

Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon)

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

#### Nurboy Jabborov

“Firdavs ul-iqbol” – Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi

4

#### Husniddin Eshonqulov

#### Dilorom Sodiqova

Muslihabegim Miskin – XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi

25

#### Dilnoza Jumayeva

“Yusuf va Zulayxo” dostonlaridagi obrazlar tizimi

43

### MATNSHUNOSLIK

#### Bahriddin Umurzoqov

Aliy Safiy Hiraviy qalamiga mansub yangi qo'lyozmalar va Toshkent qo'lyozma fondlarida mavjud asarlari

67

#### Furqat To'xtamuratov

Muhsiniy she'riyati: asliyat va nashr qiyosi

80

#### Shermuhammad Amonov

Ahmad Tabibiyning turkiy tildagi ruboiylari

95

### LINGVISTIKA

#### G'aybulla Boboyorov

Xalach tili va uning o'zbek tili bilan ayrim yaqinliklari to'g'risida

114

**EDITOR IN CHIEF**

Shuhrat Sirojiddinov

**DEPUTY EDITOR IN CHIEF**

Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)

Kasimjon Mamurov (English)

**EXECUTIVE SECRETARY**

Ozoda Tojiboeva

**EDITORIAL BOARD**

Zaynabiddin Abdirashidov

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibeyli (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Mark Toutant (USA)

Bakijan Tukhliev

Kasimjan Sadikov

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Vali Savash (Turkey)

Onal Kaya (Turkey)

Kimura Satoru (Japan)

Vahit Turk (Turkey)

Seyhan Tanju (Turkey)

Aftandil Erkinov

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bakhtiyar Abdushukurov

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Yusupova Dilnavoz

Kuldosh Pardaev

Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)

Nodirbek Jurakuziev

**CONTENTS****LITERATURE****Nurboy Jabborov**

"Firdavsu-l iqbol" – the first experience of

Agahi in artistic and historical prose

4

**Husniddin Eshankulov****Dilorom Sadikova**

Muslihabegim Miskin is a talented bilingual

poetees during the literary period of the

XIX<sup>th</sup> century in Bukhara

25

**Dilnoza Jumayeva**

Analysis of the figurative system of the epic

"Yusuf and Zulaikho"

43

**TEXTOLOGY****Bahriddin Umurzoqov**

New manuscripts by Ali Safi Hiravi and

works in the Tashkent Manuscripts

fund

67

**Furkat Tuxtamuratov**

Muhsini's Poetry: a Comparison of

Originality and Publication

80

**Shermuhammad Amonov**

Ahmad Tabibi's rubai in Turkish

95

**LINGUISTICS****Gaybulla Boboyorov**

About the Halach language and some of its

affinities with the Uzbek language

114

## ADABIYOTSHUNOSLIK LITERATURE

### “Firdavs ul-iqbol” – Ogahiyning badiiy- tarixiy nasrdagi ilk tajribasi

Nurboy Jabborov<sup>1</sup>

#### Abstrakt

Maqolada Shermuhammad Munis tomonidan boshlanib, Muhammad Rizo Ogahiy davom ettirib yakunlagan “Firdavs ul-iqbol” asarining adabiy-estetik qimmatini tadqiq qilingan. Tarixiy voqealar tasvirlangan bo‘lsa ham saj’ asosida yozilgani, poetik ifoda usuli, turli janrlarga doir nazm namunalari berilganligi jihatidan ushbu asarning yuksak badiiy ahamiyatga molik ekanligi tahlil etilgan. “Firdavs ul-iqbol” o‘zbek badiiy-tarixiy nasrining mukammal namunasi sifatida Ogahiyning ayni turdagi asarlari uchun o‘ziga xos ijodiy tajriba vazifasini o‘tagani ilmiy dalillangan.

**Kalit so‘zlar:** *badiiy-tarixiy nasr, manba, nazm, janr, ifoda usuli, saj’.*

#### Kirish

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrda hukmronlik qilgan Xiva xonlari davri voqealariga bag‘ishlangan besh badiiy-tarixiy asar yozdi. Ollohqulixon hukmfarmoligi davri (1825–1843) to‘g‘risidagi “Riyozi ud-davla”, Rahimqulixon saltanati voqealari (1843–1846) tasvirlangan “Zubdat ut-tavorix”, Muhammadaminxon (1846–1854), Sayyid Abdullohxon (1854) va Qutlug‘murodxon (1855) hukmronlik yillaridagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi “Jome‘u-l-voqeoti sultoniy”, Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856–1865) doir “Gulshani davlat” hamda Muhammad Rahimxon soniy – Feruz davri (1865–1910)ga bag‘ishlangan “Shohid ul-iqbol” asarlari shular jumlasidandir. Garchi tarixiy voqealar tasvirlangan bo‘lsa ham bu asarlar saj’ asosida yozilgani, poetik ifoda usuli, turli

---

<sup>1</sup> *Jabborov Nurboy Abdulhakimovich* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** jabborov-nurboy@rambler.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-2192-7660

**Iqtibos uchun:** Jabborov, N. A. 2021. “Firdavs ul-iqbol” – Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi”. *Oltin bitiglar* 3: 4–24.

janrlarga doir nazm namunalari berilganligi jihatidan yuksak badiiy ahamiyatga molikdir. Ular tarixiy jihatdan qanchalik ahamiyatli bo'lsa, badiiyatiga ko'ra ham shunchalik qimmatli baland. Shunga ko'ra, bu asarlarni badiiy-tarixiy nasr namunalari deyilsa, to'g'ri bo'ladi.

Ogahiy ayni shu uslubda ijod qilish tajribasini dastlab amakisi va ustoz Sher Muhammad Munis yoza boshlagan “Firdavs ul-iqbol”ni davom ettirib, badiiy-tarixiy nasrning mukammal namunasi sifatida yakunlash jarayonida o'rgangan, deyish mumkin. Qariyb bir yarim asrdiki, “Firdavs ul-iqbol” jahon miqyosida adabiyotshunos, matnshunos va tarixshunos olimlar e'tiborini tortib keladi. Akademik Muhammadjon Yo'ldoshev “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” deb nomlangan tadqiqotida yozishicha, 1873-yili xon saroyi musodara qilinganidan keyin undagi nodir qo'lyozmalar va arxiv hujjatlari Toshkentga keltiriladi. Xiva safariga rus qo'shinlari bilan birgalikda borgan sharqshunos A. L. Kun Turkiston general-gubernatori Kaufmanga dokladnoma kiritib, musodara natijasida sharq qo'lyozmalaridan iborat uch yuzta kitob, shulardan bir yuz yigma to'qqiztasi bir yuz qirq tomdan iborat tarixiy qo'lyozmalar, o'ttiz tomdan iborat sharq shoirlarining devonlari, ellik tomdan iborat qirqta huquqiy va diniy asarlar to'plangani haqida ma'lumot beradi [Yo'ldoshev 1959, 17-18]. A.L.Kun 1873-yiliyoq “Turkestanskiye vedomosti”da mazkur qo'lyozmalar, jumladan, “Firdavsul-iqbol” haqida maqola nashr ettiradi [Kun 1873]. Asarning ikki noyob qo'lyozmasi shu tariqa Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Mazkur qo'lyozmalar bilan Sankt-Peterburg Osiyo muzeyida tanishgan nemis olimi S.Seleman ham bu haqda maqola e'lon qilgani ma'lum [Seleman 1894, 274-280]. Turk olimlari Nesip Azim va Abdulqodir Inan ham asardan ayrim namunalarni nashr qildirgan. Va nihoyat, amerikalik sharqshunos Yuriy Bregel Sankt-Peterburgdagi dastxat nusxa va boshqa tayanch manbalar asosida “Firdavs ul-iqbol”ning ilmiy-tanqidiy matnini chop ettirdi [Bregel 1988,]. Shuningdek, rus olimlari A. N. Samoylovich, V. V. Bartold, P. P. Ivanov, B. V. Lunin, o'zbek olimlari Qavomiddin Munirov, Nafas Shodmonov tadqiqotlarida ham ushbu asar to'g'risida fikr bildirilgan, unga manba sifatida murojaat qilingan.

“Firdavs ul-iqbol”ning to'qqizta qo'lyozma nusxasi bo'lib, ulardan ikkitasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida (inv. S 571 (590 oa), Ye-6-1 (590 ov), oltitasi O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/1, 5364/1, 9979/1, 5071, 7422,

H.S.Sulaymonov nomidagi fond. 275/1), yana bir nusxasi esa Xelsinkida [Halèn 1979, 100] saqlanmoqda. Asar 2010-yili joriy imlodagi ikki marta – Sh. Vohidov, I. Bekchanov, N. Polvonov [Munis, Ogahiy 2010, (1)] hamda N. Jumaxo‘ja, S. Ro‘zimboyev, A. Ahmedov [Munis, Ogahiy 2010, (2)] tayyorlagan matnlar asosida nashr etildi.

“Firdavs ul-iqbol” badiiy-tarixiy nasrda Ogahiy uchun katta tajriba maktabi bo‘lgani aytiladi. Ushbu maqoladagi ilmiy kuzatishlar asarning Ogahiy yozgan qismiga tegishli bo‘lib, “Firdavs ul-iqbol” matnidagi iqtiboslar Yuriy Bregel tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matndan olindi.

Shermuhammad Munisning yozishicha, Xiva xoni Eltuzarxon uni o‘z saroyiga chaqirib, shunday amr qiladi: “...kerakkim, bizning nasabi humoyunimizni so‘z devonida kursinishin va ajdodi amjodimiz asomiysin tarix xotamida naqshi nigin qilsang va o‘z holotimiz va ba‘zi futuhotimiz bilakim, ziynati afsona va nosixi “Shahnoma”dur, nazm rishtasig‘a durri maknun tersang va nasr bisotig‘a gunogun ziynat bersang, to bo‘lg‘aykim, davron sahoyifi fano tundbodi bila parishon bo‘lub, olam koshonasi adam seli bila vayron bo‘lg‘uncha avsofi hamidamiz zamon avroqida boqiy qolg‘ay va zikri pisandidamiz jahon majolisida salotin bazmig‘a sho‘rish solg‘ay [Munis, Agahi 1988, 18–19]”.

Asarning yozilish sababi haqidagi muallifning bu ma‘lumotidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: *birinchidan*, adibga vazifa yuklar ekan, hukmdor “nazm rishtasig‘a durri maknun tersang va nasr bisotig‘a gunogun ziynat bersang”, deya ta‘kidlaydiki, bu so‘zlar “Firdavs ul-iqbol” yozilishi rejalashtirilgan kezdayoq tarix materialiga asoslangan adabiy asar sifatida ijod qilinishi mo‘ljallanganini ko‘rsatadi. *Ikkinchidan*, Eltuzarxon ma‘rifatli hukmdor bo‘lganligi bois ham “avsofi hamida”si “zamon avroqida boqiy qolishi” faqat so‘z san‘ati orqali amalga oshishini his etgan hamda ushbu asarning yuzaga kelishi uchun moddiy va ma‘naviy homiylik qilgan.

“Firdavs ul-iqbol” debocha va muqaddimadan tashqari besh bobdan tarkib topgan. Bu haqda Shermuhammad Munis quyidagicha ma‘lumot beradi: “...bu muxtasar shuru‘ig‘a xomai ibtido suruldi, chun bahori iqboli sohibqironiy bila firdavsdek ziynat topib erdi, binoan ilayh “Firdavs ul-iqbol”g‘a mavsum bo‘ldi. Bir muqaddima, besh bob, bir xotimag‘a taqsim topti. Hazrat Izidi kombaxshdin umid ulkim, unvoni iftitohin tatimmai ixtitomg‘a mavsul va muqaddimai og‘ozin xotimai anjomg‘a mashmul qilg‘ay.... *Muqaddima* ba‘zi maxsusoti a‘loxoqoniy zikridakim, osori iqboli sohibqironiy erdi.

*Avvalg’i bob* hazrat Odam *alayhissalom* ijodidin<sup>1</sup> Nuh *alayhissalom* avlodig’acha mazkur bo’lur. *Ikkinchi bob* Yofas *alayhissalom*din *qo’ng’irot* sho’basig’acha *mo’g’ul* podshohlarining zikrida. *Uchunchi bob* Qurlos avlodidin podshohliq marotibig’a yetganlar zikridakim, so’ngi Abulg’ozixon ibn Yodgorxondur. *To’rtunchi bob* hazrat podshohi sohibqironning ajdodi kirom va aboi zu-l-ehtromining zikrida. *Beshinchi bob* hazrat podshohi sohibqironning valodati humoyunidin bu risolai saodatmaqola itmomig’acha har vaqoye’kim osori sohibqironiydin vuqu’ topmish va vuqu’ topg’usidur – zikr qililur. *Xotima* avliyoyi izom va ulamoi kirom va umaroi zu-l-ehtrom va sohibdavlat beklar va zakiytab’ shoirlar va donishmand fozillar va falotunfitrat hunarmandlar va ba’zi umuri g’aribakim, hazrat podshohning ayyomi maymanatanjomida vuqu’ topibdur, alar hikoyotig’a maxsusdur” [Munis, Agahi 1988, 20–21].

Shermuhammad Munis asarni yozishga kirishar ekan, uning kompozitsion tuzilishini ana shunday rejalashtirgan. Biroq bir qancha sabablarga ko’ra muallifga asarni ushbu reja asosida nihoyalash nasib etmagan. Birinchidan, adib asarning eng qizg’in voqealari tasvirini yozayotgan kezda Muhammad Rahimxon unga Mirxondning mashhur “Ravzat us-safo”sini o’zbek tiliga tarjima qilish vazifasini topshiradi. Keyinchalik zimmasiga “Firdavs ul-iqbol”ni davom ettirish mas’uliyati yuklangan Muhammad Rizo Ogahiy bu haqda “...xoqoni mag’fur va shahanshoi mabrur Muhammad Rahim Bahodirxon *alayhirrahma va-l-g’ufro*ning julusi maymanatma’nusining yettinchi yilig’acha voqe’ bo’lg’on barcha voqe’otni bir-bir bayon qilib va Dashti Qipchoq safari vaqoye’in ham mastur etib, hanuz o’zga vaqoe’g’a shuru’ qilmaydur erdi, ul hazrat musannif *alayhirrahmani* (*ya’ni Munisni – N.J.*) “Ravzat us-safo” kitobinkim, forsiy lafzi bila mubayyandur, turk lafzi bila muzayyan etmakka amr qildi. Chun musannif “al-ma’muru ma’zur” mufodi bila “Ravzat us-safo”ni turkiy qilmoqg’a ishtig’ol ko’rguzdi, bu kitob (*ya’ni “Firdavs ul-iqbol”*) tahriri bilkull matruk va maslub bo’ldi,” – deb yozadi [Munis, Agahi 1988, 891].

Ikkinchidan, 1929-yili Shermuhammad Munisning vafot etishi bu rejaning amalga oshishiga monelik qiladi. Ogahiy asarni o’zi davom ettirishga majbur bo’lishining bu sababini ham zikr etgan: “Chun “Ravzat us-safo”ning avvalg’i daftari tamom bo’lub, ikkinchi daftari ham “Badr g’azvasi”g’a yetganda, ul hazratning umri quyoshi ajal mag’ribig’a g’urub qildi” [Munis, Agahi 1988, 891].

Ana shu sabablarga ko’ra asarni Ogahiy davom ettirdi va

<sup>1</sup> Bu yerda “ijod” so’zi “yaratilish” ma’nosida kelgan.



nihoyasiga yetkazdi. Biroq adib bu ishga oradan o'n bir yil o'tgach kirishgan. Sababi, Shermuhammad Munis vafotidan keyin Ogahiyga "Ravzat us-safo" tarjimasini davom ettirish vazifasi yuklatiladi. Bu asar tarjimasini Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrda Mirxond ijodiy tajribasidan ham saboq olganini ko'rsatadi. Eltuzarxonning o'rniga Xiva taxtiga chiqqan Ollohqulixon davrida, uning farmoniga ko'ra Ogahiy "Firdavs ul-iqbol"ni davom ettirib, nihoyasiga yetkazadi. Asarning 1813-yildan 1825-yilgacha bo'lgan voqealari tasvirini yozgan adib uni badiiy-tarixiy nasrning betakror namunasi sifatida yakunlab, avlodlar mulkiga aylantira oldi.

"Firdavsul-iqbol"ning tarixiy ilmiy asar emas, badiiy-tarixiy nasr namunasi ekani nimalarda ko'rinadi? **Birinchi**dan, har qanday asarning xususiyati uning tilida, ifoda uslubida namoyon bo'ladi. "Firdavs ul-iqbol" saj'li nasrda, badiiy uslubda yozilgan. Axir unda tarixiy voqealar bayon qilingan-ku, tarixiy asar deb nomlanib kelgani sababi shu-ku, degan e'tirozga javoban aytish kerakki, gap qanday material qalamga olinganida emas, uning qay tarzda ifodalangani, tasvirlanganidadir. Ushbu fikr isboti uchun asardan birgina parcha keltirib, tahlil qilishga harakat qilamiz: "...jahon fozillarining afzali va zamon komillarining akmali, fazlu donish tengizining timsohi, aqlu binish safinasining mallohi, ilm quyoshining matla'i va kamol ahlining marja'i... halloli mushkuloti daqoyiq, kashshofi g'atoyoyi haqoyiq, fazoilmaob, kamolotintisob, ya'ni Munis *mirob*.." [Munis, Agahi 1988, 888-889].

Ogahiyning ustozlari Shermuhammad Munisga ehtiromi ifodasi bo'lgan ushbu iqtibosda o'n bir saj'lanuvchi qism mavjud: *jahon – zamon, fozillarining – komillarining, afzali – akmali, fazlu – aqlu, donish – binish, timsohi – mallohi, matla'i – marja'i, halloli – kashshofi, mushkuloti – g'atoyoyi, daqoyiq – haqoyiq, fazoilmaob – kamolotintisob – Munis mirob*.

Ulardan birinchi, uchinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi va o'ninchi saj'lanuvchilar mutavoziy (ham vazn, ham qofiyada moslashuvchi); o'n birinchisi mutarraf (vaznda moslashmagan), ikkinchi, to'rtinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi esa mutavozindir (vaznda mos, qofiyada moslashmagan).

Saj' hosil qiluvchi so'zlar "fosila" deb atalishi ma'lum. O'zidan oldingi so'zlar birikmasi bilan saj'ning bir bo'lagini tashkil qilgan har bir fosila "qarina" deyilishi ham ayon (she'riyatdagi, aruzdagi *fosilaning* bunga aloqasi yo'q). Ogahiy nasrida saj'ning yuqorida bayon etilgan barcha shakliy sifatlarini ko'rish bilan birga, saj'lanuvchilarning joylashishida ham o'ziga xoslik kuzatiladi.

Yuqoridagi jumlada *timsohi* va unga saj’lanuvchi *marosimi* fosilalarining har biridan oldin bittadan so’z qo’llangan. Ba’zan fosiladan oldin bir va unga saj’lanuvchidan avval bir necha so’z qo’llanishi yoki aksincha bo’lishi ham mumkin. Yuqoridagi iqtibosda aksar saj’lanuvchilar orasida qarina mavjud emas.

Asarning badiiy-tarixiy nasr namunasi ekaniga **ikkinchi dalil**, yuqorida ta’kidlanganidek, Sher Muhammad Munisning uni yozishga amr etilganida xon tilidan bitilgan: “nazm rishtasig’a durri maknun tersang va nasr bisotig’a gunogun ziynat bersang” so’zlaridir. Zero, Muhammad Rahimxon Munisning shunchaki bir tarix kitobi emas, “nasabi humoyunini so’z devonida kursinishin va ajdodi amjodi asomiysin tarix xotamida naqshi nigin qilish”ga loyiq, shuningdek, muallif mubolag’a bilan aytganidek, hukmdorning go’yo afsonaga ziynat beruvchi, “Shahnoma”ni nosix (*bekor – N.J.*) qiluvchi “o’z holoti va ba’zi futuhoti”ni “so’z avroqida boqiy qoldirish”ga munosib bir asar bitmog’ini istaydi. Bu niyatga tarixiy voqelikni shunchaki bayon qilish bilangina erishib bo’lmasligi ayon. Buning uchun kitob badiiy asar maqomiga ko’tarilishi shart edi.

**Uchinchidan**, badiiy-tarixiy nasr namunasi xuddi xalq og’zaki ijodiga mansub dostonlar kabi Munis va uning buyuk salaflari Rabg’uziy, Mirxond, Xondamir va Abulg’ozining shu tipdagi asarlari an’anasiga ko’ra nazm bilan ziynatlanishi shart edi. Asar xuddi shu uslubda yozilgan. Undagi nazm namunalari saj’li nasrda bitilgan fikrlarni tasdiqlash, to’ldirish, ularga izoh berish, va nihoyat, asarning badiiyati – poetik jozibasini oshirish maqsadlariga xizmat qilgan.

“Firdavs ul-iqbol” matniga qasida, g’azal, masnaviy, qit’a, ruboiy, fard, tarkibband, ta’rix singari janrlarga oid qariyb olti ming misra she’r kiritilgan. Shundan katta qismi – besh ming misraga yaqini asarning Munis yozgan qismidan, 1022 misrasi esa Ogahiy yozgan qismidan o’rin olgan.

Asarda “nazm” sarlavhasi bilan to’qqizta she’r berilgan. Ulardan biri (hajmi 6 misra) – qit’a janrida, qolgan sakkiztasi esa (hajmi 142 misra) masnaviy shakliga mansub. To’rt misrali bitta munojot ham masnaviyda bitilgan. “Masnaviy” sarlavhasi bilan ellik beshta she’r berilgan. Yana bir sarlavhasiz masnaviy hamda “nazm” nomi bilan havola etilgan sakkizta masnaviy ham qo’shsak, asarda keltirilgan masnaviy janriga oid she’rlar oltmish to’rtta (hajmi 960 misra) ekanligi ayon bo’ladi. Qit’alar soni, “nazm” sarlavhasida berilgan bitta qit’ani qo’shsak, yettitani (hajmi 32 misra) tashkil qiladi. Ta’rixlar esa ikkita (hajmi: 8 misra). “Bayt”

sarlavhasida berilgan she'rlar, bizningcha, fard janriga mansub. Shunda fardlarning jami soni to'qqizta ekanligi (hajmi: 18 misra) ayon bo'ladi. Ruboiy – bitta.

Ta'kidlash kerakki, asarning Ogahiy yozgan qismiga kiritilgan she'rlar, Shermuhammad Munisning ikki ta'rixini istisno qilganda, faqat muallif ijodiga mansub. Munis tomonidan bitilgan qismida esa, asosan, o'z she'rlari keltirilgan bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda muayyan fikrni tasdiqlash uchun Mullo Sayyidoyi Buxoriy, Nizomiy, Sa'diy, Firdavsiy, Mirzo Nozim Hiraviy, Vafoiy singari shoirlar she'rlari ham istifoda etilgan.

“Firdavsul-iqbol”ga kirgan turli janrlarga oid she'riy matnlar har biri kompozitsion tugalligi bilan alohida asar sifatida baholanishi mumkin. She'riy matnlar voqelikning nasriy talqinini biror-bir jihatdan takrorlamaydi, aksincha, ular matn yaxlitligini ta'minlashi, asarning asosiy g'oyasini yorqin badiiy bo'yoqlarda, poetik jozibadorlikda ifodalash va izohlashga xizmat qilishi jihatidan yuksak adabiy-estetik qimmatga ega.

“Firdavsul-iqbol”ning Ogahiy yozgan qismidagi she'riy matnlar mavzuiiga ko'ra quyidagicha tasnif etildi: 1) asarning yozilish sababi ta'rifi; 2) xon va uning a'yonlari vasfi; 3) bunyodkorlik ishlari tavsifi; 4) harbiy mojarolar tasviri; 5) shikor – ov tavsifi; 6) to'y, sport va xalq o'yinlari talqini.

### **Asarning yozilish sababi ta'rifi**

Ogahiy “Firdavs ul-iqbol”ni davom ettirish vazifasi o'ziga yuklangani haqida avval nasrda mana bunday izoh beradi: “...hazrat sohibqironning julusi saodat ma'nusining o'n beshlonchi yilim, sana ming ikki yuz ellik beshda (1840-milodiy yil – N.J.) erdi, bu bandai bebizoat va qalil ul-istitoat va bu go'shanishini vayronai alam va malolat, ahqari ibodi malik il-vahhob, zaifi najif Muhammad Rizo *mirob* al-mutaxallis bi-l-Ogahiy ibn Erniyozbek birodarzoda va dastparvardai Munis *mirob g'afarollohu zunubahum va satara uyubahum*kim, ul hazratning xizmatkori qadimiy va jonsipori samimiyi erdim, nogoh jabhai ahvolimg'a diydai marhamati va nosiyayi avqotimg'a ayni inoyatidin nazari kimyoasarin solib, bu parishon avroqkim, tarkibidin ko'ngul mutahayyir, balki aqli kull mutaazzirdur, jam' qilib, itmomg'a yetkurmakni buyurub, bu dilxastani mazallat tufrog'idin ko'tardi va iftixorim boshin falaki davvordin o'tkardi” [Munis, Agahi 1988, 893].

Darhaqiqat, muallif oldida murakkab vazifa turardi. Ustozi Shermuhammad Munis boshlagan yirik hajmdagi asarni davom

ettirish, xosu avomga ma’qul darajada nihoyalash oson emasligi aniq edi. Qolaversa, asosan lirik she’rlar yozib yurgan shoir endi boshqa adabiy turda – badiiy-tarixiy nasrda qalamini sinab ko’rishi talab etilar, unda esa bunday tajriba hali yo’q edi. “Chun ul hazratning iltifot va inoyotidin bu amrg’a ixtisos topdim “al-ma’muru ma’zur” muqtazosi bila bo’yinsunub, qulluq qilmoqdin o’zga chorae topmadim. Yo’q ersa manda ul qudrat qaydakim, mundoq ishga qo’l yetkurgayman va ul quvvat qaydakim, bu yanglig’ qattig’ yo’lg’a qadam urg’oyman” [Munis, Agahi 1988, 894], degan so’zlari ham muallif bu ishga katta mas’uliyat bilan kirishganini ko’rsatadi. Quyidagi masnaviy uning bu so’zlari mazmunini to’ldirishi, izohlashi bilan ahamiyatlidir:

*Pashsha kimu fil yuki toqati,  
Zarra kimu mehri munir ulfati.  
Sham’g’a parvona o’zin begumon,  
Anglaki yetkurmoqu kuymak hamon.  
Tushti ajab ollima yo’l bas yiroq,  
Marhala noyobu manozil uzoq.  
Biym budur: kim anga qo’ysa qadam  
Rohzan o’lg’ay mango afvoji g’am.  
Lek shah altofi tutub gar qo’lum  
Qilsa xalo rahzani g’amdin yo’lum.  
Qilg’omen oz chog’da dalerona tay  
Eltgamen manzilu maqsadg’a pay*

[Munis, Agahi 1988, 894].

Sharqona lutf (o’zini pashshaga, xon amriga ko’ra asar yozishni fil yukiga qiyoslash, ayni kezda o’zini zarraga, mazkur yumushni nurafshon quyoshga mengzash), badiiy san’atlar (*tazod*: pashsha – fil, *tanosib*: zarra, mehri munir; yo’l, marhala, manozil va h.k.), ohorli mazmun va poetik joziba mujassam bo’lgan bu she’r muallifning asarni yozishga nechog’lik katta javobgarlik hissi bilan kirishganidan, shuning barobarida, unda bunga loyiq salohiyat va shijoat bo’lganidan darak beradi.

Asarni yozishga kirishar ekan, Ogahiy masnaviy yo’lida munojot yozadi. Munojotda shoir juda qiyin, tunganmas ishga qo’l urganini ta’kidlab, uni poyoniga yetkazishda Alloh taolodan madad so’raydi:

*Iloho, man ojizu benavo,  
Tunganmas ish etgum durur ibtido.  
Hazin xotirimni yetur komig’a –*

*Ki, ya’ni ishim yetur anjomig’a* [Munis, Agahi 1988, 898].

Umuman, bu turkum she'rlar asar biografiyasini, uning yaratilishi bilan bog'liq omillarni va muallif ijodiy uslubini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.

### **Xon va uning a'yonlari vasfi**

“Firdavs ul-iqbol” badiiy uslubda yozilgani uchun unda muallifning adabiy-estetik ideali talqini masalasini o'rganish zarurati yuzaga keladi. Ta'kidlash kerakki, asarda ijodkor ideali xon timsolida tasvirlangan. Bu turkum she'rlarda vasf etilishicha, xonning adolati shu darajadagi, adlidan jahon mulki obod, u shunchalik saxiyki, xayr-u ehsonidan ulus xotiri shod. Birgina misol:

*Hotami Toyiki karamdur ishi,  
Xalqg'a bermak bo'lubon varzishi.  
Ul dag'i bahra olib ehsonidin,  
Zillasitondur karami xonidin*

[Munis, Agahi 1988, 899].

Muallifning bu turkum she'rlarda mubolag'ali tarzda ta'rif-u tavsif etishicha, agar sultoni sohibqiron qahr qilsa, zulm uyi vayron, lutf etsa, dahr eli shodon bo'ladi. U shu qadar qudratliki, dunyo sultonlari uning muruvvatiga muhtoj, huzurida qo'l qovushtirib turadi, unga qullik qilishdan faxrlanadi. U barcha ilmlarni egallagan, kamolotda hech kimga nasib etmagan cho'qqiga erishgan. Xorazm xonlarining, jumladan, Muhammad Rahimxonning saltanat ishlarida adolatga intilgan ma'rifatli hukmdor ekaniga shubha bildirmagan holda ta'kidlash kerakki, Ogahiy xon va uning a'yonlari tasvirida real voqelikdan ko'ra ko'proq o'zining idealini vasf etgan. Hukmdor qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak, uning nafaqat o'z mamlakatidagi, jahon miqyosidagi nufuzi qay maqomda bo'lmog'i darkor, fuqaro va raoyoga qay tarzda munosabat qilmog'i zarur – ana shu singari masalalarda shoir o'z tasavvuridagi komil shohni tasvirlaydi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, yuksak nazmiy mahorat bilan yozilgan bu turkum she'rlar shoirning ijtimoiy-estetik idealini belgilash va o'rganishda prinsipial ahamiyatga ega.

### **Bunyodkorlik ishlari tavsifi**

Xorazm xonlari, jumladan, asarning bosh qahramoni bo'lgan Muhammad Rahimxon tabiatan bunyodkorlikka moyil. U ko'plab masjidlar, madrasalar, yoflar (kanallar), ko'prik va rabotlar barpo etgan. Adabiy an'anaga ko'ra bunday inshootlar qurilishi munosabati bilan ta'rixlar bitilishi ma'lum. “Ta'viz ul-oshiqin”ga ana shunday yigirma bitta ta'rix kirgani ham buning dalilidir. Bu

mavzuda nafaqat ta’rix, ko’plab boshqa janrlardagi she’rlar ham bitilgan. “Firdavs ul-iqbol” da bu mavzu asosan masnaviyda qalamga olingan. Jumladan, muallifning yozishicha, “Ul ovoni saodatnishopda Sayyod hovlining imoratikim, ul hazratning me’mori davlatidin toza bino topib, matonat va istehkomi *kaannahum bunyonun marsus (go’yo tutash binolardek<sup>1</sup>)* oyati bila maxsus erdi va bog’i ishratafzosi va man daxalahu kona ominan (*bu yerga kirgan odam omon bo’lur*) ishoratig’a maxsus”. Asarda ana shu ma’lumotdan keyin quyidagi masnaviy matni keltirilgan:

*Rashki behisht erdi anga har qusur,  
Oshiqi oning edi g’ilmonu hur.  
Bosh chekibon ko’ngiri Kayvong’acha,  
Zirvasi ham gunbazi gardung’acha.  
Manzari ayvoni bo’lub dilkusho,  
Sahni havosi edi ishratfizo.  
Bog’i nazohatda jinon g’ayrati  
Har shajari sarvi ravon g’ayrati.  
Behad edi mevai alvon anga,  
Teng bo’la olmay mazai jon anga*

[Munis, Agahi 1988, 900].

Har qanday mavzuda, hatto bunyodkorlik ishlarining nazmiy tavsifida ham Ogahiy so’zining fasohati va balog’ati yaqqol namoyon bo’lib turadi. Bu mavzudagi she’rlar ham asardagi badiiy tasvir jozibasini yanada oshirishga, matnni san’atkorona ziynatlashga xizmat qilgan.

### **Harbiy mojarolar tasviri**

Ma’lumki, XIX asr millatimiz tarixiga tanazzul asri sifatida kirgan. Xonliklar o’rtasidagi ziddiyatlar, ichki nizolar oxir-oqibat yurtni ijtimoiy-siyosiy buhronga olib keldi, Rusiya mustamlakasi girdobiga tushirdi. “Firdavs ul-iqbol” da ana shu ichki nizolar, ziddiyatlar, ma’naviy inqiroz yetilib kelayotgan tarixiy vaziyat qalamga olingan. Asardan o’rin olgan bir qancha she’rlarda Muhammad Rahimxon qo’shinining Xuroson va Dashti Qipchoqdagi, shuningdek, Xorazm atrofidagi ko’chmanchi qabilalar bilan olib borgan harbiy harakatlari, xon bilan Buxoro hukmdori Amir Haydar sipohi o’rtasidagi jang-u jadallar, behuda qon to’kilishi voqealari qalamga olingan. Bu mavzudagi she’rlarda zohiran Xiva askarlarining

---

<sup>1</sup> Matnda Qur’oni karim oyatlari asliyatda berilgan. Oyati karimalar ma’nosi Shayx Alouddin Mansur amalga oshirgan o’zbekcha izohli tarjimaning 2004-yilgi nashridan olindi.

jasorati vasf etilgandek ko'rinisa ham, nazmiy matnlar zamirida ulug' mutafakkirning bunday harbiy mojarolarni ma'qullamasligi sezilib turadi. Hatto shu mavzudagi she'rlarning ayrimlarida uning pand-nasihati ruhida qarashlari ham ifodalanadi. Mana bu qit'a mazmuni buning yorqin dalilidir:

*Ko'ngulni bog'lama nomard va'dasig'a dame –  
Ki, va'dasida aning bo'lmag'ay vafo hargiz.  
Muloyim o'lma dame dushmani qadimig'ga,  
Muloyimat bila ul bo'lmas oshno hargiz.  
Toshi yiloning agar har nechaki bazm durur,  
Va lek bo'lmas ichi zahardin judo hargiz*

[Munis, Agahi 1988, 1067].

Umuman, harbiy mojarolar talqiniga bag'ishlangan she'rlarni alohida qaralganda ham mustaqil nazmiy asar deb hisoblash mumkin bo'lsa-da, ular asarning umumiy g'oyasini to'ldirishga, mukammallashtirishga xizmat qilishi bilan umummatnning ajralmas bo'lagidir. Ta'kidlanganidek, "Firdavs ul-iqbol" badiiy-tarixiy nasr namunasi va shu bois asar matniga kiritilgan she'rlar uning adabiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

### **Shikor – ov tavsifi**

Asarda muallif "hazrat sohibqironi firdavsmakon", ya'ni Muhammad Rahimxon aksar vaqtlarda "shikor irodasi bila harakat ko'rguzub, bu bahona birla atrofdag'i fuqaro va ajaza boshlarig'a soyayi marhamat solib, arzin eshitib, dodig'a yetmak"ni odatga aylantirgani haqida yozadi. Bir turkum she'riy matnlar ana shu shikor – ov tavsifiga bag'ishlangan.

*Har dam qilibon shikor bir nav',  
Har lahza etib shior bir nav'.  
Har kun bo'lub o'zgacha saforo,  
Qush solmoq ila qilib tamosho.  
Gohi olibon solib itolg'u,  
Bir lahzada behisob ohu.  
Gohi solibon parranda shahboz,  
Haddin ko'p olib tazarv ila qoz...*

[Munis, Agahi 1988, 1004].

Bu mavzudagi she'rlar, muallif ta'kidlaganidek, hukmdorning mamlakat hududlarini aylanib, fuqaro ahvolidan xabar olishiga oid voqelik qalamga olingani jihatidan ham, Xorazm hududining tabiati, hayvonot dunyosi haqida qimmatli ma'lumotlar berishi nuqtai

nazaridan ham alohida ahamiyatga molik. Ayni shu xususiyatlari ushbu turkum she’rlarning asar umumiy mazmunini to’ldirishda, uni poetik jihatdan sayqallashda muhim o’rin tutishini ko’rsatadi.

### **To’y, sport va xalq o’yinlari talqini**

“Firdavs ul-iqbol”da Ogahiy Muhammad Rahimxonning ikkinchi o’g’li shahzoda Rahmonquli to’raga “xatna sunnatin ijro qilurg’a suri mavfur us-surur va jashni azim tartib bergani” tavsifiga ancha batafsil to’xtaladi. Shoir:

*Yig’nalibon ul sifat asbobi sur –  
Kim, bo’lubon vasfida ojiz shuur.  
Safhae ta’rifig’a surmak qalam,  
Charxi barin avjig’a urmoq qadam,*

[Munis, Agahi 1988, 901] –

deya to’y munosabati bilan “*adolat laoliysi ummoni, saxovat yavoqitining koni*” bo’lgan xonning qo’llari bamisoli dengizdek gavharlar sochgani, xaloyiqqa siym-u diram ulashib, fuqaro va raoyoni xayr-u ehsonidan komron qilgani haqida yozadi. Bu turkum she’rlarda xonning fazilatlarini mubolag’ali tarzda, pafos bilan talqin etiladi. Bunday talqin usuli, birinchidan, muayyan hayotiy asosga ham ega bo’lsa, ikkinchidan, ularda Ogahiyning adolatli, raiyatparvar hukmdor haqidagi ideali ham o’z ifodasini topgani kuzatiladi.

Asarda, shuningdek, bir qancha xalq o’yinlari, jumladan, kurash, otchopar singari tomoshalarning nazmiy talqini ham alohida o’rin tutadi. Jumladan, yuqorida zikr etilgan to’yda otchopar tomoshasi uyushtiriladi, muallifning saj’da ifodalashicha, unda “*samandi falakhay’atu barqsur’at va raxshi devbodi sarsarnihod*” otlar ishtirok etadi. Shoir ularni masnaviyda quyidagicha ta’riflaydi:

*Erdi bori barq kibi tez tak,  
Qilg’uchi bir lahzada qat’i falak.  
Sur’at aro sibqat etib barqdin,  
G’arbg’a bir damda borib Sharqdin*

[Munis, Agahi 1988, 907].

Bu singari xalq o’yinlari, avvalo, raiyatning kayfiyatini ko’tarishda, qolaversa, qo’shinning jangovarligini oshirishda alohida o’rin tutgan. Muallifning mahorati bois bu mavzudagi she’rlar ham asarning umumiy g’oyasini, asosiy mazmunini boyitishga xizmat qilgani, voqealar tasviriga ruh bag’ishlagani jihatidan umumiy matnning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.



“Firdavs ul-iqbol”ning Ogahiy yozgan qismidagi she’riy matnlarni janr va shakl xususiyatlariga ko’ra quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) masnaviylar; 2) ruboiy; 3) qit’alar; 4) fardlar; 5) ta’rixlar.

### **Masnaviylar**

Asar tarkibiga kirgan she’rlar ichida son jihatdan ham, salmoq jihatdan ham eng ko’p uchraydigani masnaviylardir. Ular, ta’kidlanganidek, oltmish to’rtta bo’lib, 960 misrani tashkil etadi. Shoir masnaviylari bo’yicha nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan Abdurahmon Pirimqulov “Ta’viz ul-oshiqin”da va badiiy-tarixiy asarlarining to’rttasida (tadqiqotda “Firdavs ul-iqbol” va “Shohid ul-iqbol”ga kirgan masnaviylar qamrab olinmagan) uch yuz uchta masnaviy borligi, ularning hajmi 3905 baytdan iborat ekanligi haqida ma’lumot beradi [Pirimqulov 1998, 7]. “Firdavs ul-iqbol”da masnaviylar boshqa she’riy janrlarga nisbatan ko’pligi va shu paytgacha maxsus o’rganilmaganligi ular xususida alohida to’xtashni taqozo etadi.

Hazrat Navoiy masnaviyni “maydoni vase” deb atagani ma’lum. Shayx Ahmad Taroziyning qayd etishicha “...masnaviyning sharoitidin birisi uldurkim, agar hikoyatni nazm qilur bo’lsa, kerakkim, debochasin xo’b iborat va yaxshi tariqa birla ta’rif qilsa va sa’ye ko’rguzsakim, fotiha birla xotimasi pisandida kelgay. Va bir shart uldurkim, muxtasar alfoz birla sharhga kelturgay. Va bir shart uldurkim, har yerdakim, razm va bazm birla ta’rif qilg’ay” [Taroziy 2002, 84].

“Firdavs ul-iqbol”dagi masnaviylar turkiy she’riyat nazariyotchisi Shayx Ahmad Taroziy ta’kidlagan shartlarga to’liq javob bera oladi. Asarda “nazm” sarlavhasi bilan berilgan 74 baytli eng katta hajmli masnaviyning “*fotihasi birla xotimasi pisandida kelgan*”i buning dalili. Mana, masnaviyning “fotiha”si:

*Charx zollikim base makkor erur,  
Zolim-u berahm-u kajraftor erur.  
Doimo makr-u hiyaldur peshasi,  
Xalqq’a bermak firib andeshasi.  
Hay’atidin oshkoro shumliq,  
Ham xiromidin ayon meyshumliq.  
Kimnikim ko’rsa azizu komron,  
Qasdi – xor etmak durur ham notavon.  
Kim esa maqsud husuli birla shod,  
Fikri oni aylamakdur nomurod...*

[Munis, Agahi 1988, 1188–1 189].

Mumtoz she’riyat tarixida charx zolining zolim, berahm, kajraftor ekanligi haqida ko’p yozilgan. Biroq ushbu masnaviy “fotiha”si makr-u hiyla peshasi bo’lgan, xalqqa firib bermakni a’moliga aylantirgan, kimniki aziz-u komron ko’rsa, xor-u notavon qilmoqqa qasd aylaydigan, maqsadi hosil ekanidan shod yurgan odamni nomurod aylamak fikridagi *charx zoli* obrazi metafora, tansiq us-sifot, tanosib, tazod singari badiiy san’atlar vositasida betakror tasvirlangani bilan alohida ajralib turadi.

Ta’kidlash joizki, masnaviy xotimasi ana shu tasvirni xulosalab kelgan. Modomiki charx zoli shunaqa makkor va rahmsiz ekan, oqil odamning unga munosabati qanday bo’lmog’i kerak? Qay yo’l bilan u davlat-u iqbolga erishmog’i mumkin? Masnaviy xotimasi ana shu singari savollarga javob berishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi:

*Oqil ulkim, dahrdin silkib etak,  
Ursa tajridu qanoat sori tak.  
Tark tutsa har na yo’qu borini,  
Balki o’zluk bori-yu osorini.  
Aylasa maskan fano mayxonasin,  
Qilsa no’sh o’fodalig’ paymonasin.  
Bo’lsa madhush uylakim bilmay o’zin,  
Ochmasa to Hashr qo’pg’uncha ko’zin.  
Bu durur ma’ni eliga shohlig’,  
Davlatu iqbolu sohibjohlig’.  
Soqiyo, ber kosai ozodalig’,  
Lab-balab aylab mayi aftodalig’.  
To ichib oni halovat aylayin,  
Lahzae mayli farog’at aylayin*

[Munis, Agahi 1988, 1191–1192].

Ko’rinib turibdiki, masnaviyning “fotihasi birla xotimasi pisandida kelgan”, ya’ni “fotiha”da qo’yilgan poetik muammo “xotima”da yechilgan, hal etilgan. Muhammad Rahimxon vafoti munosabati bilan bitilgan bu masnaviyda fano va baqo falsafasi o’ziga xos badiiy talqin qilingan.

Shoir masnaviyklarining xos xususiyatlarini akademik Vohid Abdullayev quyidagicha izohlaydi: “Ogahiy yashab turgan davrda Xorazmda dostonchilik janri keng rivoj topmagan bo’lib, katta dostonlar ham juda kam edi. Ammo katta hajmli she’rlarni – masnaviyklarni Munis, Komil kabi ayrim shoirlar ijodida ko’proq uchratish mumkin edi. Bunday masnaviyklar Ogahiy devonida ham

bor. Biroq shunisi xarakterliki, Ogahiyning ko'pchilik masnaviydari Navoiy "Xamsa"sidagi dostonlar vaznida bo'lib, ba'zilari ma'lum voqelikni hikoya qilishi jihatidan kichkina dostonchaga ham o'xshab ketadi" [Abdullayev 1967, 370]. Bu fikrlar "Firdavs ul-iqbol"dagi masnaviydarga ham tegishli ekanini ta'kidlash kerak. Yuqorida tahlil etilgan masnaviyning fano va baqo falsafasiga oid ramzlar va timsollar tili bilan yozilgan hajman kichik, lekin mohiyatan teran dostonga mengzashi ham buning dalilidir. Shuning barobarida, masnaviydar asarning umummatnidan ajralib qolgan emas, uning tarkibiy qismi sifatida muayyan fikr yoki tasvirni izohlashga, to'ldirishga xizmat qiladi. Asardagi masnaviydarini mufassal tadqiq qilish galdagi vazifalardan ekanini ta'kidlash kerak.

### **Ruboiy**

"Firdavs ul-iqbol"ning Ogahiy yozgan qismida birgina ruboiy matni kelgan.

*Vus'at aro monandi aning kam erdi,  
Qoplon falakka sherdin ram erdi.  
Andoq qalin erdiki, yilon yo'l topmay,  
Ashjori avji charxg'a muhkam erdi*

[Munis, Agahi 1988, 1054].

Ushbu ruboiyda Xorazmdagi Bodoy to'qayzori tasviri berilgan. "Zubdat ut-tavorix"da «*Bodoy bir beshayedururki, bag'oyat qalin va ziyoda vase'durur. Hazrati qutb ul-aqtob, afzal ul-as'hob, zubdat ul-komilin, umdat ul-vosilin Vays ul-Qaraniy roziyallohu anhu va hazrati haqiqatpanoh, hidoyatdastgoh Shayx Jalil ota qaddasa sirrahuning qadamgohlari dag'i tog' bila daryo o'rtasida voqe'durur*» [Ogahiy 2009, 106], deya ma'lumot beriladi. Ko'rinib turibdiki, "Firdavs ul-iqbol"dagi ruboiy va "Zubdat ut-tavorix"dagi ma'lumot bir-biriga uyg'un, bir-birini to'ldiradi. Vays ul-Qaraniy bilan Shayx Jalil otaning abadiy manzili bo'lgan bu zaminning tabiati, hayvonot dunyosi o'ziga xos ekani ruboiyda go'zal badiiy talqin etilgan. Ya'ni beshaning "*vus'at aro monandi kam*"ligi – keng va ulkan hududni qamragani, uning qoplonlari sherdan ham haybatliroq ekanligi tasviri bu fikrning isbotidir. Ruboiyda ifodalanishicha, Bodoyning to'qaylari shu darajada qalinki, ular orasidan ilon ham yo'l topib yurishi mahol, daraxtlari shu qadar yuksaklikka bo'y cho'zganki, charxning avjiga – eng yuqori nuqtasiga yetgan. Bir vaqtning o'zida mubolag'aning **tablig'** (*vus'at aro monandi kam erdi*), **g'uluvv** (*Qoplon falakka sherdin ram erdi, Ashjori avji charxg'a muhkam erdi*) hamda **ifrot** (*Andoq qalin erdiki, yilon yo'l topmay*) turlari qo'llangani

ruboiyning yuksak badiiyatini ta’minlagan.

O’z navbatida, bu ruboiy ham umummatnning tarkibiy qismi sifatida Bodoy to’qayzorining tabiati haqidagi muallif ma’lumotini to’ldirib, poetik jihatdan ziynatlab kelgan.

### **Qit’alar**

“Firdavs ul-iqbol”da Ogahiy ijodidan bu janrga mansub yetti she’r matni o’rin olgan. Shayx Ahmad Taroziy qit’aning avvalgi misrasi odatda qofiyalanmasligi, hajmi *“aqalli ikki bayt”* bo’lishi, *“muning ham aksari muqarrar ermasligi, har nechakim, qofiya tobsalar”* aytilishi mumkinligini [Taroziy 2002, 81] ta’kidlaydi. Biroq Ogahiy ijodi turkiy she’riyat nazariyotchisining qit’a haqidagi bu nazariy qarashlari o’zgarimas haqiqat emasligini, isloh etilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Negaki, Ogahiy qit’alari *“aqalli ikki bayt”* emas, balki bir baytdir. Asarda keltirilgan qit’alardan biri yagona baytdan iborat ekanligi bu fikrni tasdiqlaydi:

*Aql ila farosatkim, inson sharafi andin,  
Sha’nida aning go’yo bir oyati munzildur*

[Munis, Agahi 1988, 896].

Ta’kidlash joizki, “Firdavs ul-iqbol”dagi yetti qit’a matnning turli o’rinlarida boshqa-boshqa maqsadlar bilan keltirilgan bo’lsa-da, ular mantiqan o’zaro bog’liqdek, bir-birining uzviy davomidek taassurot qoldiradi. Bu yetti qit’aning mohiyatini quyidagicha muxtasar ifodalash mumkin:

- 1) aql-farosat insonni sharaflashi, shu munosabat bilan oyat nozil bo’lgani;
- 2) xulqi neku (olijanob xulq) bilan kufr eli ham islomga kirishi;
- 3) shohga sadoqat ko’rsatish fuqaroning o’ziga ham baxt keltirishi;
- 4) nomard va’dasiga ko’ngul bog’lamaslik;
- 5) dushman ustidan zafar qozonishda xayl (qo’shin) ko’p-ligiga mag’rur bo’lmaslik;
- 6) falak bevafoqligi va umr bebaqoligi;
- 7) sipehri jallod biror kimsani shod qo’ymasligi, odam farzandlariga adadsiz g’am yog’dirishi.

Ko’rinib turibdiki, ular alohida-alohida mavzularga bag’ishlangan bo’lsa-da, mohiyatan yaxlitlik kasb etadi. Biroq bu xususiyat har bir qit’aning alohida nazmiy asar ekanini inkor etmaydi. Shu bilan birga, qit’alar ham umummatnning tarkibiy qismi o’laroq asosiy g’oyani yorqinroq tasvirlashga, asarning badiiy

jozibasini oshirishga xizmat qilgan.

### **Fardlar**

Ta'kidlanganidek, bu janrdagi she'rlardan ikkitasi "fard" sarlavhasida, qolgan yettitasi esa "bayt" nomi bilan berilgan. "O'zbek klassik she'riyati janrlari" kitobi mualliflari bunday baytlarni fard deb atagan [Nosirov 1979, 170]. "Juda ko'p badiiy yoki tarixiy asarlarda ma'lum fikr so'ngida bayt keltirish an'anasi bor, – deb yozadi matnshunos N.Shodmonov. – Bayt janr emas, u biror asardan iqtibos tariqasida tanlab olingan bo'lishi ham, muayyan matn uchun maxsus yozilgan bo'lishi ham mumkin. Ikkinchi holda ham muallif bayt kalimasini qo'llasa-da, u alohida janrdagi she'r ma'nosini ifodalaydi" [Shodmonov 2009, 147].

Darhaqiqat, "Firdavs ul-iqbol" matnida "bayt" sarlavhasi bilan keltirilgan she'rlar tugal mazmunni ifodalashi, poetik mukammalligi jihatidan ham fard janri talablariga to'liq javob beradi. Asarda "bayt" sarlavhasi bilan berilgan quyidagi fard ham bu fikrni tasdiqlaydi:

*Berur o'lsa agar Xudo qulig'a  
Matlabin kelturub qo'yar yo'lig'a*

[Munis, Agahi 1988, 1031].

Bundan tashqari, bayt (fard)lar matnning uzviy qismi ekanligi va yuksak badiiyati bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Muhammad Rahimxonning dor us-saltanadan safarga otlanishi munosabati bilan yozilgan quyidagi fard buning yorqin misolidir:

*Minib iqbolu davlat markabig'a,  
Aningdekkim, quyosh ko'k ashhabig'a*

[Munis, Agahi 1988, 1088].

Tashbihning bundan ham mukammal namunasini ijod qilish mahol. Bu singari she'rlar Ogahiyning chindan ham "fasohat va balog'at bobida nodir, maoniy javohirin nazm etarga qodir" (shoirning o'z ta'biri – N. J.) ekanini tasdiqlaydi.

Umuman, "Firdavs ul-iqbol"dagi bayt (fard)lar nasrda berilgan tasvirni takrorlamasligi, aksincha uni to'ldirib, ifodaga badiiy sayqal berishi jihatidan ham yuksak adabiy-estetik qimmatga ega.

### **Ta'rixlar**

Avvalo, ta'kidlash kerakki, "Firdavs ul-iqbol"ga kirgan har ikki ta'rix Shermuhammad Munis qalamiga mansub bo'lib, "vufuri farosat va farti qiyosatda umaroi izomdin mumtoz va mustasno",

deya ta’riflangan Sulton mirob vafotiga bag’ishlangan. Mazkur ta’rifdan ham ko’rinib turibdiki, Sulton mirob Muhammad Rahimxon saroyining xos a’yonlaridan bo’lgan. Asarda u “faxr ul-millati va-d-din” deya vasf etilgan sayyid Yusuf xoja naqib bilan birga xonning qaynotasi Abdulloh xoja eshon to’yida asosiy tashkilotchilardan bo’lgani ham uning saroydagi nufuzi nechog’liq balandligining dalilidir. Asarda ularning *“to’y ustida muqarrar bo’lub, jashn muhomi-ning intizomig’a mashg’ul”* ekanligi ta’kidlanadi.

Ta’rixlarning birinchisi:

*Beki gardunhasham, mirobi dinparvar, amiri dahr,  
Humoyun nomi Sultonu sultonnasl, daryodil.  
Banogah tarki olam doda az shavqi Xudovandi,  
“Rahi firdavs raft” o’ ham az on ta’rix shud hosil*

[Munis, Agahi 1988, 1063–1064].

Demak, ta’rix moddasi ره فردوس رفت “Rahi firdavs raft” jumlasiga berkitilgan. Endi bu harflarning abjad hisobiga ko’ra qaysi raqamlarga to’g’ri kelishini aniqlaymiz: “re” – 200, ه “ho” – 5, ف “fa” – 80, ر “re” – 200, د “dol” – 4, و “vav” – 6, س “sin” – 60, ر “re” – 200, ف “fa” – 80, ت “te” – 400.

Ma’lum bo’ladiki, ره فردوس رفت jumlasidagi harflarning abjad hisobidagi yig’indisi – 1235 ga teng. Asarda Sulton mirobning vafoti “zul-hijjaning salxi”da sodir bo’lgani zikr etiladi. Sinxron jadvalga ko’ra, bu voqea milodiy 1820-yil 7-oktabrga to’g’ri keladi. Ta’kidlanganidek, keyingi ta’rix ham xuddi shu sana munosabati bilan yozilgan.

### **Xulosa**

“Firdavs ul-iqbol”ga kirgan nazm namunalari, avvalo, asarning badiiy saviyasi yuksak bo’lishini ta’minlagan. Ikkinchidan, bu she’rlar asar umummatnining tarkibiy qismi sifatida uning asosiy g’oyasini to’ldirish, izohlash, xulosalash vazifalarini bajar-gan. Uchinchidan, asarga poetik jozibadorlik bag’ishlab, ifodaning san’atkorona bo’lishiga xizmat qilgan. Umuman, “Firdavs ul-iqbol” matni ustida olib borilgan ilmiy kuzatishlar asarning adabiy manba sifatida filologik tadqiqotlar uchun boy material berishini ko’rsatadi.

### **Adabiyotlar**

Абдуллаев, В. 1967. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.  
Йўлдошев, М. 1959. *Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши*. Тошкент: Ўздавнашр.

- Кун, А. *Заметки о Хивинском ханстве*. 1873. Туркестанские ведомости. № 40.
- Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab. 1988. *Firdaws al-iqbal: History of Khorezm*. Ed. by Yu. Bregel. Leiden: Brill.
- Мунис ва Огаҳий. 2010. *Фирдавс ул-иқбол*. Араб ёзувидан табдил этган, кириш ва изоҳлар муаллифи: Шодмон Воҳидов, Исмоил Бекчанов, Неъматжон Полвонов. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Мунис, Огаҳий. 2010. *Фирдавс ул-иқбол*. Нашрга тайёрловчилар: Нусратулло Жумахўжа, Сафарбой Рўзимбоев, Абдулла Аҳмедов. Тошкент: Ўқитувчи НМИУ.
- Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. 2009. *Зубдату-т-таворих*. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Жабборов. Тошкент: Ўзбекистон.
- Навоий асарлари луғати*. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. 1972. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Носиров, О., Жамолов, С., Зиёвиддинов М. 1979. *Ўзбек классик шеърляти жанрлари*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Halèn, H. 1979. *Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature*. London–Malmö.
- Пиримкулов, А.Э. *Огаҳий маснавийлари*. Тошкент. Фил ф.н... диссертация.
- Seleman, C. 1894. *Das Asiatische Museum*. St. Peterburg.
- Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. 2002. “Фунуну-л-балоға”. *Ўзбек тили ва адабиёти*. 1-сон.
- Шодмонов, Н. 2009. «Шоҳиду-л-иқбол»нинг ўзбек бадиий-тарихий наصري тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи. Фил. ф.д... диссертация. Тошкент.

## **“Firdavsul-iqbol” – the first experience of Agahi in artistic and historical prose**

Nurboy Jabborov<sup>1</sup>

### **Abstract**

The article examines the literary and aesthetic value of the work "Firdavsul-iqbol", begun by Shermuhammad Munis, then continued and completed by Muhammad Rizo Agahi. Although historical events are described, it is analyzed that this work has a high artistic value in terms of the fact that it is written on the basis of saj, the style of poetic expression, the examples of poems of different genres. It has been scientifically proven that "Firdavsul-iqbol", as a perfect example of Uzbek literary and historical prose, served as a unique creative experiment for Agahi's works of this type.

**Key words:** *Sliterary-historical prose, source, verse, genre, style of expression, saj.*

### **References**

- Abdullaev, V. 1967. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Yuldoshev, M. 1959. *Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi*. Toshkent: Uzdavnashr.
- Kun, A. *Zametki o Xivinskom xanstve*. 1873. Turkestanskije vedomosti. № 40.
- Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab. 1988. *Firdavs al-iqbal: History of Khorezm*. Ed. by Yu. Bregel. Leiden: Brill.
- Munis va Ogahiy. 2010. *Firdavs ul-iqbol* (Arab yozuvidan tabdil etgan, kirish va izohlar muallifi: Shodmon Vohidov, Ismoil Bekchanov, Ne'matjon Polvonov). Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Munis, Ogahiy. 2010. *Firdavs ul-iqbol*. Nashrga tayyorlovchilar: Nusratullo Jumaxo'ja, S.Ro'zimboev, A.Ahmedov. Toshkent: O'qituvchi NMIU.
- Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. 2009. *Zubdatu-t-tavorix*. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar muallifi

---

<sup>1</sup> *Nurboy A. Jabborov* – Doktor of Philology, Professor, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**Email:** jabborov-nurboy@rambler.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-2192-7660

**For citation:** Jabborov, N. O. 2021. "Firdavsul-iqbol" – the first experience of Agahi in artistic and historical prose". *Golden scripts* 3: 4–24.



N.Jabborov. Toshkent: O'zbekiston.

*Navoiy asarlari lug'ati*. Tuzuvchilar: P.Shamsiev, S.Ibrohimov. 1972.  
Toshkent: Adabiyot va san'at.

Nosirov, O., Jamolov, S., Ziyoviddinov M. 1979. *O'zbek klassik she'riyati janrlari*. Toshkent: O'qituvchi.

Halèn, H. 1979. *Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature*. London–Malmö.

Pirimqulov, A.E. *Ogahiy masnaviylari*. Toshkent: Fil f.n... dissertatsiya.

Seleman, C. 1894. *Das Asiatische Museum*. St. Peterburg.

Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. 2002. "Fununu-l-balog'a". *O'zbek tili va adabiyoti* 1.

Shodmonov, N. 2009. «*Shohidu-l-iqbol*»ning o'zbek badiiy-tarixiy nasri taraqqiyotidagi o'rni, manbalari va matniy tadqiqi. Fil. f.d... dissertatsiya. Toshkent.

## Muslihabegim Miskin – XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste’dodli zullisonayn shoirasi

Husniddin Eshonqulov<sup>1</sup>

Dilorom Sodiqova<sup>2</sup>

### Abstrakt

Maqolada asrlar davomida shakllangan e’tiqodiy qarashlarimizga tayanib, o’zbek va tojik tillarida o’zining ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy mavzulardagi nazmiy va nasriy asarlarini bitgan iste’dodli sohibdevon shoira Muslihabegim Miskin haqida so’z yuritiladi. XIX asr Buxoro adabiy muhitida bunday zullisonayn shoira uchun noyob adabiy-estetik hodisadir. U islomiy e’tiqod asosida tarbiya topib, badiiy ijodga ham shu ruhda yondashgan. Shoira hayoti va ijodiy faoliyati o’tgan asr adabiyotshunoslari tomonidan deyarli o’rganilmagan. Muslihabegim lirik turning g’azal, mustazod, muxammas, musaddas, mustasne’, muashshar, ruboiy, soqiyнома, fard singari janrlarda ijod etish bilan birga qatorda she’riy va nasriy hikoyalar ham yozgan. Shoira hayoti va ijodining o’rganilishi tarixi haqida muayyan ma’lumotlar berilgan. She’rlarini tahlil qilish asnosida shoira hayoti va ijodiy faoliyatining ayrim qirralari yoritilgan, uning iste’dodli zullisonayn shoira ekanligi she’riyati misolida asoslab berilgan.

**Kalit so’zlar:** *Muslihabegim Miskin, Abdulvohid, XIX asr Buxoro adabiy muhiti, zullisonayn shoira, devon, hasbi hol, lirik janrlar, she’riy va nasriy hikoyat.*

---

<sup>1</sup> Eshonqulov Husniddin Pirimovich – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

**E-pochta:** husniddin.eshonqulov72@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-4805-3879

<sup>2</sup> Sodiqova Dilorom Tursunovna – mustaqil izlanuvchi, Buxoro davlat universiteti.

**E-pochta:** erkdil2004@mail.ru

**Iqtibos uchun:** Eshonqulov, H. P., Sodiqova, D. T. 2021. “Muslihabegim Miskin – XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste’dodli zullisonayn shoirasi”. *Oltin bitiglar* 3: 25–42.

## **Kirish**

Muslihabegim Miskin – islomiy ruhda ijod qilgan iste’dodli zullisonayn shoira. Uning ijodiy merosida gunohlardan forig’ bo’lishga qaratilgan Allohga munajatlar, payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning shafolatlariga noil bo’lish umidida bitilgan nazm namunalari, ilohiy ishq, naqshbandiya pirlariga bo’lgan yuksak e’tibor va mehr bilan sug’orilgan ilohiy-irfoniy mavzular badiiy talqin qilinganligi bois uning hayoti, ijodiy merosi o’tgan asr adabiyotshunosligida deyarli o’rganilmadi. Muslihabegim Miskin devonlari saqlanib qolganligi uchun u haqdagi ayrim ma’lumotlar qomuslarda [ЎСЭ 1976, 282], Sharq qo’lyozmalari kataloglarida [СБР 1987, 219; Каталог фонда института рукописей 1989, 129], shuningdek, ayrim ilmiy tadqiqot ishlari [Қодирова 1977, 168-169] va maqolalarda [Сафаров 1996, 3; Сафаров, Сафарова 1997, 3; (a) 2012, 34-36; (b) 2012, 43-46; Нуриддинов 2010, 80-82] muxtasar berilgan. Ta’kidlash joizki, taniqli adabiyotshunos M.Qodirova o’zining “XIX asr o’zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri” deb nomlangan risolasida birinchilardan bo’lib, shoiraning hayot yo’li va ijodi haqidagi muxtasar, ammo ilmiy ahamiyatga molik mulohazalarni bayon etadi. Olima O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar xazinasida 972/1 inventar raqami ostida saqlanayotgan Muslihabegim Miskin devonida shoiraning yetti ming misradan ortiqroq she’rlari jamlanganligi, shuningdek, unda Husayn va Fotima haqidagi nasrda bitilgan rivoyat va “G’ornoma” asari mavjudligiga e’tiborni qaratadi. Ayni paytda, devondan o’rin olgan hasbi hol ruhida bitilgan masnaviyga tayanib, shoiraning hayotiga oid lavhalarni o’quvchiga taqdim etadi. Muslihabegim Miskinning tavallud va vafot etgan yillari haqida ma’lumot keltirilmagan bo’lsada, M.Qodirova ijodkorning she’rlarini tahlil qilish asnosida uning XIX asrning ikkinchi yarmida hayot bo’lganini ma’lum qiladi. O’tgan asrning yetmishinchi yillarida chop etilgan ushbu risolada shoira haqidagi ushbu jumla bilan boshlanadi: *O’zidan keyin yaxshigina meros qoldirgan, lekin adabiyotshunoslikda asari hali o’rganilmagan shoiralardan biri – Muslihabegim Miskindir* [Қодирова 1977, 168]. Yuqorida nomi qayd etilgan qomusdagi ma’lumotlar ham M.Qodirova risolasidagilarning qisqacha bayoni va unda shoiraning Alisher Navoiy uslubida g’azallar yozganligi ham ta’kidlangan. Qomusdagi ushbu ma’lumotlar professor O.Safarov va dotsent H.Safarova maqolasida e’tirof etilganidek [Сафаров, Сафарова (a) 2012, 43], M.Qodirova tomonidan yozilganiga shubha uyg’otmaydi. Umuman



*Ki mavludi zi farzandi Buxoro,  
Padarro nom shud mullo Nurillo.  
Ki jaddam nomi Abdulloh xoja eshon,  
Zi farzandi Buxoro buvad, ey jon.  
Ki budand doimo jo'yoni Olloh,  
Ki holo raftaand Ka'batulloh [Miskin 1878, 121<sup>b</sup>].*

Mazmuni: *Kaminaning ismi Muslihabegimdir. O'z nomimni (taxallusimni) Miskin deb atadim. Buxoro farzandiman, shu yerda tug'ildim. Mullo Nurillo otamning nomi bo'ldi. Bobomning nomi Abdulloh xoja eshondir. Ey jon, u ham Buxoro farzandi bo'lgan. Doimo Allohni izlovchi bo'lgan, haligacha Ka'batullohga ketgan.*

Keltirilgan iqtibosdan ayonlashadiki, shoiraning ismi – Muslihabegim va u o'z xohishiga ko'ra Miskin taxallusini qo'llagan. Buxoroda tavallud topgan Muslihabegimning otasi mulla Nurillo ismli kishi bo'lgan. Shoira otasining nomiga “mullo” so'zini qo'shib qo'llaganiga e'tibor qilinsa, uning iymon-e'tiqodli oilada tarbiya topganiga ishora qilganligini sezish mumkin. Bobosi sha'niga bitilgan baytlar fikrimizni yanada quvvatlantiradi.

Shoiraning tug'ilib, vafot etgan sanalariga aloqador ma'lumotlar devonlar tarkibida uchramaydi. Muslihabegim Miskinning she'rlaridan namunalar keltirilgan ushbu 972/1 raqamli devonining 143a varag'ida esa: “*Tammom shud in noma 1295*” (“*Bu noma 1295-yilda tugadi*”) tarzidagi ma'lumot keltiriladi. Ushbu hijriy sana milodiyga aylantirilganda, devonning 1878-yili tartib berilganligi ayonlashadi. Shuningdek, yuqoridagi masnaviydan so'ng devondan o'rin olgan quyidagi fard ham shoira yashagan davrini oydinlashtirishga xizmat qiladi:

*Dar zamoni Mir Sayyid Muzaffar Bahodir Sulton,  
In g'azalhora bexono ba jigar kardam bayon*

[Miskin 1878, 121<sup>b</sup>].

Mazmuni: *Mir Sayyid Muzaffar Bahodir zamonida bu g'azallarni o'qib, jigar (yaqin kishim)ga bayon qildim.*

Buxoro amiri Nasrulloxon vafotidan so'ng, uning o'g'li Sayyid Muzaffariddin Karmanadan kelib, 1859-yili Buxoro taxtiga o'tiradi. U 25 yildan ortiqroq davr mobaynida – 1885-yilga qadar turli viloyatlarda hukmdorning farmonlariga bo'ysunmay isyonlar sodir etilayotgan, ayni chog'da ruslarning Turkiston tuprog'iga yurishlari boshlangan g'oyatda tahlikali zamonda Buxoro amirligini idora qildi [Олимий 2004, 50–63]. Shoira bu davrda Turkistonda sodir bo'layotgan vaqealardan yaxshi xabardor, qator nazmiy asarlar muallifi va sohibdevon ijodkor sifatida kamolot yoshida bo'lgan,

deyish mumkin.

Muslihabegim Miskinning 972/1-raqamli devoni “Bismillohir rahmonir rahim” ilohiy kalimasidan so‘ng shayx Abdulvohid haqida masnaviyda bitilgan 42 baytli hikoyat bilan boshlanadi. Shoira asar qahramonini o‘quvchiga quyidagicha tanishtiradi:

*Ki dar shahri Buxoro buvad yak darveshi donoye,  
Ki shayxi nomdor buvad on mahbubi donoye .  
Davomat dar payi jud-u saxo-yu adl ko’shida,  
Libosi ashxiyoro dar badani on shayx po’shida.  
Tamomi muflisi miskin zi xonash bahravar budand,  
Mudom on shayx az tarsi xudo bo chashmi tar budand.  
Ki sultoni Buxoro doimo mekard in’ome,  
Ki budand mardumi shahri Buxoro muxlisi joni.  
Har on kasro pesh oyad agar yak qissayi mushkul,  
Ravad az nazdi o’ro on zamon on muddao hosil.  
Jahon fayzi futuhi o’, ki mashhuri Buxoro shud,  
Banazdi podshoh on shayxro martabayi a’lo (shud).  
Shuda nomi sharifi o’ ba Abdulvohidi mashhur,  
Ki buvad doim ba zikri on xudovandi jahon mag’rur*  
[Miskin 1878, 2<sup>a</sup>].

Mazmuni: Buxoro shahrida bir dono darvesh bo‘lgandi. U dono mahbub (sevikli) nomdor shayx edi. Saxovat-u adolat, in’om-ehson yo‘lida doimo harakat qilib, jismida ashxiyorlar libosini kiygandi. Uning xonadonidan barcha kambag‘al-u miskin bahramand edi. Shayx Xudodan qo‘rqqani bois doimo uning ko‘zida yosh turardi. Buxoro sultoni hamisha unga in’om qilib turar, shahar aholisi jonining muxlisi (doimo sog‘-salomat bo‘lishini xohlovchilar) bo‘lgandi. Biror mushkul qissa har qanday kishining taqdirida sodir bo‘lsa, uning nazdidan (nazaridan) o‘sha zamon qiyinchilik barham topib, muddao hosil bo‘lardi. U jahonning fayz-u futuhi, Buxoroning mashhur kishilaridan biriga aylandi. Podshoh nazdida yuksak martabali shayxlarning biri bo‘lib qoldi. Abdulvohid nomi bilan mashhur bo‘lgan bu kishi doimo Xudoni zikr etish bilan mag‘rur edi.

Hukmdorning yuksak hurmatiga sazovor bo‘lgan, xalqning ishonchini qozongan shayx Abdulvohidning ko‘nglida Ka’batullohni ziyorat qilish istagi tug‘iladi. Xotini va farzandi har qancha iltijo qilishmasin, uning xohishiga mone’lik qilolmaydi. Shayx olti yoshli qalbi qaynoq farzandini hech qachon o‘zidan yiroqlashishini istamasdi. Shu bois uni ham o‘ziga hamroh qiladi. Shunday qilib, otabola besh yil davomida dom-daraksiz ketishadi. Bechora onayizor ularning yo‘lida intizor bo‘lib to‘qqiz yoshli qizi bilan qoladi. Shayx

Abdulvohidning qizi juda ham aqlli, dono “xush xulq-u, shirin suxan-u, zebo-yu porso” bo‘lib ulg‘ayadi. Biroq uning kamolidan bahramand bo‘lib yashash bechora onaga nasib etmaydi. Masnaviyning quyidagi bayti bu mudhish voqeaning obrazli ifodasidir:

*Banogah dar kamoli o‘ zavoli bemahal omad,  
Xazon shud navbahori o‘ chunon bodi ajal omad*  
[Miskin 1878, 2<sup>b</sup>].

Mazmuni: *Uning kamoliga to‘satdan bemahal zavol keldi, ajal shamoli esib, uning navbahori xazon bo‘ldi.*

Qiz bu foniyl dunyoni tark etgandan so‘ng, g‘oyibona kezib yuruvchilardan xabar keladi. Shayx va uning o‘g‘li sog‘-salomat yurtiga qaytib, qarindoshlar bilan ko‘rishishadi. Ona nihoyatda kelishgan, oqil-u dono bo‘lib voyaga yetgan o‘n bir yoshli o‘g‘li bilan diydorlashishga muyassar bo‘ladi. *Husni jamoli go‘yo Yusufi soniy* bo‘lgan o‘g‘il darvesh otasi – pokdamon shayxga juda o‘xshardi. Bu baxt voqe‘ bo‘lganidan quvongan ona Parvardigorga shukronalar qiladi, o‘g‘lini bir lahza ham yonidan uzoqlashtirmaydi. Oradan bir yil o‘tgach, *xazoni bemahal* bechora onaning qalbida so‘nmas dog‘ qoldirib, bu farzandini ham navqiron yoshida olib ketadi. Shayx Abdulvohid bu fojealarga ortiq toqat qilolmaydi:

*Ki on shayxi jahon dar on zamon dar so‘xti dunyo shud,  
Nakarda istiqomat, boz so‘yi Ka‘batulloh shud.  
Beguft: “Bar man harom ast in Buxoro, nest joyi man,  
Dar injo nest istodani digar sabr-u qarori man”.  
Ba xud hamrah burd o‘ yak-du sola farzandash,  
Qazoro dar rasid tiri ajal bar on jigarbandash*  
[Miskin 1878, 3<sup>a</sup>].

Mazmuni: *Shayxi jahon o‘sha onda yongan dunyoga aylandi. Bu yerda ortiq turolmay, yana Ka‘batulloh sari yo‘naldi. “Endi menga Buxoro haromdir, bu yer mening joyimmas. Bu yerda qolishga ortiq sabr-u qarorim qolmadi”, – dedi. Ikki-uch yoshli farzandini o‘ziga hamroh qilib olgan edi, taqdir taqozosi bilan ajal o‘qi bu jigarbandiga ham yetib bordi.*

Shayx Abdulvohid Haqning amriga rizolik bildirib, farzandlarini tuproqqa topshirsa-da, ayriliq dog‘iga chidolmay to‘xtovsiz oh-u fig‘on chekadi. Tasalli topish uchun yana bir ayolga uylanadi. Bir necha yil ko‘zdan g‘oyib bo‘lib, ba‘zan Buxoroda ham ko‘rinib qoladi. Bu hol takrorlanib turadi. Dilbandlarini yo‘qotgan onayizor esa taqdir hukmiga sabr qilib, qolgan umrini toat-ibodatga bag‘ishlaydi.

Mazkur she’riy hikoyat Muslihabegim Miskin hayoti bilan qiziqqan tadqiqotchilarning e’tiborini o’ziga tortgan. M. Qodirova ushbu manzamani debocha deya baholab: “...shoiraning o’z hayotiga oid avtobiografik ma’lumotga ham o’xshab ketadi” [Qodirova 1977, 168], – deb yozadi. Professor O.Safarov va tadqiqotchi H.Safarova esa masnaviydagi “Ki shayxe nomdor bud on mahbubi donoye” satriga asoslanib: “Muslihabegim Miskin Buxoroda el orasida, hatto amirlik darborida ham e’tibor qozongan shayx Abdulvohidning zavjai muhtaramasi bo’lgan” [Сафаров, Сафарова (b) 2012, 43] – deya komil ishonch bilan qayd etadi. She’riy hikoyatda tasvirlangan onayizorning ruhiy holati va shoira devonlaridagi hasbi hol she’rlarning o’zaro uyg’unligi ham ushbu masnaviyda ijodkor achchiq qismatining badiiy ifodasi ekanligiga ishora qiladi. Bunday o’xshashlik, avvalo, she’r qahramoni bekas-u g’aribligining badiiy talqinida namoyon bo’ladi:

*Miskin g’arib-u bekas-u darmonda ast zor,  
Dar ro’zi hashr rahm kun, ey podshohi mo*

[Miskin 1878, 32<sup>a</sup>].

Mazmuni: *G’arib-u bekas Miskin qiyin ahvolda zor qolgan. Ey bizning podshohimiz, hashr kuni (qiyomatda o’lganlarni tiriltirish chog’ida) unga rahm qilgil!*

Shoira devonidagi g’azallarning salmoqli qismini yuqorida keltirilgan baytdan anglashilgani kabi munojot g’azallar tashkil etadi. Shunday mazmundagi g’azallarda Muslihabegim Miskin bot-bot bekas-u g’aribligini eslatadi. Ayni holat ijodkorning o’z-o’zini malomat qilish ruhida bitilgan g’azallarida ham kuzatiladi. Bunday nazm namunalarida Muslihabegim Miskin toat-ibodatda bardavom bo’lolmagani, gunohlari ko’payib ketganini talqin etib, Allohning rahmatidan umidvorligini ham o’ziga xos mungli ohangda, ko’pincha, hazaji musammani solim (ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun) vaznida bitilgan g’azallarida badiiylashtiradi. Shoiraning o’zbek tilida ijod etilgan quyidagi g’azali fikrimizning yorqin dalilidir:

*Xudovando, sani dargohinga man qilmadim toat.  
Nazar qilg’il bu holimga madad aylaki bu soat.  
Gunohim ko’pturur behad, nazar qilg’il bu holimga.  
Umidim bor sani dargohinga qilg’il manga rahmat.  
Ilohi, osiylarg’a san o’zing rahmat ato qilg’il,  
Ilohi, jumla mo’min joyini san aylag’il jannat.  
Agar chandeki osiyman, umidim bor rahmatingdan,  
Umid birla borurman, ey Xudoyo, aylag’il rahmat*



*Iloho, Miskini bechorag'a lutfi karomat qil,  
Bu fonyi dunyoda, parvardigoro, ko'rmadim rohat*  
[Miskin 1878, 43<sup>b</sup>].

Xudoga murojaat qilib, o'zini gunohkor sanash, gunohlari ko'pligidan nolib she'rlar bitish musulmon xalqlari shoirlari ijodida kuzatiladigan adabiy uslubdir. O'zbek mumtoz adabiyotida ilk bor Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida sezilarli darajada namoyon bo'lgan bu uslubiy jilo XIX asrda ham kitobxon tuyg'ulariga ta'sir etadigan muhim yo'llaridan biri sifatida qo'llanildi. Muslihabegim Miskin ham ushbu g'azalida Haqqa tavajjuh qilib, bani bashar uchun o'ziga xos sinov muddati sanalgan bu o'tkinchi umrini toat-ibodatdan ayri o'tkazgani, gunohlari behad ko'payib ketgan bo'lsa-da, Allohning lutf-u marhamatidan umidsiz emasligini badiiy ifodalaydi. Shoiraning yuksak insoniy fazilatlar sohibi ekanligi, avvalo, o'zini gunohkor deb bilishida kuzatilsa, Yaratuvchidan barcha osiy bandalarga rahmat ato etishini iltijo qilib, keyinchalik o'zini ham nafaqat ular qatorida, balki "chandeki osiyman", – deya e'tirof etishi-yu, lutf-u marhamatdan umidvorligini yaqqol namoyon bo'ladi. G'azalning maqta'sida Miskini bechoraning parvardigorga zorlanib, bu fonyi dunyoda rohat ko'rmaganligi evaziga Uning lutfidan benasib bo'lmasligini iltijo qilishi shayx Abdulvohidga bag'ishlangan she'riy hikoyatdagi onayizor obrazini yodga soladi. Kamolini ko'rish niyatida ne-ne mashaqqatlar bilan voyaga yetkazgan dilbandlarining birin-ketin zavolini ko'rish mushtipar ona uchun "bu fonyi dunyoda rohat ko'rmadim", – deyishga to'la asos bo'ladi, albatta.

### **Shoiraning adabiy olami**

Muslihabegim Miskin she'rlarining aksariyati yuqorida ta'kidlanganidek, o'z-o'zini malomat qilish ruhida bitilgani nuqtayi nazaridan masalaga yondashdigan bo'lsak, taqdirida sodir bo'lgan barcha ko'ngilsizliklarning moyasini u chinakam mo'mina sifatida o'zidan izlaydi. Shu bois ijodkor o'z she'rlarida farzandlari dog'ida o'rtanayotganiga ayrim ishoralar bilan cheklanadi, xolos. Quyidagi baytlar esa fikrimizni kuchaytirishi mumkin:

*Ey xudovandi jahon, rahmat bekun bar osiyon,  
Az karam, yo rab, nazar kun in dili vayroni mo.  
Miskini bechoraam dar borgohaat, ey karim,  
Yak nazar kun, ey xudo, bar diydayi giryoni mo*  
[Miskin 1878, 32<sup>b</sup>].

Mazmuni: *Ey jahonga egalik qiluvchi Tangri, osiylarga rahmat*

*qil. Ey xudo, bizning bu vayron ko’ngillarimizga karam (marhamat) nazari bilan boq. Ey Karim, podshohlik saroyingda Miskini bechoraman. Ey Xudo, yig’loqi ko’zlarimizga bir nazar qil!*

Allohga munojot ruhida bitilgan ushbu misralarda shoira o’zini bu olamdagi “dili vayron”lar-u “diydayi giryon”lar safida ko’rishiga va bu bilan o’sha achchiq qismatiga ishora qiladi. Bunday ishoralarda onayizor bevosita o’z dilbandlarini nazarda tutganini shoira boshqa misralarida ham uchratish mumkin:

*So’xtam az furqati o’ nola bar gardun rasid,  
Koshki binam jamoli nozaninashro ba xob*

[Miskin 1878, 36<sup>a</sup>].

Mazmuni: *Uning ayrilig’idan kuydim, oh-u nolam gardunga yetdi. Koshki, nozanin jamolini tushimda ko’rsaydim.*

Muslihabegim she’riyatida payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) vasfida bitilgan g’azallar salmoqli o’rin tutadi. Ularda madh etilgan go’zal xulqlar egasining diydorini ko’rishga ishtiyoq va intilish ruhidagi misralar ko’p uchraydi. Biroq yuqorida keltirilgan baytda diydorlashish bilan birga ayriliq azobidan o’rtanish hissi ustuvorligi ham yaqqol seziladi. Masalaning mana shu jihatiga e’tibor qaratilsa, shoira ushbu baytda farzandlaridan birining judoligini nazarda tutganini ko’rinadi.

Shayx Abdulvohidga bag’ishlangan she’riy manzumadagi quyidagi bayt ham e’tiborga loyiqdir:

*Zaifayi nek buvad doim ba rohi buzurgon megasht,  
Misoli bulbuli sho’rida doim dar fig’on megasht*

[Miskin 1878, 3<sup>a</sup>].

Mazmuni: *Yaxshilik o’ylovchi zaifa doimo buyuklar yo’lida parishon bulbul misoli fig’on qilib kezardi.*

Muslihabegim Miskin “buzurgon” (“buyuklar”) deganda, tariqat peshvolari, ulug’ avliyolarni nazarda tutadi. Shoira nashriy qo’lida qo’yganligi she’rlarida oydinlashadi. “In g’azal az baroyi Boboyi Samosiy” (“Bu g’azal Boboyi Samosiy haqida”) sarlavhali quyidagi g’azal fikrimizning dalilidir:

*Omadam bahri ziyorat in zamon dar oston,  
To shavad oson maro in mushkili bor garon.  
Dardmandam, mustamandam, bahri darmon omadam,  
Yak nazar sozed maro, ey oftobi du jahon.  
Osiyam, bechoraam doram ba dil sharmandagi,  
Zi on ki on holi taboham bar shumo boshad ayon.  
Omadam, ey hazrati Bobo, man az bahri davo,*

*Zi rahi ixlos benihodam sari xud oston.  
Bekas-u sargashta-yu hayron-u muztar mondaam,  
Mekunam har ro'z-u shab man nola-yu oh-u fig'on.  
Miskini bechoraam – aftoda dar girdobi g'am,  
Rahm kun bar holi man, yorab, ba haqqi nazdigon*  
[Miskin XIX asr (a), 12<sup>b</sup>].

Mazmuni: *Toki biz uchun ko'p mushkullar oson kechsin deb, bu zamon ziyorat dengizining ostonasiga keldim. Dardmandman, qayg'uliman, darmon dengiziga keldim. Ey ikki jahon oftobi, bizga bir bora boqing! Mening yomon holim sizga ayondirki, men osiyman, bechoraman, sharmanda bo'lgan ko'ngil xonasiman.*

Muslihabegim Miskin o'zi yashagan davrga qadar musulmon mintaqa xalqlari adabiyotida mavjud bo'lgan an'analarni teran o'rganishga baholi qudrat sa'y-harakat ko'rsatgan ijodkordir. Uning devonlarida o'zbek va tojik tillarida bitilgan g'azal, ruboiy, fard, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod singari she'r nav'larining uchrashi muallifning ijod sirlari bilan oshno bo'lishga qaratilgan jidd-u jahdi samarasidir. Ayni chog'da shoiraning o'ndan ortiq she'riy hikoyatni masnaviyda bitganligi iste'dodining yana bir muhim qirrasini namoyon qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, shoiraning iymon-e'tiqodli oilada tarbiyalanib, Abdulvohiddek xalqqa tanilgan shayx bilan taqdirdosh bo'lgani uning ijodiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Muslihabegim Miskin she'riyatida qalban Allohga bo'lgan ishonch, uning lutf-u marhamati va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) shafobatidan umidvorlik, chinakamiga Haqqa shaydolik, ahli bayt hamda sahobayi kiromlarga cheksiz muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. U mumtoz adabiyotimizning atoqli namoyandalari izidan borib, nazmiy asarlarida ko'hna ishq mavzusini juda keng ma'noda qo'llab, unda o'zining ruhiy iztiroblari, orzu-intilishlarini ham badiiylashtirdi.

G'azal shoira ijodida eng ko'p murojaat etilgan janr sanaladi. Muslihabegim Miskin ularning aksariyatida yuqorida qayd etilganidek, Allohga iltijo qilib, uning lutfi marhamatiga noil bo'lish istagida ekanligini obrazli bayon etadi. Shunday mazmunda bitilgan g'azallardagi orifona ruhning kuchliligi, ayni chog'da bunday g'azallar badiiy ifodasida ijodkor murojaat etgan obraz va timsollarning o'ziga xosligi, ulardan mo'mina ayolga xos nazokat-u iffatning ayonlashib turishi she'rxonga hissiy ta'sir ko'rsatadi. O'z holini bulbuli zorga qiyos qilish bilan boshlanuvchi quyidagi g'azal fikrimizning yorqin dalilidir:

*Chu bulbuli zor menolam ki mesozam ki afg'onho,*

*Iloho, rahm kun bar holi zori chashmi giryonho.  
Nadoram dar du olam, ey xudoyo, g’ayri be tu man,  
Xudovando, tu rahm kun bashavq diydayi giryonho.  
Zi lutfi marhamat, yo rab, tu nazar kun holi zori maro,  
Ba dargohi tu doram man hamisha afg’onho.  
Agar Layli sifat man zor nolam andar in olam,  
Ravam bo diydayi giryon chu Majnun az biyobonho.  
Man Miskin hamisha nogah vohasrato doram,  
Tu rahm kun ba so’yi dil afgor siyna biryonatro*

[Miskin XIX asr (a). 25<sup>b</sup>].

Mazmuni: *Bulbuli zordek nola qilib, fig’onlar etib kuylayman; Iloho, zor yig’loqi ko’zlarning holiga rahm qilg’il. Ey xudoyo, sensiz ikki olamda turolmayman, sen shavqli diydasi yoshlarga rahm qilgin. Yo rab, lutfi marhamating ila holi zorimizga nazar qil; dargohingda hamisha fig’onlar chekib qolaman. Qaniydi, bu olamda Laylisifat nola qilsam; Majnundek biyobonlarda ko’z yoshlarim bilan kezsam. Men Miskin hamisha nogahoniy qayg’u-g’amlar ichraman; Sen dili afgor, siynasi biryonlarga rahm qil!*

Besh baytdan iborat ushbu g’azal qahramonining holiyasi bilan shayx Abdulvohidga bag’ishlangan hikoyatdagi onayizorning ruhiy iztiroblari orasida yaqinlik borligi dastlabki baytdanoq anglashilib turibdi. Ayniqsa, shoiraning hasbi holi deya talqin etilgan o’sha masnaviydagi *Zaifa nek buvad doim ba rohi buzurgon megasht, / Misoli bulbuli sho’rida doim dar fig’on megasht* (mazmuni: Yaxshilik o’ylovchi zaifa doimo buyuklar yo’lida parishon bulbul misoli fig’on qilib kezardi) misralarini xotirga keltirish bilan bunga yanada qat’iy ishonch hosil qilishimiz mumkin. Muslihabegim Miskin devonidagi manzumalarda bulbul shoiraning eng ko’p murojaat etgan badiiy timsollari qatoridan joy olgan. Shoir bu mitti beozor jonivorning to’xtovsiz sayrab turishidan uzoq yillik an’analarga tayangan holda yangicha ma’no izlashga harakat qiladi. E’tiborlisi shundaki, Muslihabegim Miskin bulbulning fig’oniga o’ziga xos orifona ruh bag’ishlaydi. G’azal qahramonining bulbuli zordek nola qilib, fig’onlar chekib tinimsiz kuylashidan muddaosi – zor yig’loqi ko’zlarining holiga Yaratganning shafqat nazari bilan qarashiga erishmoqlikdir. Bulbulning mitti ko’zlarini jovdiratib mehr izlaganidek atrofga nigoh tashlashi bilan she’r qahramonining iztiroblardan ezilganligi ifodasi bo’lgan yig’loqi ko’zlaridan shafqat ilinjida yosh tarqatayotganligi orasida mutanosiblik borligini badiiy ifodalaydi. Keyingi baytda o’sha orifona ruh tadrijiy rivojlantiriladi. Endi she’r qahramoni chinakam haq oshig’i sifatida ko’z oldimizda namoyon bo’ladi. Uning

nazarida bu ikki olam Yaratuvchining o'zi, Uning vasliga vosil bo'lish saodatisiz biror qiymatga ega emas. Shu bois u shavqli ko'z yoshlariga rahm qilishni Xudodan o'tinar ekan, muddaosini ochiq-oydin baralla aytadi: *Nadoram dar du olam, ey Xudoyo, g'ayri be tu man*. Ayni choqda uning ko'zlaridan oqayotgan yoshlar faqat iztirob ifodasi bo'lmay, balki bu hijron azoblari unga qandaydir shavq bag'ishlashini ham "bshavq" sifatlovchisi yordamida o'tinchlari zamirida o'ziga xos yo'sinda badiiy lashtiradi. Shoiraning bunday yo'l tutishi hijriy II asrda yashagan mashhur so'fiy ayol Robiayi Adaviyaning (714 – 801) Allohga o'tli munojotlarini esga soladi. U munojotlaridan birida shunday deb yolvoradi: *Ilohim! Senga jahannam azobidan qo'rqib ibodat qilayotgan bo'lsam, meni jahannam otashiga kuydir. Agar jannatingni orzu qilib ibodat qilayotgan bo'lsam, menga jannatni harom qil. Agar yolg'iz seni sevganim uchun ibodat qilayotgan bo'lsam, meni azaliy jamolingdan mahrum qilma, yo Rabbi!* [Türer, Ösman, 71]. G'azalning uchinchi baytida shoira diydortalab oshiq yolg'iz emasligi, ularning safini tashkil etuvchilar soni ko'pligiga ishora qilib: "Bizning holi zorimizga rahm qil", – deya yolvoradi. Keyingi baytda esa majoziy ishq vositasida ilohiy ishq iztiroblarida o'rtangan sevishganlar obraziga murojaat etiladi. Bulbuldek nolayi zor etishdan qanoat hosil qilolmagan ijodkor Layli singari bu olamda nola chekishni, yoinki Majnundek biyobonlarda ko'zda yosh olib kezish istagida ekanligini badiiy ifoda etadi. Ko'nglidagi o'tli dardlar shu qadar bag'rini kuydira boshlaydiki, u Laylining nolalarini o'zida takrorlanishi bilan kifoyalanolmay, Majnunsifat kezishni ixtiyor qiladi. Biroq shoira o'z taqdirida jununkorlik emas, miskini bechoralik yozilganini badiiy ijodda ham unutilmaydi. G'azal maqta'sida o'z holiga ishora qilib, doimo kutilmagan qayg'ualamlar ichra qolishidan yozg'iradi. Allohdan o'zi singari dili afgor-u, ko'ksi g'amga qovrilganlarga rahm qilishini o'tinadi.

Muslihabegim Miskin o'zbek tilida bitilgan g'azallarida ham ushbu mavzuga murojaat etadi. Yuqorida tahlil etilgan manzuman ayonlashgani kabi uning munojot g'azallaridagi orifona ruhning ustuvorligi shoiraning tafakkur olami ancha kengligi va o'ziga qadar yaratilgan adabiy an'analardan yaxshigina xabardorligidan dalolat beradi. Shu bois ham ijodkor o'zining ilohiy ishq talqin etilgan g'azallarida she'rxonni mushohadaga chorlovchi baytlar bitishga erishadi. Bunday baytlar, avvalo, g'azalning matla'sida kuzatiladi. Shoiraning quyidagi g'azali aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

*Ey shoh, mani vola-yu shaydo qiladursan,*

*Ishqingda kuyub munchaki rasvo qiladursan.  
Majnun kabi man cho'l-u biyobonni kezibon,  
Doim mani jo'yandayi Laylo qiladursan.  
Bir xasta g'aribman, sani derman bu jahonda,  
Jo'yandayi ul qomati zebo qiladursan.*

*Devona bo'lib Majnuni hayron bo'la qoldim,  
Parda ichidan boz tamosho qiladursan.  
Parvonadek sham jamoliga yuribmen,  
Xor qilibon ko'yingda rasvo qiladursan.  
Miskin sani derman bu jahonda, u jahonda,  
Ishqingda mani Majnuni shaydo qiladursan*

[Miskin XIX asr (a). 137<sup>a</sup>].

G'azalning asosiy qahramonlaridan biri bo'lgan ma'shuqani beqiyos husn sohibi sifatida tasvirlash mumtoz shoirlar badiiy yaratmalarida o'ziga xos an'ana tusini olib ulgurgan. Tabiiyki, bunda ijodkorning erkak yoki ayol jinsiga mansubligi ham ahamiyat kasb etadi. Qayd etilgan an'ana ko'proq erkak qalamkashlar ijodida o'ziga xos uslublarda sayqallantirilib, tadrijiy rivojlantirilganiga guvoh bo'lganmiz. Shoiralarimiz ham g'azalning bu qahramoniga ayollarga xos nazokat bilan yondashib, oshiqona-orifona g'azalning go'zal namunalarini yaratishga muyassar bo'lganlar. Zebiniso, Jahon otin Uvaysiy, Nodira singari tab' ahli o'zlarining bu boradagi san'atkorlik mahoratini so'zda namoyon qildilar. Muslihabegim Miskin ham ayol ijodkorlar nazmiy yaratmalarini sinchiklab o'rganib, g'azaliyotida mahjub obrazini o'ziga xos uslubda yaratishga intildi.

Yuqorida ko'chirilgan g'azalning dastlabki bayti "Ey shoh" tarzida mahjubga murojaat bilan boshlanadi. She'rxon baytni o'qishi bilan shoirani bu qadar vola-yu shaydo, ya'ni behad o'ziga maftun qilgan shoh haqida o'y sura boshlaydi. Bu xitob zamirida bani basharga mansub kishi nazarda tutilganmi yoki ijodkor munojot g'azallarida kuzatilgani singari olamning yakka-yu yagona podshohiga bo'lgan ishqini badiiy ifoda etmoqdami? Bu mushohadalar ijodkorning o'sha xitobida ikki ma'noni bir o'zanga san'atkorona mujassamlashtira olganining samarasidir. Haqiqiy she'r ana shunday bahslarga sabab bo'ladi. Ayni paytda, o'sha shohning ishqida kuyib, rasvo bo'lmoqlik zamirida ham shoira zohiriy ma'nodan ko'ra botiniy ma'noga urg'u berayotgani haqiqatga yaqindek tuyuladi. Zero, Layli va Majnun dardli ishqiy sarguzashtlariga ishora etilgan keyingi baytdan ham anglash mumkinki, majoziy va ilohiy ishq bir-birini inkor etmaydi, aksincha, nafsoniy intilish-

lardan xoli bo'lgan xos ishq kishini ilohsevarlik tomon undaydi. Shoira ana shu mantiqdan kelib chiqib, atayin mahbubga "ey shoh" deya murojaat etib, she'rxonning mushohadalariga erk beradi. Keyinchalik esa mohirona qo'llangan ayrim badiiy ishoralar yordamida o'quvchini o'z g'oyalariga ergashtiradi. O'sha shoh ishq shu she'r qahramonini Majnun singari cho'l-u biyobonlarni kezdrib, doimo Laylini istovchi, uni har yerdan talab qiluvchiga aylantirib qo'yadi. Ma'lumki, Layli ishqidan qismatida jununkorlik paydo bo'lgan Qays el nazdida "Majnun" nomini olib, dasht-u sahrolarga yo'l oladi. Odamlar uni tushunib yetmaydilar, rad etadilar. U sahrodagi vahshiy hayvonlar bilan unslashadi. Majnun Laylini iloh jamolini o'zida zuhur etgan mazhar [Комилов 2009, 192-205] sifatida anglagani bois "jo'yandayi Laylo" bo'lib, mahbubasining Majnuniga aylanadi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, g'azal matla'sida ifoda etilgan shoh ishqida kuyib rasvo bo'lmoqlik negizida ham el anglab yetmagan ma'rifat bor. Bu rasvolik – ilohiy ishq iztiroblarida o'rtanishdir. Mana shunday iztiroblarda toblangan qalb Majnun singari iloh jamolini o'zida mujassam etgan mazhar tomon intiladi.

Shoira g'azalning tahlil jarayoniga tortilgan dastlabki baytlarini she'rxon hayajonini junbushga keltirish uchun mubohlag'aviy tasvirlar bilan bezaydi. Ayni paytda, ijodkor qo'llagan talmeh g'azal matla'sidagi fikrni hamda o'quvchida paydo bo'lgan badiiy ehtirosning tadrijiy rivojlanishiga omil bo'ladi. Muslihabegim Miskin – munojot g'azallarida kuzatilgani singari – Majnundagi jununkorlikka havasmand bo'lsa-da, taqdirida bitilgan miskin-u bechoralikni inkor etmaydi. Shu bois g'azalning uchinchi baytidan boshlab qismatidagi siniqlikka e'tiborni qaratadi. Ijodkor g'azaldagi ko'tarinki ruhni bardavom bo'lishini ta'minlash maqsadida mazkur baytda tazod uslubidan foydalana boshlaydi. Unda tasvirlanishicha, majolsiz, xasta, kimsasiz, g'arib holda bo'lgan she'r qahramoni bu jahonda o'sha shoh deya atagan mahbubini deb, uning vasliga vosil bo'lish umidida yashaydi. Bu uning himmati balandligidan dalolat beradi. Garchi oshiqning holati bilan maqsadi u qadar muvofiq bo'lmasa-da, himmatli oshig'ini qadrlagan mahbub uni go'zal qomat jo'yandasi, ya'ni talabgoriga aylantirib qo'yadi. Ayonlashadiki, shoiraning Layli va Majnun ishqiy sarguzashtlariga ishora qilishidan adabiy muddaosi iloh jamolini o'zida zuhur ettiruvchi mazharga e'tiborni qaratish edi. Yo'qsa, o'zi ham o'sha shoh vasliga erishish yo'lida "jo'yandayi ul qomati zebo" bo'lib qolmasdi. Lirik qahramon ana shunday holatga kelib qolgani bois u bilan Majnun

orasidagi tafovut yo'qolib bordi. U g'azalning to'rtinchi baytida tasvirlanganidek, tamoman Majnun singari devona bo'lib, har tarafga taajjubli nigoh tashlaydigan bo'lib qoldi. Ajablanarli jihati shundaki, mahjub uning bu holini ham parda ichidan tomosha qilish bilan kifoyalanadi, xolos. Baytda qo'llangan parda timsoli ham g'azalning yetakchi g'oyasini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Hujjat ul-islom Abu Homid G'azzoliy Xalloqi olamning farishtalari xususida fikr yuritarkan, quyidagi hadisga diqqatni qaratadi: *“Chindan ham Haq taolo nurli, yetmish ming hijob ila yashirindurki, uning jamolini ko'ngil ko'zi bila kashf etsa bo'lur”* [Фаззолий 2005, 74]. Ko'rinadiki, shoir vaqf etgan Mahbubi mutlaq yetmish ming parda ichida yashiringani bois oshig'iga ana shu pardalar vositasida nigoh tashlaydi. Oradan bu pardalar ko'tarilsa, oshiqning parvona holiga tushib qolishi hech gap emas. Shu parda bo'lgani holda ham oshiqning parvonaga aylanib qolgani g'azalning beshinchi baytida o'z ifodasini topgan. Oshiqning hayrat maqomidagi ushbu holati parvonaning sham jamolida yurganini eslatadi. Tabiiyki, parvona sham jamolining haroratidan qiynoqlar iskanjasiga qoladi. Jismi xor bo'lsa-da, ruhan sham bilan vahdat hosil qiladi. Majnunning qismati ham ayni holatni eslatadi. Buni saodat deb bilgan shoir g'azalning maqta'sida bu dunyo-yu u dunyoda men faqat senga yetishnigina orzu qilaman, sen esa meni ishqingda Majnuni shaydo qiladursan, deya yuksak ehtiros bilan ko'nglidagini badiiy ifodalaydi.

### **Xulosa**

Muslihabegim Miskin she'riyatida badiiy ifodasini topgan shoir hasbi holining ayrimlariga murojaat etilgan badiiy talqinidan ayonlashadiki, ijodkor XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro adabiy muhitining o'zbek va tojik tillarida barakali ijod qilgan iste'dodli sohibdevon qalamkashlaridan biri sifatida tanilgan. Iymon-e'tiqodida sobit oilada tarbiyalangan Muslihabegim islom dinining aqoyid-u ahkomlaridan yaxshigina xabardor bo'lgan. O'z davrida Buxoro amiri saroyida va xalq orasida katta hurmatga sazovor bo'lgan shayx Abdulvohid bilan turmush qurib, ikki o'g'il va bir qiz ko'rgan. Biroq farzandlarining bu foni dunyoni birin-ketin tark etishi ona qalbida og'ir jarohat qoldirgan. Shu bois shoir o'ziga “Miskin” taxallusini tanlagan. Naqshbandiya tariqatiga e'tiqod qilgan Muslihabegim Miskin hayoti davomida sabr-u toqat yuksak insoniy fazilat ekanini amalda isbotlagan va ayni yo'nalishda o'zidan go'zal nazmiy asarlarni meros qoldirgan salohiyatli shoiradir.

Muslihabegim Miskin devonidan o'rin olgan g'azallarni



ilmiy o'rganish asosida shunga amin bo'ldikki, shoira o'ziga qadar yaratilgan ko'p asrlik adabiy an'analarni sinchiklab o'rganib, salmoqli adabiy meros qoldirdi. Uning devonidan o'rin olgan o'zbek va tojik tillarida bitilgan g'azallar mavzularining kengligi, obrazli ifoda uslubining o'ziga xosligi bilan diqqatga sazovordir. Shoiraning oshiqona g'azallarida orifona ruh ustuvorlik qiladi. Bunday g'azallarda ijodkor (lirik qahramon) chinakam Haq oshig'i sifatida namoyon bo'lib, himmatining balandligi bilan o'quvchi qalbidan munosib o'rin oladi. Shoira Layli, Majnun, Yusuf, Zulayxo, bulbul, parvona, sham singari badiiy timsollardan mahorat bilan foydalanib, o'zining tasavvufona g'oyalarini g'azal ixlosmandlariga badiiy jihatdan barkamol misralarda yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Uning mulamma' yo'lida bitilgan g'azallari esa o'z davrining iste'dodli zullisonayn shoirasi bo'lganidan darak beradi.

### **Adabiyotlar**

- Каталог фонда института рукописей.* Том I. 1989. Ташкент: Фан.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф.* Тошкент: Movarounnahr-O'zbekiston.
- Miskin, Muslihabegim. 1878. *Devon.* Qo'lyozma: O`zR FASHI, № 972/1.
- Miskin, Muslihabegim. XIX asr (a). *Devon.* Qo'lyozma: O`zR FASHI, № 1962/1. 1277.
- Miskin, Muslihabegim. XIX asr (b). *Devon.* Qo'lyozma: O`zR FASHI, № 1277.
- Нуриддинов, Ш. 2010. "Икки Мискин". *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 80-82.
- Олимий, Саййид Мансур. 2004. *Бухоро – Туркистон бешиги.* Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Тўраев. Бухоро.
- Қодирова, М. 1977. *XIX аср ўзбек шоиралари ижодида инсон ва халқ тақдири.* Тошкент: Фан.
- Сафаров, О. 1996. "Шоира Мискинни биласизми?" *Бухоро ҳақиқати,* 27 январь.
- Сафаров, О., Сафарова Ҳ. 1997. "Муслиҳабегим Мискин". *Қалб кўзи* 2 апрель.
- Сафаров, О., Сафарова Ҳ. (а). 2012. "Муслиҳабегим ҳаёти ва ижоди". *Нақшбандия* 9: 34-36.
- Сафаров, О., Сафарова Ҳ. (б). 2012. "Муслиҳабегим Мискин ҳаёти ва ижоди ҳақида". *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 43-46.
- СВР – *Собрание восточных рукописей академии наук Узбекской ССР.* Том XI. 1987. Ташкент: Фан.
- Türer, Ösman. Senasız. *Ana Hatlarıyla Tasavvuf tarihi.* İstanbul: Seha.
- ЎСЭ – *Ўзбек Совет энциклопедияси.* 7-том. 1976. Тошкент.
- Ғаззолий, Абу Ҳомид. 2005. *Кимиёи саодат. Рух ҳақиқати.* Тошкент: Адолат.

## Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIX<sup>th</sup> century in Bukhara

Husniddin Eshankulov<sup>1</sup>  
Dilorom Sadikova<sup>2</sup>

### Abstract

In this article, relying on our religious views formed over the centuries, the talented author wrote about her poetic and prose works on theological-mystical, social-political, spiritual-educational, moral-educational topics in Uzbek and Tajik languages. The article discusses the works of the poetess Muslihabegim Miskin. Having such a brilliant poet in the literary environment of Bukhara in the XIXth century is a unique and literary aesthetic phenomenon. The life and work of the poetess were hardly studied by literary critics of the last century, as she was brought up on the basis of Islamic faith and engaged in art in this spirit. Muslihabegim wrote in lyrical genres such as ghazal, mustazad, muhammas, musaddas, mustasne, muashshar, rubai, saqiynoma, fard, as well as poetry and prose. The poetess's three indistinguishable divans have reached us, and a comparative study reveals Muslihabegim Miskin's poetic legacy of more than ten thousand verses. The article focuses on the history of the study of the poetess's life and work, analyzes her poems, highlights some aspects of her life and work, and identifies her as a talented poetess.

**Key words:** *Muslihabegim Miskin, Abdulvahid, literary environment during the 19th century in Bukhara, bilingual poet, divan, autobiography, lyrical genres, poetic and prose story.*

### References

- Katalog fonda instituta rukopisey.* Tom I. 1989. Tashkent: Fan.  
Komilov, N. 2009. *Tasavvuf.* Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston.  
Miskin, Muslihabegim. 1878. *Devon.* Qo'lyozma: O'ZR FASHI, № 972/1.

---

<sup>1</sup> *Husniddin P. Eshankulov* – Doctor of Philology (DSc), Associate Professor, Bukhara State University.

**E-mail:** husniddin.eshonqulov72@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-4805-3879

<sup>2</sup> *Dilorom T. Sadikova* – the independent Researcher of Bukhara State University.

**E-pochta:** erkdil2004@mail.ru

**For citation:** Eshankulov, H. P., Sadikova, D. T. 2021. "Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIX<sup>th</sup> century in Bukhara". *Golden scripts* 3: 25–42.

- Miskin, Muslihabegim. XIX asr (a). *Devon*. Qo'lyozma: O`zR FASHI, № 1962/1. 1277.
- Miskin, Muslihabegim. XIX asr (b). *Devon*. Qo'lyozma: O`zR FASHI, № 1277.
- Nuriddinov, Sh. 2010. "Ikki Miskin". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 80-82.
- Olimiy, Sayyid Mansur. 2004. *Buxoro – Turkiston beshigi*. Fors tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar muallifi H.To'raev. Buxoro.
- Qodirova, M. 1977. *XIX asr o'zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri*. Toshkent: Fan.
- Safarov, O. 1996. "Shoira Miskinni bilasizmi?" *Buxoro haqiqati*, 27 yanvar.
- Safarov, O., Safarova H. 1997. "Muslihabegim Miskin". *Qalb ko'zi* 2 aprel.
- Safarov, O., Safarova H (a). 2012. "Muslihabegim hayoti va ijodi". *Naqshbandiya* 9: 34-36.
- Safarov, O., Safarova H. (b). 2012. "Muslihabegim Miskin hayoti va ijodi haqida". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 43-46.
- SVR – *Sobranie vostochnyx rukopisey akademii nauk Uzbekskoy SSR*. Tom XI. 1987. Tashkent: Fan.
- Türer,Ösman. Senasız. *Ana Hatlariyla Tasavvuf tarihi*. İstanbul: Seha.
- O'SE – *O'zbek Sovet ensiklopediyasi*. 7-tom. 1976. Toshkent.
- G'azzoliy, Abu Homid. 2005. *Kimiyoi saodat. Ruh haqiqati*. Toshkent: Adolat.

## “Yusuf va Zulayxo” dostonlaridagi obrazlar tizimi

Dilnoza Jumayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqola “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar obrazlar tizimining tahliliga bag‘ishlangan. Dunyo matnshunosligida ilohiy-ma‘rifiy manbalar asosidagi sayyor syujetlar, jumladan, “ahsan-ul-qisas” deb ta‘riflangan “Yusuf va Zulayxo” qissasi muayyan darajada o‘rganildi. Lekin har bir davr tadqiqotchilar oldiga yangi ilmiy muammolarni qo‘yadi. Ularga to‘g‘ri ilmiy-nazariy yechim topish uchun masalaning ildiziga – birlamchi manbalar tahliliga, o‘rganilayotgan adabiy materialning genezisi hamda matn yuzaga kelishining barcha jarayonlari tadqiqiga e‘tibor qaratish alohida ahamiyatga ega. “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlarni ana shu aspektida o‘rganish matnshunoslik ilmi oldida turgan muhim vazifalardandir. Maqolada Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostoni (Ogahiy tarjimasini), Durbek, Mirzo Olim Devona va Xolis qalamiga mansub yusufnoma turkumidagi dostonlar hamda Nurmuhammad Andalibning ushbu mavzudagi qissalaridagi obrazlar turkumi o‘zaro qiyoslanib tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** *sayyor syujet, qissa, “Yusuf va Zulayxo”, doston, obraz.*

### Kirish

Jahon matnshunosligida qo‘lyozma manbalar, matn tarixi va talqini, matn poetikasi singari masalalar dolzarb muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Asliyat matnlarini o‘rganmasdan turib, badiiy adabiyot materialining adabiy-estetik va ilmiy qimmatini haqqoniy baholab bo‘lmasligi qo‘lyozma manbalarni, matn tarixi va talqini masalalarini tadqiq qilish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

“Matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, fal-

---

<sup>1</sup> *Jumayeva Dilnoza Tursunpo‘latovna* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti.

**E-mail:** jumayevadilnoza00@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-8492-0853

**Iqtibos uchun:** Jumayeva, D.T. 2021. “Yusuf va Zulayxo” dostonlaridagi obrazlar tizimi”. *Oltin bitiglar* 3: 43–66.

safa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgan" [Xalq so'zi, 2017-yil 25-may] bugungi kunda "Yusuf va Zulayxo" qissasi genezisini, qo'lyozma va toshbosma manbalarini, qissa syujeti asosida turli shoir-u adiblar tomonidan yaratilgan dostonlarning qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish, badiiy qimmatini aniqlash masalalari har qachongidan ham dolzarbdir.

### **Adabiyotlar tahlili**

O'zbek adabiyotshunosligida Hamidulla Karomatovning doktorlik dissertatsiyasida yusufnomalarning adabiy-estetik asosi Qur'oni karimga bog'langan [Karomatov 1993] deyiladi. Q.Tohirovning turkman shoiri Andalib va o'zbek adabiyoti lirikasi va "Yusuf va Zulayxo" dostoni" [Tohirov 1964, 174], Hilola Safarovaning Rabg'uziy "Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari manbalari va g'oyaviy-badiiy tadqiqiga [Safarova 2001], tojik olimi B.Shernazarovning Nozim Hirotiy va Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonlari qiyosiy tahlili [Shernazarov 2003] ga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalarida ushbu turkumga kiruvchi alohida dostonlar tadqiq etilgani xarakterlidir. Abdurahmon Jomiy "Yusuf va Zulayxo" dostonining Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha tarjimasi N.Komilov [Komilov 1968] va N. Jabborov [Jabborov 1997] tomonidan o'rganilgan. Ushbu manba professor N.Jabborov tomonidan 2018-yili qo'lyozma manbalar asosida to'liq nashr etildi [Jomiy 2018]. Yusufnomalarga doir eng so'nggi tadqiqot adabiyotshunos Ismat Sanayevning shu mavzudagi nomzodlik dissertatsiyasi asosida nashr etilgan "XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti" monografiyasidir. Ushbu monografiyada Mirzo Olim Devonaning "qissalarning eng go'zali" badiiy talqiniga doir "Ravzai asror" asari tadqiq qilingan [Sanayev 2009].

### **"Yusuf va Zulayxo" dostonlarining obrazlar tizimi**

Yusuf va Zulayxo haqidagi qissa va dostonlarda ijodkorlarning badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi yetakchi obrazlardan tashqari ko'plab qisqa epizodlarda namoyon bo'luvchi timsollar ham borligini ko'rish mumkin. O'z o'rnida ular muayyan g'oya va maqsadni ravshan ifodalashga hissa qo'shadi. Shu jihatdan, ularni ikki guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Birinchisi, dostonlardagi yetakchi obrazlar: Ya’qub, Yusuf va Zulayxo. Ikkinchi guruhga mansub qahramonlarga esa Yusufning og’a-inilari, Jabroil, Doya, Misr Azizi, Moliki Rayyon, Moliki Tojir va boshqalar kiradi.

Asarda ilgari surilayotgan muayyan g’oyani ochishda ijodkorlar an’anaviy obrazlardan tashqari yangi obrazlar ham kiritadilar. Shu bois har bir dostonda obrazlar ko’lami turlicha. Quyidagi jadvalda “Yusuf va Zulayxo” dostonlari obrazlarining tasnifini keltirib o’tamiz:

Asarlar Tasnif	Durbek “Yusuf va Zulayxo”	Abdurahmon Jomiy “Yusuf va Zulayxo” (Ogahiy tarjimasi)	Olim Devona “Ravzai asror”	Andalib “Yusuf- Zulayxoyi turkiy”	Xolis “Yusuf va Zulayxo”
<b>Obrazlar soni</b>	35	17	22	34	35
<b>Obrazlar ismlari</b>	Ya’qub Yusuf Ibn Yamin Yahudo Sham’un Bo’ri Moliki Tojir Muabbir Yusuf onasi Habash qul Jabroil a.s Azroil a.s Tarso hokimi Qariya Taymus shoh Zulayxo Misr Azizi Rayyon Uy qizlari Zulayxo onasi	Odam a.s Ya’qub Yusuf Yusuf ammasi Yusuf og’alari Zulayxo Shoh Taymus Kanizaklar Doya Azizi Misr Jabroil a.s Molik Misr shohi Tifl (chaqaloq) Misr ayollari Shoh Rayyon muqarrablari	Ya’qub Yusuf Yusuf og’alari Ya’qubning singli Jabroil a.s Zulayxo Zulayxo kanizlari Doya Taymus shoh Misr Azizi Moliki Rayyon (shoh) Ravbil Sham’un Molik Molikning quli Qariya Chaqaloq	Ya’qub Yusuf Ibn Yamin Rohila Yahudo Sham’un Rovil Sham’un onasi Daraxt Yusuf opasi Qush Tog’ Jabroil a.s Zohid Maloiklar Misrlik bo’ri Molik Ta’birchi Zulayxo Taymus shoh	Ya’qub Yusuf Ibn Yamin Norjon Yahudo Sham’un Ravbil Sham’unning onasi Yog’och (daraxt) Bo’ri Qush Yer Farishtalar Jabroil a.s Azroil a.s Bobo Molik Za’r Ta’birchi Shoh Taymus

<b>Obrazlar ismlari</b>	Enaga		Misr ayollari	Munajjimlar	Enoga (doya)
	Beklar		Obdor	Moliki	Xazinador
	ayollari		Sufrakash	Rayyon	Rayyon
	Tifl		Kohinlar	Doya	Zulayxo
	(chaqaloq)		Bo'ri	Xazinabon	Tifl
	Zindon			Savdogar	(chaqaloq)
	soqchisi			Tuya	Kampir
	Arab			Chaqaloq	Qul
	Tuya			Misr ayol-	Teva
	Soqi			lari	Kan'onlik
	Habboz			Kan'onlik	savdogar
	Yaman shohi			savdogar	Aziz
	Rayyon			Xonsa	Qizlar
	Muabbirlar			Safo	Kosador
	Mishom			Yasavul	Novvoy
Farohim			Jom	Misr ayollari	
Rahima			Bishr	Zindon	
Doh			Bishrning	soqchisi	
Bashir			onasi		

Dostonlarda Ya'qub payg'ambar obrazi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Deyarli barcha voqea-hodisalar aynan shu obraz bilan bog'liq holda kechadi. Jumladan, aka-ukalar o'rtasidagi ziddiyatlar, farzandlarning ko'rgan-kechirganlari, umuman, asarning tuguni va yechimi shu obraz – Ya'qub bilan uzviy bog'liqlikda tasvirlanadi. Shuningdek, ota va farzand, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlar, ular bilan ro'y beradigan barcha sarguzashtlar negizi ham Ya'qub alayhissalomga borib taqaladi.

Yusufnomalarda Ya'qub obrazini yaratish bilan bog'liq ikki jihat ko'zga tashlanadi. Ya'ni ularda Ya'qub ham ijobiy, ham salbiy qiyofada gavdalanadi. Biroq qissalarda mazkur timsolning salbiy jihatlariga emas, balki ijobiy xislatlariga ko'proq urg'u berilgan. Shu bois, avvalo, uning ijobiy tomonlarini ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

Qissa va dostonlarning hammasida Ya'qub birinchi navbatda payg'ambar sifatida, ya'ni insoniyatni haq yo'lga, hidoyatga boshlovchi, ilohiy sifatlarni o'zida mujassam etgan siymo sifatida tasvirlanadi. U axloqiy-ma'naviy barkamol, kamtarlik va mehnatsevarlikni o'ziga odat qilgan shaxs, farzandlarini ham shunga o'rgatgan ota qiyofasida namoyon bo'ladi. Durbek chizgilariga diqqat qiling:

*Bor edi Kan'on ulusida mudom,*

*Hazrati Ya’qub alayhissalom.  
Xalq uza payg’ambari barhaq edi,  
Din yo’lida hokimi mutlaq edi.  
Keltirur erdi anga vahiy dalil,  
Tengri taolo qoshidin Jabroil.  
Tengrining amrin so’rar erdi mudom,  
Jumlai ummatlarig’a subhu shom.  
O’zi risolatda bo’lub erdi pir,  
Bor edi o’g’lonlari bas dilpazir [Durbek 1959, 23].*

Mirzo Olim Devonada:  
*Tengrig’a Ya’qub chu topqoch qabul,  
Din elig’a keldi muborak rasul.  
Bo’ldi Isroil ahlig’a nomvar,  
Xalqning iymonig’a bo’lub rohbar...  
Aylar edi da’vati dini Xalil,  
Elg’a bo’lub Haq sori ravshan dalil.  
Sayoi oning Tengrig’a mashkur edi,  
Din kibi dunyo anga ma’mur edi*

[Olim Devona, №1338,16<sup>a</sup>].

Ya’qub siymosining dostonlardagi bu xususiyati asl manbalar, ya’ni ilohiy-muqaddas kitoblardan ko’chganini payqash qiyin emas. Mazkur manbalarga e’tibor qaratilsa, Ya’qubdagi aynan mana shu xususiyatlar birlamchi o’rinni egallaydi. Masalan, Qur’ondagi birgina epizod, aniqrog’i aka-ukalarning Yusufni sahrodagi bir quduqqa tashlab qaytganlaridagi voqeani kuzataylik:

Ya’qub farzandlari Yusufni choh qa’riga tashlab, otalari huzuriga yolg’ondan faryod ko’tarib kirib kelishdi. Ular: “Ey ota, bizlar Yusufni narsalarimiz oldida qoldirib quvlashib ketgan edik, uni bo’ri yeb ketibdi. Endi rost gapirsak ham sen bizlarga aslo ishonmaysan”, deb xabar berishadi. Ya’qub ularning bu hiylalarini sezadi va shunday deb javob qildi: “Yo’q! Sizlarga havoyi-nafslaring biron (yomon) ishni chiroyli qilib ko’rsatgan. Endi (mening ishim) chiroyli sabr qilmoqdir. Sizlar so’zlayotgan bu narsa (ayriliq-musibat) ustida madad so’raladigan zot yolg’iz Allohdir” [Qur’oni Karim, Yusuf surasi, 1992].

Mazkur epizoddagi Ya’qub alayhissalomning o’g’illariga bergan javobi orqali uning qiyofasini aniq va ravshan ko’rish mumkin. U o’g’illaridan ota uchun eng og’ir musibat – suyukli farzandidan ayrilgani haqidagi xabarni eshitganda ham ortiqcha jazavaga tushmay, bosiqlik bilan javob qaytaradi. Ya’qub



payg'ambarning bu javobini ikki ma'noda talqin qilish mumkin: birinchisida – kishilarni nafs balosiga berilmaslikka, undan saqlanishga undovchi pand-nasihati kuzatiladi; ikkinchisida – insonning boshiga tushajak har qanday balo-qazodan yolg'iz Allohgina qutqarishi, shuningdek, eng og'ir damlarda ham kishi o'zini tutishi va qiyinchiliklarni sabr-matnat bilan yengishiga chorlovchi ilohiy-axloqiy masalaga urg'u beriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bular Ya'qub obrazining ijobiy xususiyatlariga misoldir. Xo'sh, uning salbiy qiyofasi qay o'rinlarda namoyon bo'ladi? Qissa voqealari kuzatilganda, aka-ukalar o'rtasidagi keskin munosabatlar, ulardagi o'zaro adovatning zo'rayishiga Ya'qub alayhissalomning ham ta'siri bor. U onalari boshqa-boshqa bo'lgan o'n ikki farzandning otasi. Ya'qub uchun farzandlarining hech biri o'gay emas. Biroq bu farzadlarning barchasi uning uchun birdek sevimli edimi? Yo'q, albatta. Ya'qub o'g'illari ichidan Yusufga bo'lakcha mehr qo'ygan. Bor muhabbatini faqat ungagina berar, tun-u kun yonidan ayirmas, qanday iltifot bo'lsa, shu o'g'liga ravo ko'rar edi. Tabiiyki, qolgan o'g'illar bundan g'azabga keladi. Ular Yusufdan, avvaliga otalarini qizg'ana boshlaydilar. Bora-bora bu qizg'anish akalarda unga nisbatan nafrat, adovatning yuzaga kelishiga omil bo'ldi. Shu bois ular Yusufga dushman nigohi bilan qaraydilar, hatto uni yo'q qilish darajasiga yetadilar.

Bu xususda H. Safarova o'rinli fikr bildiradi: "Bunday keskin va ziddiyatli manzaralar tasviri orqali adib quyidagi axloqiy-ma'naviy saboqlarni ilgari suradi: ota-onalar o'z farzandlarini bir-biridan kamsitmagan holda birday sevmoslari kerak. Farzandlar bir xil munosabatni sezgandagina bir-biriga mehr-u oqibatli, bir-birini hurmat qiladigan va suyardigan bo'lishadi. Shundagina otalar va bolalar muammosi ham, farzandlar o'rtasidagi hamjihatlik masalalari ham adolatli hal qilinadi" [Safarova 2001].

Bundan tashqari, dostonlardagi yana bir voqeada Ya'qubning noo'rin amallari ko'zga tashlanadi. Xususan, Durbek asarida bir enaga obrazi keltiriladi. Uning Bashir ismli emizakli o'g'li bor edi. Ya'qub payg'ambar bu ayolni faqat o'g'li Yusufni emizishga buyurib, uning chaqalog'ini zo'rlik bilan sotib yuboradi. Muallif Bashir haqidagi voqeani asar so'ngida keltirib, Ya'qub va Yusuf boshiga tushgan barcha musibatlarining sababi ham mana shunda edi, deb ko'rsatadi. Bu tasvir asar so'ngida, aniqrog'i, Yusuf Misrda og'alarining gunohidan o'tib, ularni otasini keltirish uchun Kan'onga yuborayotgan vaqtda Jabroil tilidan bayon qilinadi:

*Pirahanin Yusuf o’shal dam magar,  
Otosiga yuborur uchun badar.  
Qildi esa, keldi onga Jabrail,  
Dedi erur amr zi rabbi jalil.  
Pirahaning ber bu Bashir ilgina,  
Ojiz-u afgor-u asir ilgina.  
Senga-u otongg’a ul erur sabab,  
Chektingiz esa alami ro’zu shab.*

Ya’qubning bu qilmishi aks etgan lavha turli variantlar bilan boshqa ijodkorlar asarlaridan ham o’rin olgan. Masalan, Rabg’uziy buni quyidagicha tasvirlaydi: Kunlarning birida Bashir bilan Yusuf har galgidek o’ynagani chiqishadi. Nimadir bo’lib, ikkovlari tortishib qolishadi va Bashir Yusufning yuziga tarsaki tushiradi. Ya’qub buni ko’rib qoladi va g’azabdan Bashirni onasidan shafqatsizlarcha tortib olib, sotib yuboradi.

Andalibda esa hech qanday sabab ko’rsatilmaydi. Unda bir kuni Bashir Ya’qubning dilini og’ritadi va shu tufayli u Bashirni sotib yuboradi, deyiladi.

Ijodkorlar tomonidan Ya’qub alayhissalomning nojo’ya qilmishlari aks etgan lavhalarga o’rin berilishi bejiz emas, albatta. Ular bu orqali inson kim bo’lishidan qat’i nazar, hatto, u payg’ambar bo’lsa ham, amaliga muvofiq mukofot yoki jazo olishi muqarrarligini ifodalagan. Ya’qub alayhissalom ham, avvalo, farzandlarini bir ko’zda ko’rmagani, ularni ayro sevgani uchun, shuningdek, bir ojjizaga zulm qilgani bois boshiga ko’p musibatlar yog’ildi. Inson bajarayotgan har bir amalining hisob-kitobi bor, hech bir ish Allohning nazaridan chetda qolmaydi. Dostonlarda aks etgan ushbu voqealar zamirida ham mana shu haqiqat mujassam.

Qissa-dostonlardagi markaziy qahramonlar – Yusuf va Zulayxodir. Ijodkorlar asosiy g’oya va maqsadlarni ana shu obrazlar orqali ifodalagan. Avvalo, Yusuf obraziga to’xtalish o’rinlidir. Ta’kidlash joizki, barcha dostonlarda Yusuf uch xil qiyofada gavdalanadi. Birinchi navbatda, u go’zallik va ezgulikning yorqin timsoli sifatida aks ettiriladi. Ikkinchi o’rinda, uni solih farzand sifatida ko’rish mumkin. Uchinchi bosqichda esa Yusuf adolatli, xalqparvar shoh siymosida namoyon bo’ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, shoirlar asar boshidanoq Yusuf ta’rifiga to’xtalganda, uning go’zallikda tengsiz ekanini alohida madh etadilar.

Ogahiy tarjimasida bu tasvirlar yanada yorqin ifodalangan.

Unda aytilishicha, Yusuf shunchalik go'zalki, uning jamoliga, hatto, borliqdagi bor mavjudot-u maxluqot havas qiladi, unga yaqinlashishdan quvonadi, undan uzoqlashsa, g'amgin bo'ladi. Yusufning harakatlari nihoyatda latif tasvirlangan:

*Nazar aylab hamul majmu'g'a Odam,  
Tamosho qildi bir-bir barchasin ham.  
Ango Yusuf ko'rundi o'ylakim moh,  
Demay moh, mehri avji izzat-u joh.  
Quyoshdek borchadin husn ichra mumtoz,  
Hamul jam' ichra jam'oso sarafroz.  
Qoshida o'zgalar husni bo'lub gum,  
Oningdekkim, quyosh ollida anjum.*

Dostonda Yusuf payg'ambarzodalar ichida eng go'zali va eng xushfe'l sifatida tilga olinadi. Shoirlar Yusufning ichki va tashqi go'zalligini uyg'unlashtirib, uning go'zal chehrasiga monand odob-axloq va aql-zakovat sohibi ekanini ham e'tirof qiladilar. Qissalarda Yusuf "sabr-qanoatning ulug'vor fidoyisi" [Turkiy Yusuf-Zulayxo, 1995, 3], iymon-e'tiqodli, Allohning nazari tushgan yuksak ma'naviyatli, komil inson sifatida gavdalanadi. U boshiga qancha musibatlar kelsa ham katta matonat, bardosh bilan ularni yengib o'tadi. Yoshligidanoq Yusuf ko'p azob-uqubatlarga giriftor bo'ladi. Akalari Yusufga hasad qilib, otasidan ayirganda ham, ming bir sitam ko'rguzib, chohga tashlaganlarida ham u boshiga kelgan bu ko'rgulikdan nolimaydi. Xudoga bo'lgan ishonchi va e'tiqodi sabab bu sinovlarga dosh beradi. Sabr va shukrni o'ziga yor qiladi. Yusufning chohga tashlangandagi kechinmalarini Andalib uning tilidan shunday tasvirleydi:

*Shukr etoyin Xudoyimning ishina,  
Qorong'u choh bugun munavvar bo'ldi.  
Inonmadim otam ko'rgan tushina,  
Manga o'zga jafu muassar bo'ldi.  
Ginam yo'qtur hech kishidan bu darda,  
Eshitmasin nolamni hech kim bu yerda...  
Sabr aylayin Haq aylayur aroda,  
So'lg'on gullar ochilibon tar bo'ldi.  
Sabr aylagil yamon kunni yod etma,  
Haqdin o'zgalarga inobat etma [Andalib, 16].*

Yusuf Misrga qul bo'lib kelgandan keyin ham boshidagi qora

bulutlar tarqamaydi. U yerda Misr Azizining xotini Zulayxo sabab bir necha yil zindon azobini ko‘radi. Biroq Xudo har doim Yusuf bilan birga edi. U qanoatliliigi va sofdilligi, mehnatsevarligi, tadbirkorligi hamda aql-idroki bilan har yerda hurmat topar edi. Zindonda yotgan payti ham u boshqa bandilarga qo‘lidan kelgancha yaxshilik qilishga intilar, ularga yordam qo‘lini uzatar edi. Kamtarin va halolligi bois zindon boshlig‘ining ko‘ngliga yo‘l topa oladi. Tez orada Yusufning ilm-u hikmat sohibi va dono tadbirkorligi haqidagi xabar butun Misrga yoyiladi. Misr shohi Rayyon ham uning ko‘magiga ehtiyoj sezib, Yusufni zindondan ozod qiladi va ulug‘ maqomga ko‘taradi.

Ma‘lumki, Yusuf haqidagi qissalarning aksariyatida ota-o‘g‘il munosabatlariga keng o‘rin berilgan. Ya‘qub farzandlari ichida otasiga eng suyuklisi Yusuf edi. O‘z o‘rnida, u ham otasining hurmatini joyiga qo‘yadigan, uning quvonchi-yu dardiga sherik bo‘ladigan, hammadan ko‘proq tushunadigan va izzat-ikrom ko‘rsatadigan solih farzanddir. Durbek buni quyidagicha ifodalaydi:

*Ul edi Ya‘qub nabining so‘zi,  
Ul edi og‘zindagi so‘zlar so‘zi...  
Bir nafas ayrilmas edi ul mudom,  
O‘z otosi xidmatidin subhu shom [Durbek, 24].*

Ya‘qub va Yusuf o‘rtasidagi bu samimiy munosabat, mehr-oqibatdan boshqa farzandlarning rashki keladi. Oqibat ular Yusufdan qutulish chorasini izlay boshlaydilar. Og‘alar Yusufni kimsasiz sahroga olib chiqib, ko‘p jabr va zulm bilan qorong‘i chohga tashlashga qasd qiladilar. Shunda ham Yusuf o‘zidan ko‘ra ko‘proq otasiga qayg‘uradi. Birodarlarining bu qilmishidan ko‘proq otasi aziyat chekishini o‘ylab iztirob chekadi. Fikr-u xayoli faqat otasida bo‘ladi. Og‘alariga ham buni tushuntirishga harakat qilib yolvoradi. Biroq hasaddan ko‘zlari ko‘r bo‘lgan akalar Yusufning nolishiga qarab o‘tirmay, uni chohga tashlaydilar. Ushbu epizoddagi Yusuf holati ham Andalib qissasida o‘zgacha talqin etilgan:

*Ko‘zum nuri ulug‘ og‘am bularg‘a mubtalo qilma,  
Solib otamg‘a yuz ming g‘am ani baxtin qaro qilma.  
Maning holimg‘a rahm etgil, otam faryodig‘a yetgil,  
Gunohim bo‘lsa afu etgil, manga mundog‘ jafo qilma...  
Yusuf bechoradur hayron, otamni aylama giryon,  
Og‘ojon boshinga qurbon mani mundog‘ gado qilma  
[Andalib,15].*

Yusuf otasini shu qadar e‘zozlaydiki, bajaradigan har bir

ishida doim uning nasihati va o'gitlariga amal qiladi. Zulayxo Yusufni o'ziga rom qilish maqsadida turli hiyla-nayranglar ko'rsatadi. U doyaning maslahati bilan bir qasr qurdiradi. Qasr devorlariga har xil shahvoniy suratlar chizdirib, Yusufni o'z domiga ilintirishni maqsad qiladi. U Zulayxo bilan saroyga qadam qo'ygan vaqtda Yusufga shayton vasvasa qiladi, uning ruhiyatida nafs ustun kela boshlaydi. Shu onda ko'ziga otasi Ya'qub ko'rinadi va Yusufni gunohdan saqlanishga da'vat qiladi. Otasining bir og'iz so'zi bilan u nopok yo'ldan qaytadi. Durbek bu holatni quyidagicha tasvirlaydi:

*O'rtada iblis bo'lib ishvagar,  
Dedi qotilgay bila shahdu shakar.  
Shahvat o'ti o'rtadi ul narm-narm,  
Yoqti-yu Yusufni basi qildi garm...  
Nogoh o'shal holda boqti kamin,  
Ko'rd-u chu Ya'qub nabi suratin.  
Dediki: – Yusuf halo qilma gunoh,  
Yusuf o'shal lahza topib intiboh [Durbek, 68].*

Xolisda ham ushbu lavha berilgan:

*Zulayxo aydi: suvratga qarog'il,  
Qadam mardona ur oldimg'a kelgil.  
Yusuf aydi: payambarzodadurman,  
Bu ishlardan biling ozodadurman.  
Otom manga vasiyatlar qilibdur,  
O'shal pandi qulog'imda turubdur  
[Xolis. Yusuf va Zulayxo, 187].*

Yusufning otasiga bo'lgan cheksiz hurmatini ko'rsatuvchi lavhalar Yusufnomalarning deyarli barcha o'rinlarida seziladi. Masalan, u qahatchilik yillari Misrda og'alari bilan ilk bor uch-rashganda birinchi navbatda otasining hol-ahvolini so'raydi. Asarda u har bir kishiga yaxshilik qilishga intiladigan, qilayotgan har bir ishiga adolat bilan yondashadigan shaxs sifatida gavdalanadi. Yusuf obrazining yana bir yorqin qirradi uning adolatli, xalqparvar shoh ekanligida ham ko'rinadi. U Misr mamlakatiga o'z-o'zidan shoh bo'lib qolmaydi, albatta. Misr shohi Rayyon Yusufdagi yuksak fazilatlar, ya'ni undagi haqgo'ylik, tadbirkorlik, eng muhimi, odillikni ko'rib, butun mamlakat ixtiyorini uning qo'lga topshiradi. Yusufning adolatparvarligi dastlab uning Zulayxo tomonidan zindonga tashlangan payti namoyon bo'ladi. Shoh o'z tushi haqidagi

ta’birni Yusufdan eshitgan zahoti uni zindondan ozod qilish haqida buyruq beradi. Uni izzat-ikrom bilan saroyga keltirishlarini so’raydi. Balki Yusufdan boshqa odam bo’lganda, shohning bu marhamatini o’ylab o’tirmay qabul qilgan va zindondan qutulganiga shukur qilib, darhol u yerni tark etishi mumkin edi. Lekin Yusuf bunday qilmadi. U, avvalo, shohdan adolat qaror topishini, ya’ni uni nohaq ayblab, uzoq yillar zindonda azob chekishiga sabab bo’lganlar jazolanishini talab qiladi. Bir umr nomi qora bo’lib yashashni istamaydi. Talablari qondirilgandan so’nggina u shohning taklifini qabul qiladi. Yusufdagi ayni shu xislatlar ma’qul tushgani uchun ham Rayyon unga davlat idorasini ishonib topshiradi.

To’kin-sochinlik yillari tugab, ochlik davri yetganda ham Yusuf xalq g’amida yugurib yeladi. O’zi uchun qayg’urmay, doim xalq dardiga quloq tutadi. Ochlikdan qiynalgan xalq bor mol-u davlatini oziq-ovqatga almashadi. Natijada xalqning sotish yoki almashish uchun hech qanday moli qolmaganda ham Yusuf ularni noumid qaytarmaydi, qo’lidan kelgancha muruvvat ko’rsatadi. U yetti yil qahatchilik davrida mamlakatni adolat bilan boshqarib, xalqni barcha qiyinchiliklardan olib chiqadi. Mana shu adolat tufayli xalqda Yusufga nisbatan hech qanday norozilik paydo bo’lmaydi. U o’z adolati bilan katta shuhrat va e’tibor qozonadi. Qisqasi, ijodkorlar Yusuf siymosi orqali odillikning yuksak namunasini ifoda etgan.

Ya’qub va Yusuf timsollarini yaratishda barcha yusufnomalarda umumiy o’xshashlik kuzatiladi. Ya’ni ularning hammasida Ya’qub va Yusuf payg’ambar, sof, pokdil insonlardir. Ushbu sifatlar har bir qissa-dostondagi Ya’qub va Yusuf obrazlariga mos keluvchi xususiyatlardir. Bu bilan ularning xarakterida umuman farqli jihatlar ko’rinmaydi demoqchi emasmiz. Har bir ijodkor Yusuf payg’ambar haqidagi rivoyatlar asosida yangi bir asar yaratishga jazm qilganda, nafaqat syujet va g’oya, balki undagi obrazlar ustida ham jiddiy bosh qotirgan. O’zaro o’xshashlikdan saqlanishga uringan. Biroq asarlarda mazkur obrazlarning qiyofasi bir-biridan aytarli darajada, ya’ni tubdan farq qilmaydi. Shu bois ularni alohida-alohida emas, umumiy tarzda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Islomgacha bo’lgan davr adabiyotida, xususan, Yusuf haqidagi qissalarda Zulayxo obrazi tilga olinmaydi. Ushbu obrazni Sharq adabiyoti namoyandalari o’z asarlariga kiritganlar. Xususan, ba’zi manbalarda Yusufga oshiq bo’lgan Po’tifarning xotini Zulayxo nomi bilan ushbu mavzudagi asarlarning markaziy qahramonlaridan biriga aylanishi buyuk fors-tojik shoiri Firdavsiy nomi bilan bog’liqligi [Bertels 1960] aytiladi. Ma’lumot o’rnida shuni aytish

mumkinki, ko'plab adabiyotshunos olimlar Firdavsiyni "Yusuf va Zulayxo" dostonining birinchi muallifi sifatida ham e'tirof etadilar. Jumladan, Aruziy Samarqandiy ma'lumotlariga tayanib, Navoiy ham Firdavsiyni dastlabki muallif deb hisoblaydi [Navoiy 1968, 200]. Biroq, XX asrga kelib (ayrim XXI asr tadqiqotlarida ham) bu qarash o'zgardi. Ya'ni Yusuf va Zulayxo mavzusi Firdavsiydan avval fors shoirlari Abul Muayyad Balxiy (X asr) va Baxtiyoriy tomonidan ishlangan bo'lib, Firdavsiyga tegishli deb hisoblangan doston XI asr fors shoiri Amoniy tomonidan bitilgan [K. Chaykin. 2001, 17]. Umuman, Yusuf va Zulayxo qissasining badiiy adabiyotda shakllanishida forsiy adabiyotining o'rni kattadir.

Yusufnomalarda Ya'qub va Yusuf obrazlari bir-biridan keskin farq qilmaydi. Biroq Zulayxo obrazi haqida bunday deyish mushkul. Xususan, Jomiy va Olim Devona dostonlarida Zulayxo obrazi, boshqa ijodkorlar asarlaridagidan butunlay o'zgachadir. Ya'ni ularda Yusuf obrazi markaziy o'rinni tutsa, bu ikki shoir dostonida Zulayxo asosiy o'rinni egallagan. Qisqacha aytganda, bu doston ayol muhabbatining qasidasidir [Jomiy 1983, 5].

Y.Bertels Durbek dostonida Zulayxo bilan kechadigan voqealar xususida shunday fikr bildirgan edi: "Ishqiy element, ya'ni Zulayxo tarixi dostonning markaziy qismi emas, balki voqealar rivojini ta'minlovchi epizodlardan biridir" [Bertels 1944, 174]. Bundan xulosa shuki, Durbekda Zulayxo yetakchi qahramon hisoblanmaydi. U shunchaki voqealar rivojini to'ldiruvchi, asosiy qahramon qiyofasini to'laroq ochishga xizmat qiluvchi obrazdir. Biroq bu faqat Durbek ijodigagina xos xususiyat hisoblanadi.

Ayrim dostonlarda Zulayxoning faolligini yana bir misol orqali ham ko'rish mumkin. Ko'pchilik ishqiylar dostonlarda, odatda, yigit qizni tushida ko'rib unga oshiq bo'ladi. Tush orqali o'z ma'shuqasining ismi yoki manzilini bilib oladi va sevgilisi visoliga erishish uchun u aytgan manzil tomon intiladi. Yusufnomalarda esa buning aksini ko'rish mumkin. Ya'ni unda Zulayxo Yusufni tushida ko'rib, uning betakror husn-u jamoliga oshiq bo'ladi. Boshqa ishqiylar dostonlarda qizning go'zalligi madh etilsa, bunda Yusufning jamoli vasf qilinadi. Zulayxo Yusufdan ismi, nasl-nasabi va manzilini so'raydi. Otasi Taymus shohga bu haqda xabar berib, sevgilisi makoniga – Misrga uzatishini yolvorib so'raydi. Mana shu xususiyati bilan ushbu qissa boshqa ishqiylar-romantik dostonlardan ajralib turadi.

Adabiyotshunos Q.Tohirovning yozishicha: "Yusuf va Zulayxo" haqidagi qissalarda ahvol bir muncha boshqacha. Bunda

oshiqlik, ya’ni sevgida aktivlik xususiyati, asosan, Zulayxo obrazida ko’rinadi. Yusuf esa bu bobda passiv, u ta’bir joiz bo’lsa, ma’shuqa sifatida yoki sevgi obyektini sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun bo’lsa kerak, albatta, klassik adabiyotimizda shoirlarning deyarli hammalari o’z lirikalarida ma’shuqalarini Yusufga, o’zlarini Zulayxoga yoki Ya’qubga nisbat berganlar, mahbubaning go’zalligini chizar ekanlar, Yusuf obrazidan foydalanganlar” [Tohirov 1964, 175].

Zulayxo obrazidagi mana shu xususiyat, ayniqsa, Jomiy va uning izdoshi Olim Devona dostonlarida juda yorqin aks ettirilgan. Ularda Zulayxo obraziga keng o’rin berilib, u asosiy qahramon darajasiga ko’tarilgan. Buni asarning boshidanoq Zulayxo ta’rifi keltirilgan boblardan ham sezish mumkin. Har ikki dostonida ham Zulayxo va uning otashin muhabbati tasviriga butun-butun boblar bag’ishlangan.

“Yozuvchining o’ziga xosligi qahramon ijtimoiy mavqeyini uning ma’naviy-ruhiy olami badiiy manzaralari tasvirlari orqali ifodalashda, ko’ngil kishisining ichki ruhiy kuchini kezi kelganda sabot bilan jilovlay olishi, vaziyat talabi bilan uni jismoniy qudratga aylantira bilishi, har bir qahramonning o’z ma’naviy-ruhiy o’lchamlari borligini ifodalashida ham namoyon bo’ladi” [Yoqubov 2008, 36-37]. Abdurahmon Jomiy va Olim Devona ham ana shunday o’ziga xoslikka ega ijodkorlardir. Ular o’zlari yaratgan qahramonining ishq va sadoqatini haroratli baytlarda, hayajonli epizodlarda qalb qo’ri bilan tarannum etganlar.

Barcha qissalardagi kabi bu ikki dostonida ham Zulayxo Mag’rib shohi Taymusning qizidir. U o’z go’zalligi, donoligi va hayoliligi bilan dong taratgan malika edi. Shoir Zulayxo siymosini chizish bilan uning Yusufga munosib go’zal ekanligini ko’rsatib beradi. Jomiy:

*Ki, Mag’rib mulkida bor erdi shohe,  
Oti Taymus, sohibdastgohe...  
Bor erdi bir qizi ra’noyu zebo,  
Jamol ahli aro oti Zulayxo.  
Dema qiz, durji ismat gavhari, de,  
Shahanshohliq sipehri axtari de...  
Ki, husni keldi bog’istoni jannat,  
Qadidur onda butgon naxli rahmat... [Ogahiy 12].*

Zulayxo o’z sevgilisini ilk bor tushida ko’rmagunicha hayoti mazmunsiz va maqsadsiz edi. U uyqudan turgach, butun vujudi bilan ishqqa qul bo’lganini sezadi. Olim Devona:

*Har kishiga qilsa muhabbat asar,*



*Bog'lasa ko'z, do'stig'a aylar nazar.  
Ishq biyobonini poyoni yo'q,  
Xojavu qul yondau sultoni yo'q.  
Botinig'a zohir o'lub g'aybdin,  
Turfa diloshub bari aybdin...*

[Mirzo Olim Devona, №1338, 34-35].

Yusuf haqida xabar topgan kundan boshlab Zulayxoning halovati yo'qoladi. Aql-hushdan begona bo'lib, devonalarcha unga talpina boshlaydi. Qalbiga tushgan ishq o'ti uni yashashga, yor tomon intilishga va bu yo'lda tinimsiz harakat qilishga undaydi. Inson taqdirini ishq va hijrondan ayro tasavvur etish mushkul. Shoirlar mana shu haqiqatni Zulayxo misolida badiiy aks ettirishga muvaffaq bo'lganlar.

Tasavvufda majoziy ishq haqiqiy ishq bilan yonma-yon turadi. Unda ishq o'ti va hijron orqali majoziy muhabbat haqiqiy ishq darajasiga ko'tarilishi ulug'lanadi. Zulayxoning avvalgi ishq ham majoziy ishq edi. U ishq deb hirsiy tuyg'ular iskanjasida qoladi. Buning natijasida ko'p noma'qul ishlarga qo'l uradi. Shahvoniy hislarga berilib, Yusufni yo'ldan urmoqqa bel bog'laydi. Butparast qiz doyasi maslahati bilan qancha hiyla-nayranglar qiladi. Maqsadiga erishish yo'lida, hatto hayosizlikdan ham toymaydi. U devorlariga o'zi va Yusufning yarim-yalong'och suratlari tushirilgan qasr qurdiradi va shu bilan suyuqlikka erishishni maqsad qiladi.

*Lek hiyal burjig'a toshlab kamand,  
Qilsak anga rang ila qasri baland...  
Ichi tosh bo'lsa mug'ayyir yana,  
Chin uyidek borcha musavvir yana.  
Qizlar o'lub borcha yigitlarg'a juft,  
Borchag'a ish bo'sa kanor ila juft...*

[Olim Devona, №1338, 34-35].

Zulayxoning bu tadbiri ham ish bermagach, Yusufga tuhmat qilib zindonband qildiradi. Ustiga-ustak har tun Yusufga azob berishlarini buyuradi. Zulayxoning bu harakatlari noilojlikdan edi, albatta. Bundan uning muddaosi hech bo'lmasa, mahbubining nolasi, fig'onini eshitib, ko'ngliga bir oz bo'lsa-da taskin berish edi. U Yusufga qanchalik azob bersa, o'zi undan ham ko'p qiynalar edi. Zulayxodagi hirsiy ehtiroslar jazavasi uni shunday nojoiz ishlarga boshlaydi. Biroq hech bir ish uning ko'ngliga taskin bera olmaydi. Uning Yusufga bo'lgan muhabbati kun sayin ortib boraveradi. Yillar

o‘tib, Zulayxo go‘zallikdan ham, barcha boyligiyu shon-shuhratidan ham ayriladi. Qarib-qartayib qolgan payti unda faqat Yusufga bo‘lgan muhabbatdan bo‘lak hech narsa qolmaydi. Ko‘zlari ojiz bo‘lib, yorug‘ olamni ko‘rishdan mahrum bo‘lsa-da, qalbidagi ishq olovi o‘chmaydi, umidsizlikka tushmaydi. Zulayxo har kuni Yusuf o‘tgan yo‘llarda zorlanib, azob chekar edi. Sevgilisini ko‘rolmasa-da uning sasini tuyishdan o‘ziga najot topgandek bo‘lardi.

Kunlarning birida Zulayxo o‘zi ibodat qiladigan butga iltijo qiladi. Shuncha yillik sadoqati hurmati uni Yusuf vasliga muayassar qilishini so‘raydi. Butdan hech qanday najot yo‘qligini, uning shunchaki bir tosh ekanini kech bo‘lsa-da anglab yetgan Zulayxo sanamni urib pora-pora qiladi va Allohga iymon keltiradi. Oxir-oqibat ishq deb nafsoniy tuyg‘ularga berilgani, faqat zohiriy husn oshig‘iga aylanganini tushunib yetadi. Shu ondan unga najot darvozalari birin-ketin ochila boshlaydi. Xudo uning duolarini ijobat aylab, Yusufning qalbiga Zulayxoga nisbatan iliqlik olib kiradi. Yusuf alayhissalomning duolari va Allohning marhamati sabab Zulayxo yana yoshligiga, avvalgi go‘zalligiga, balki undan ham ortiq husn-u jamolga erishadi.

Tasavvuf ta‘limotida insonning ma‘naviy-ruhiy poklanishida ishq asosiy vosita hisoblanadi. Unda inson haqiqiy ishqqa erishgunicha bir qancha bosqichlardan o‘tishi talab qilinadi. Zulayxo ham butun doston davomida ishqiy-ma‘naviy kamolotning bosqichlaridan o‘tib boradi. Ushbu bosqichlar haqida Qobil Tohirov shunday deydi: “Birinci bosqichda, u haqiqiy ma‘naviy ishqdan uzoqda turgan, faqat hirsiy tuyg‘ular asiri bo‘lgan oshiq qiz sifatida gavdalanadi. Bu hol uning tuban ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘ladi, u hammaning e‘tiboridan qoladi, ta‘na va malomat, masxara va kulgu obyektiga aylanadi.

Ikkinchi bosqichda, Zulayxo asketga, zohidga aylanadi, uning ishqiy reallik xususiyatlarini yo‘qotadi, o‘zi hayotdan chetlashadi.

Uchinchi bosqichda esa u yana hayotga qaytadi, ikkinchi bor tug‘ilganday bo‘ladi. Endi uning ishqiy faqat hirsiy tuyg‘u yoki samoviy emas, balki hayotiy va yuksak ma‘naviy tuyg‘uga aylanadi” [Tohirov 964, 217].

Olimning Zulayxo obrazi xususidagi ushbu mulohazalari diqqatga sazovor, albatta. Biroq bu ta‘rif va talqinlar Andalib qissasidagi Zulayxo obraziga mos kelmaydi. Ko‘p bor ta‘kidlanganidek, Andalibning “Yusuf va Zulayxo” qissasi “Qisasi Rabg‘uziy” kabi xalq og‘zaki ijodiga juda yaqin turuvchi, diniy-didaktik ruhdagi asar hisoblanadi. Unda tasavvufning biror elementi borligi

sezilmaydi. Shuningdek, asar voqealari rivojida Zulayxo obrazi bilan bog'liq muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin, ammo buni yuqoridagi kabi majoziy ishqdan haqiqiy ishqqa ko'tarilish deb baholab bo'lmaydi. Unda hech qanday yor tajallisi orqali Haqqa erishish yo'q. Zulayxoning Yusufga bo'lgan ishq esa shunchaki pok insoniy sevgi, xolos. Adabiyotshunos Qobil Tohirovning ushbu talqini ko'proq Jomiy va Olim Devona asarlaridagi Zulayxo obraziga tegishli.

Har ikki shoir ham asosiy e'tiborini oshiq Zulayxoning visol quvonchlari va hijron iztiroblarini tasvirlashga qaratadi. Zulayxo o'zini tanigan kundan boshlab, umrining oxirigacha ishq azobiga giriftor bo'ladi. U o'z sevgisiga erishish uchun qo'lidan kelgan hamma choralarni ko'radi, butun davlati va savlatini, hayoti va obro'sini sarf qiladi. Yusuf Zulayxoning aksi. U hissiz, jur'atsiz, zohid inson.

Shoirilar Zulayxo xarakterini mukammal chiqishiga intilib, uni ko'proq o'z tili orqali tanishtiradilar. Uning hijron nolalari, visoldan umidvor kayfiyati shu usul bilan aks ettirilgan. Zulayxo xoh shodlikdan, xoh g'amdan gapirsin, uning nutqi hamma vaqt hayajonlidir.

Dostonning oxiriga kelib, Zulayxoning muhabbati ma'naviy kamol topadi. Undagi hirsiy-nafsoniy sevgi yo'qoladi. O'z sevgisiga bo'lgan sadoqati bois, nihoyat, Yusufning qalbidan chuqur joy oladi. Shu ondan boshlab Zulayxo ma'shuqaga aylanadi. Undagi faollik xususiyati endi Yusufga ko'chadi. U ham Zulayxo kabi ishq jafosini chekadi. Xulosa qilib aytganda, Jomiy hamda Olim Devona yaratgan Yusuf va Zulayxo obrazi qotib qolgan, o'zgarmaydigan obrazlar emas, balki voqealar rivoji davomida ma'naviy komillik sari yuksalib boruvchi timsollar hisoblanadi.

Qissa-dostonlar voqeasi rivojida asosiy obrazlar bilan yonma-yon ishtirok etuvchi timsollar katta guruhni tashkil qiladi. Biroq ushbu obrazlarning voqealar rivojidagi o'zni birdek emas. Ularning ba'zilari asar voqealari davomida bir necha bor ishtirok etsa, ba'zilari muayyan lavhada ko'rinadi. Shunday bo'lsa-da, mazkur timsollar ham asar mazmuni va g'oyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Albatta, biror badiiy asarda ishtirok etuvchi har qanday qahramon mualliftomonidan shunchaki emas, balki ma'lum bir vazifa yuklatish maqsadida kiritiladi. Shu nuqtayi nazardan, asarda har bir qahramonning o'z o'zni bor. Ularsiz asarning yaxlitligini tasavvur etish mushkul. O'sha kichik obrazlar sabab bosh qahramonning yoxud faol ishtirok etuvchi boshqa timsollarning qiyofasi, ruhiy olami yorqin aks etadi. Bunga misol qilib aksariyat qissalarda uchraydigan

bo‘ri obrazini keltirish mumkin. U voqealar davomida faqat bir o‘rinda qisqagina ishtirok etadi, xolos. Aka-ukalarning yolg‘onidan keyin Ya‘qub bo‘ridan o‘g‘li Yusufni yegan-yemaganini so‘raganda, Xudo unga zabon berib, haqiqatni aytadi. Olim Devonada:

*Qildi salom-u dedi: – Ey pokboz,  
Ham rasuli qodiri ojiznavoz.  
Berma manga nisbat, bu fe‘li zisht,  
Aylamag‘il to‘mai do‘zax bihisht.  
Dev emasmenki, xatokish o‘lay,  
Yo‘qsa sherikim sitamdish o‘lay.  
Borin agar bo‘lsa zarar xil‘ati,  
Borcha rasul etlarining eti.  
Nasli risolatni g‘izo qilmog‘im,  
Behroq erur to‘masizin o‘lmog‘im.  
Borin uzoq nisbat ifrotidin,  
Siddiq kibi harfda misbotidin*

[Olim Devona. №1338, 89].

Durbek:

*Bo‘ri dedi: – Pok rasuli xudo,  
Men qiloyin ko‘z yoshinga jon fido.  
Men yemadim Yusufi Siddiqni,  
Senga de olman dog‘i tahqiqni.  
Meni bu o‘g‘lonlaring ushbu zamon,  
Tutdilaru qildilar og‘zimni qon...  
Men bu viloyatqa tushubmen g‘arib,  
Misr elidin meni bu tortib nasib.  
Ushbu viloyatqa ham inim asir,  
Tushub erur oni tilaymen faqir.  
Ayla duo, e nabiyulloh sen,  
Qilg‘in inimni menga hamroh sen.*

Ushbu timsol ba‘zi ijodkorlarda bolasidan ayrilgan bo‘ri (Rabg‘uziy, Olim Devona) sifatida namoyon bo‘lsa, boshqalarida (Durbek, Andalib va h.k.) inisidan, birodaridan judolikdagi, uni izlab musofirlikda azob chekkan darbadar bo‘ri qiyofasida ko‘rinadi. Mazkur obraz misolida ijodkorlar oldindan Ya‘qub taqdiri va uning o‘g‘li Yusuf bilan bog‘liq voqealar, ularning boshiga tushajak hijron azobidan darak beradilar. Ushbu baytlarda Misr elining tilga olinishi ham bejiz emas. Bu orqali shoirlar Yusufning Misrdagi sarguzashtlariga va Ya‘qub qavmining Misrga ko‘chishiga ishora

qiladi.

Bundan tashqari, voqealar rivojida Misr xotinlarining ishtiroki asosiy qahramonlardan biri bo'lgan Zulayxo obrazining qiyo-fasi, kechinmalarining mukammal aks etishiga katta hissa qo'shgan. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, Misr ayollari personaji va ular bilan bog'liq ba'zi voqealar dastlab Qur'ondagi Yusuf qissasida uchraydi. Shundan so'ng u ko'plab musulmon olami adabiyotida yuzaga kelgan Yusuf va Zulayxo haqidagi doston va qissalarga ko'chgan.

Zulayxo uzoq yillar sevgilisi vasliga yetisholmay, ko'p azob-uqubatlarni boshdan kechiradi. Vaqt o'tib, suyuklisi yoniga kelgan-da ham taqdir undan visolni qizg'anadi. Oqibatda xalq o'rtasida o'zi yomonotliq bo'ladi. Saroy amaldorlarining xotinlari Zulayxoning o'z quliga oshiq bo'lganini eshitib, unga ta'na-dashnomlar qiladilar. Shunda Zulayxo Misr xotinlarini mehmonga chaqirib, ularga Yusufni peshvoz chiqaradi. Xotinlarning qo'liga bittadameva tutqizib, uni to'g'rashlarini so'raydi. Yusufni ko'rgan ayollar esa beixtiyor meva qolib, o'z qo'llarini kesa boshlaydilar. Barchasi Yusufning go'zalligidan lol qoladi. Zulayxo ularga: Sizlar bir lahzagina Yusufga boqib, es-hushingizni yo'qotdingiz, men esa u bilan birgaman, deydi. Shundan so'ng barcha ayollar qilgan ta'nalari uchun Zulayxodan uzr so'raydilar.

Mazkur epizod va Misr xotinlari personajining qissalardan joy olishi birinchidan, Yusufning go'zallik darajasini ko'rsatish bo'lsa, ikkinchidan, Zulayxo qalb tug'yonini, uning ruhiyatida kechayotgan jo'shqin hislar, otashin muhabbatni yorqin bo'yoqlar orqali tasvirlashdir.

Jomiy doston voqealari rivojida o'zi ko'zlagan maqsadga muvofiq yangi obrazlar kiritadi yoki bo'lmasa olib tashlaydi. Xususan, aksariyat qissa-dostonlarda mavjud bo'lgan bo'ri, teva, ajdar, qushlar kabi majoziy timsollar Jomiy asariga umuman kiritilmagan. Jumladan, Olim Devonada ham shunday (unda faqat bo'ri obrazi mavjud). Aytish mumkinki, bu ikki dostonida ba'zi voqealarning tasvirlanmagani shu voqealar bilan bog'liq obrazlarning tushib qolishiga sabab bo'lgan. Ijodkorlar asar g'oyasiga xizmat qilmaydigan yoki uning uchun muhim ahamiyat kasb etmaydigan ko'plab voqea-hodisalar va obrazlarni dostoniga kiritishni lozim topmagan.

Yusuf va Zulayxo haqidagi barcha qissalarda an'anaviy obrazlar tizimi mavjud. Mazkur obrazlar qatoriga Misr shohi Rayyonning ikki vaziri ham kiradi. Bu obrazlarni har bir ijodkor turlicha nom bilan ataydi. Jumladan, Durbekda Soqi va Habbob,

Olim Devonada Obdor va Sufrakash, Andalibda Xonsa va Safo va hokazo. Barcha qissalarda ular deyarli bir holatda namoyon bo'ladi. Ya'ni Yusuf zindonda yotganda u yerda shohning ikki mulozimi ham bo'ladi. Bu mulozimlar shohga qarshi ish qilib, zindonband qilingan edi. Ular bir kun tush ko'rib, uning ta'birini Yusufdan so'raydilar. Tush ta'biriga ko'ra uch kundan so'ng soqiyning gunohi kechirilib, yana avvalgi maqomiga qaytadi. Novvoyning esa dorga osilishi ma'lum bo'ladi.

Dostonlarning barchasida voqea yuqoridagidek tasvirlanadi. Unda ishtirok etuvchi obrazlar faoliyatiga ortiqcha izoh berilmaydi. Biroq bu borada Andalib salaflaridan ko'ra o'zgacha yo'l tutib, mazkur timsollar va ularning xarakter-xususiyati hamda ma'naviy qiyofasini to'laroq ochishga intiladi. Andalib qissasida ushbu obrazlar bilan bog'liq voqealar shunday boshlanadi: Mag'rib zaminining podshohi Misr shohiga dushman edi. Bir kun u vazirlari bilan mashvarat qilib, Rayyonga yaqin kishilarni topishni va shohni zaharlab o'ldirishlari evaziga Misr hokimligini topshirish taklifini bildirishlarini buyuradi. Vazirlar Misr shohining Xonsa va Safo ismli mahramlari borligini aniqlashadi. Mag'rib shohining josuslari o'z takliflarini bildirishgach, ular qabul qilishadi. Qulay vaqtni poylashib, ovqatga zahar solishmoqchi bo'lganda, Safo shuncha yillik osh-tuz va ko'rsatilgan marhamat haqqi-hurmati bu yo'ldan qaytishini bildiradi. Xonsa esa niyatidan qaytmaydi va shoh taomiga zahar soladi. Ovqat shoh huzuriga kiritilgach, Safo gunohini bo'yniga olib, shohni xavfdan ogohlantiradi va undan afv so'raydi. Xonsa bu ishlarda ikkisi teng aybdor ekanini aytgach, shoh bu mahramlarning ikkalasini ham zindonga tashlaydi. Shundan so'ng ular zindonda Yusuf bilan uchrashadilar [Andalib, 47].

Andalib mazkur epizodni shunchaki syujetni boyitish uchun emas, balki muayyan maqsadni ko'zlab kiritadi. Ayonki, barcha dostonlarda shoh soqiyning gunohini kechirib, oldingi mavqeyiga qaytaradi. Biroq nega u aynan soqiyning gunohini kechirishga ahd qiladi? Qissalarda bu masala mavhumligicha qolar edi. Ko'rib o'tilganidek, ijodkor ushbu voqea orqali ana shu savolga javob beradi. Ya'ni Andalib soqiyning aslida qalban pok inson ekanligini, u tuzini yeb tuzlig'iga tupuradigan kimsalardan emasligini ko'rsatib beradi. Ayni shu fazilatlarini sabab shoh uning gunohidan o'tgan edi. Dostonda Safo sadoqat ramzi sifatida gavdalanadi. Ushbu timsollar holatini kengroq yoritish orqali Andalib sadoqat – mukofotga loyiq amallardan ekanini, xiyonat esa, albatta, o'z jazosini olishini yana bir bor asoslab beradi.

Yusuf va Zulayxo qissalarida ijodkorlar faqat an'anaviy obrazlardan foydalanib qolmay, balki qator yangi obrazlardan ham unumli foydalanganlar. Ayniqsa, Xolis va Andalib qissalarida buning yorqin namunalarini uchratish mumkin. Masalan, bu ikki qissada Ya'qubning qizi – Norjon obrazi bor. U boshqa ijodkorlarga tegishli asarlarda uchramaydi. Andalibda bu qizning ismi aytilmaydi. U bu qizni Yusufning ofosi (opasi) tarzida tanishtiradi. Ikki asarda ham bu qiz faqat bir o'rinda, ya'ni Yusufning og'alari ota-o'g'ilni bir-biridan ayirishga qasd qilgan voqeadagina ishtirok etadi. U ham otasi kabi Yusufning boshiga tushajak kulfatlardan xabar beruvchi bir tush ko'radi.

Bizningcha, bu ijodkorlar tomonidan mazkur obrazning kiritilishi ham Yusuf taqdiri bilan bog'liq. Norjonning otasi Ya'qub ko'rgan tushni yana bir bor qayta ko'rishi Yusuf bilan ayriliq muqarrarligi, taqdirdan qochib bo'lmasligini ko'rsatuvchi bir ishoradir.

Bundan tashqari, Andalib va Xolis dostonida bir zohid obrazi keltiriladi. Andalib izohiga ko'ra, u zohid hazrati Shiys nabiyning naslidan edi. U Yusuf alayhissalom haqidagi bashoratni eshitib, Allohga nola qiladi: "Ey parvardigorim, mani umrimni uzun qilsang, man Yusufni jamolin ko'rsam, alhamdulillah, armonim qolmas". Xudo zohidning duosini qabul qiladi va shunday deydi: "Ey zohid, borgil, o'shal Shaddod qozg'on quduqni tagig'a kirib ibodat qilg'il. Ming ikki yuz ellik yildin keyin Yusuf alayhissalom jamolin ko'rarsan" [Andalib, 17].

Og'alar Yusufni chohga tashlaganlarida u yerda o'sha zohid ham bor edi. Yusufning jamolini ko'rib, murodi hosil bo'lgan zohid bu dunyoni armonsiz tark etadi. Ushbu obraz ilohiy-muqaddas kitoblarda ham, shu mavzudagi boshqa asarlarda ham umuman keltirilmagan. Shunday bo'lishiga qaramay, Andalib va Xolis qissasidagi bu obraz tamoman yangi emas. Chunki "Qisas ul-anbiyo"ning ayrim nusxalarida ushbu obraz mavjud. Mazkur personajning asardan joy olish sababini Fazliddin Ravshanov quyidagicha izohlaydi: "Yusufning sarson-sargardonligi, hijron va sog'inch azobi endi boshlanayotgan bir payt. Uning boshiga hali Zulayxo tomonidan ne-ne kulfatlar yog'dirilishi kerak. Yusuf esa sabr-toqat jilovini qattiq tutishi lozim. Bu azob uzoq yillarga cho'ziladi. Unga chidam-dosh bermoq uchun o'ta qanoatli bo'lmoq talab etiladi. Quduqda ilon shakliga kirib yotgan odam (Xolis dostonida bu odam uzoq yillar ilon shakliga kirib yashagani aytiladi – D. J.) esa birgina Yusufning jamolini ko'rmoq uchun bir ming ikki yuz yil sabr-qanoat

qiladi va nihoyat, o‘z niyatiga erishadi. Bundan maqsad, demak, Yusufga sabr-qanoat va Allohning buyurganiga iymon keltirishdan saboq berish, deb tushunamiz” [Ravshanov 1997, 71].

Haqiqatan, zohid o‘z maqsadiga erishish uchun juda uzoq muddat mashaqqat chekadi. U asarda sabr, qanoat va ulkan matonatning ramzi sifatida gavdalanadi.

Qissa-dostonlar tarkibida shu kabi obrazlarni ko‘plab uchratish mumkin. Ularning har biri dostonda o‘ziga xos o‘ringa ega. Ijodkorlar bu timsollar, ularning xatti-harakatlari orqali o‘z dunyoqarashi, yashab turgan zamonlariga bo‘lgan munosabati va odob-axloqqa oid muhim g‘oyalarini ifodalagan.

### **Adabiyotlar**

- Абдурахмон Жомий. 2018. *Юсуф ва Зулайхо. Муҳаббат махзани*. 307-612. Нашрга тайёрловчи: Нурбой Жабборов. Тошкент: Тасвир.
- Абдурахмон Жомий. 1983. *Юсуф ва Зулайхо*. Тузувчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Азиз Қаюмов. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1968. *Тарихи анбиё ва ҳукамо*. Асарлар., 15-том. Тошкент.
- Андалиб, Нурмуҳаммад. *Юсуфу Зулайхойи туркий*. ЎзРФАШИ. Қўлёзма № 5176.
- Андалиб. 1995. *Туркий Юсуф-Зулайхо*. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Олим Равшанов. Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти.
- Бертелс, Е. Э. 1960. *Избранные труды*. Москва: Наука.
- Бертелс, Е. Э. 1965. *Навои и Джамии*. Москва: Наука.
- Бертельс, Е. Э. 1944. “Узбекский поэт Дурбек и его поэма о Иосифе Прекрасном”. *Дар Алманах*. Ташкент.
- Дурбек. 1959. *Юсуф ва Зулайхо*. Тошкент: ЎзРФА.
- Ёқубов, И. 2008. “Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 36–37. Тошкент.
- Жабборов, Н. 1997. “Жомийнинг “Юсуф ва Зулайхо” асари туркий таржимасига оид мулоҳазалар”. *Абдурахмон Жомий*, 172 -175. Тошкент.
- Жомий. 1977. *Юсуф ва Зулайхо*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Кароматов, Ҳ. 1993. *Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил)*. Фил. фан. док. дисс... автореферати. Тошкент.
- Комилов, Н.1968. *Бу қадимий санъат*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Қуръони Карим. 1992. *Юсуф сураси*. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон.
- Мирзо Олим Девона. *Равзаи-асрор*. ЎзРФАШИ. №1338.
- Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. 1990. *Қиссаи Рабғузий*. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи.



- Огаҳий, Муҳаммад Ризо. *Юсуф ва Зулайхо*. ЎЗР ФА ШИ. Қўлёзма. № 1338.
- Равшанов, Ф. 1997. *Холис ва унинг адабий мероси*. Фил. фан. номз. дисс. Самарқанд.
- Санаев, И. 2009. *XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити*. Тошкент: Тафаккур.
- Сафарова, Ҳ. 2001. *Рабғузийнинг “Қиссаи Юсуф Сиддиқ алайҳис-салом” асари манбалари ва ғоявий-бадиий таҳлили*. Фил. фан. номз дисс. Самарқанд.
- Тоҳиров Қ. 1964. *Туркман шоири Андалиб ва ўзбек адабиёти: лирикаси ва “Юсуф ва Зулайхо” достони*. Филология фан. канд. дисс. Самарқанд.
- Холис. *Юсуф ва Зулайхо*. ЎЗР ФАШИ. Инв. № 824261.
- Чайкин К. 1935. *Фирдоуси*, Сб. Восток, ИИ М. Л., Академия.
- Шерназаров, Б. 2003. *“Юсуф и Зулейха” Назима Хирати и ее сравнение с одноименной поемой Абдурахмана Джами*. Дисс-я на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Душанбе.

## **Analysis of the figurative system of the epic "Yusuf and Zulaikha"**

Dilnoza Jumayeva<sup>1</sup>

### **Abstract**

The article is devoted to the analysis of the figurative system of the epic "Yusuf and Zulaikha". In world literature, to a certain extent, travel stories based on divine sources and sources of enlightenment are studied, including the story of Yusuf and Zulaikha, described as "ahsan-ul-qisas". But each era poses unique scientific challenges for researchers. To find the correct scientific and theoretical solution, it is important to pay attention to the root of the problem - the analysis of primary sources, the genesis of the studied literary issue and the study of all processes of text formation. The study of the epics of Yusuf and Zulaikha in this aspect is one of the important tasks of textual criticism. The article compares and analyzes the translation of the Agahi of the epic "Yusuf and Zulaikha" by Abdurahman Jami, a series of epics by Durbek, Mirzo Olim Devon and Yusuf, as well as a series of images in the stories of Nurmukhammad Andalib.

**Key words:** *mobile plot, short story, "Yusuf and Zulaikho", epic, image.*

### **References**

- Abdurahmon Jomiy. 2018. *Yusuf va Zulayxo. Muhabbat maxzani*. 307-612. Nashrga tayyorlovchi: Nurboy Jabborov. Toshkent: Tasvir.
- Abdurahmon Jomiy. 1983. *Yusuf va Zulayxo*. Tuzuvchi, mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi Aziz Qayumov. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1968. *Tarixi anbiyo va hukamo*. Asarlar., 15-tom. Toshkent. Andalib, Nurmukhammad. *Yusufu Zulayxoyi turkiy*. O'zRFASHl. Qo'lyozma № 5176.
- Andalib. 1995. *Turkiy Yusuf-Zulayxo*. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Olim Ravshanov. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.
- Bertels, Ye. E. 1960. *Izbrannie trudi*. Moskva: Nauka.
- Bertels, Ye. E. 1965. *Navoi i Djami*. Moskva: Nauka.
- Bertels, Ye. E. 1944. "Uzbekskiy poet Durbek i yego poema o Iosife

---

<sup>1</sup> *Dilnoza T. Jumaeva* - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor, Uzbek State Institute of Arts and Culture.

**E-mail:** jumayevadilnoza00@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-8492-0853

**For citation:** Jumaeva, D.T. 2021. "Analysis of the figurative system of the epic "Yusuf and Zulaikha". *Golden scripts* 3: 43-66.

- Prekrasnom". *Dar Almanax*. Tashkent.
- Durbek. 1959. *Yusuf va Zulayxo*. Toshkent: O'zRFA.
- Yoqubov, I. 2008. "Tarixiy haqiqat va badiiy talqin". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 36-37. Toshkent.
- Jabborov, N. 1997. "Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" asari turkiy tarjimasiga oid mulohazalar". *Abdurahmon Jomiy*, 172 -175. Toshkent.
- Jomiy. 1977. *Yusuf va Zulayxo*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Karomatov, H. 1993. *O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari (adabiy-tarixiy tahlil)*. Fil. fan. dok. diss... avtoreferati. Toshkent.
- Komilov, N. 1968. *Bu qadimiy san'at*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Qur'oni Karim. 1992. *Yusuf surasi*. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. Toshkent: Cho'lpon.
- Mirzo Olim Devona. *Ravzai-asror*. O'zR FASHI. №1338.
- Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. 1990. *Qissai Rabg'uziy*. Birinchi kitob. Toshkent: Yozuvchi.
- Ogahiy, Muhammad Rizo. *Yusuf va Zulayxo*. O'zR FA ShI. Qo'lyozma. № 1338.
- Ravshanov, F. 1997. *Xolis va uning adabiy merosi*. Fil. fan. nomz. diss. Samarqand.
- Sanaev, I. 2009. *XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti*. Toshkent: Tafakkur.
- Safarova, H. 2001, *Rabg'uziyning "Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili*. Fil. fan. nomz diss. Samarqand.
- Tohirov Q. 1964. *Turkman shoiri Andalib va o'zbek adabiyoti: lirikasi va "Yusuf va Zulayxo" dostoni*. Filologiya fan. kand. diss. Samarqand.
- Xolis. *Yusuf va Zulayxo*. O'zR FASHI. Inv. № 824261.
- Chaykin, K. 1935. *Firdousi*, Sb. Vostok, II M. L., Academia.
- Shernazarov, B. 2003. *"Yusuf i Zuleyxa" Nazima Xirati i yee sravnenie s odnoimennoy poemoy Abduraxmana Djami*. Diss-ya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Dushanbe.

## Aliy Safiy Hiraviy qalamiga mansub yangi qo'lyozmalar va Toshkent qo'lyozma fondlarida mavjud asarlari

Bahriddin Umurzoqov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz boy merosi bugungi kunda dunyo fondlarida saqlanib kelinmoqda va olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Ajdodlarimizning dunyoqarashi, ma'naviy-estetik olami, ayniqsa, qo'lyozma manbalarda o'zining yorqin, go'zal ifodasini topgan bo'lib, bu manbalar sog'lom e'tiqodli komil insonni tarbiyalashdek muhim va g'oyat mas'uliyatli ishda eng ta'sirchan va samarali vositalardan biri ekanligi allaqachon e'tirof etilgan haqiqatdir.

Faxruddin Aliy Safiy bin Husayn Voiz Koshifiy (vaf. 939/1533), uning ijodi dunyoviy va diniy ilmlarning turli sohalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatli. Faxruddin Aliy Safiy asarlarida ajdodlarimiz ilmiy merosi orqali yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonni tarbiyalash, yoshlarni dinimiz asoslari orqali sog'lom tafakkur va pok axloqqa targ'ib qilish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** *qo'lyozma, Aliy Safiy g'azali, "Sharh-i Masnaviy", "Tuhfatu-l-muluk", e'tiqod, axloq, tasavvuf, irfon.*

### Kirish

XV–XVI asr mobaynida Hirotda yashab ijod etgan shoir, yetuk manolibnavis Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy Hirotda ilmiy-adabiy muhitning yetuk allomalaridan, mumtoz adabiyot vakillaridan biri hisoblanadi. U o'ziga xos ijodiy faoliyati va ilmiy-adabiy merosi bilan o'z davri tasavvuf adabiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk ijodkordir.

Faxruddin Aliy Safiy "Safiy" taxallusi bilan she'rlar yozgan.

---

<sup>1</sup> *Umurzoqov Bahriddin Safarovich* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

**E-pochta:** bahrumr\_nur@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-8870-156X

**Iqtibos uchun:** Umurzoqov, B. S. 2021. "Aliy Safiy Hiraviy qalamiga mansub yangi qo'lyozmalar va Toshkent qo'lyozma fondlarida mavjud asarlari". *Oltin bitiglar* 3: 67–79.

Uning manzuma qasidalari, she'riy dostonlari, shuningdek, "Rashahot ayn ul-hayot" asarida yuzga yaqin ruboiy, masnaviyolari mavjud.

Quyidagi asarlar Aliy Safiy qalamiga mansub asarlar sifatida e'tirof etilgan: "Rashahot ayn ul-hayot" ("Hayot bulog'i tomchilari"), "Latoyif ut-tavoyif" ("Ajoyib lutf so'zlar"), "Anis ul-orifin" ("Orif zotlarning hamrohi"), "Hirz ul-amon min fitan il-zamon" ("Zamona fitnalaridan xalos bo'lish uchun omonlik choralari"), "Farasnomai Safiy" ("Safiyning ot haqidagi dostoni"), "Odob ul-as'hob" ("Birodarlik odobi" yoki "Birodarlar uchun odobnoma kitobi"), "Lavoih ul-qamar" ("Oyning ko'rinishlari"), "Manzumai Mahmud va Ayozi" ("Mahmud va Ayozi haqida she'riy doston"), "Asrori Qosimiy".

Tojikistonlik olim M. Ne'matov o'z tadqiqotida Aliy Safiyning yana bir asari, ya'ni "Lug'ati Aliy Safiy" ("Aliy Safiyning so'zligi") haqida axborot bergan. O'zR FA ShI fondida bu asar mavjud emas. Tojikiston FA Sharq qo'lyozmalari katalogida yozilishicha, mazkur "Lug'ati Aliy Safiy" qo'lyozmasi Tojikiston FA Sharq qo'lyozmalari fondida saqlanadi va u asar muallifning dastxat nusxasi bo'lishi mumkin. Shaxsiy arxivimizda Aliy Safiyning dastxati mavjud bo'lgani bois kelgusida biz bu asarni sinchiklab o'rganib, bu masalaga oydinlik kiritish umididamiz.

Yaqinda Aliy Safiyning shu kunga qadar noma'lum bo'lib kelgan yana ikkita yangi asari qo'lyozmasini va bir g'azalini aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Bu qo'lyozmalardan biri – ijodkorning "Sharh-i Masnaviy" asaridir. Mazkur asarning yagona qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi.

Ikkinchi qo'lyozma esa "Tuhfayi muluk" asari bo'lib, bu asarning ham yagona qo'lyozma nusxasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanmoqda. Har ikki asar forsiy tilda yozilgan. Hozirda biz ushbu har ikki qo'lyozmani alohida, batafsil tavsif va tadqiq etishga kirishganmiz.

Yaqinda Hirot shoirlari she'rlari asosida tuzilgan bayozlar to'plamini tadqiqi etish asnosida Aliy Safiy qalamiga mansub bir g'azalga duch keldik. №1023 inv. raqam ostida saqlanayotgan "Majmu'ai bayoz"ning 140<sup>a</sup>–140<sup>b</sup> varaq hoshiyasida "G'azali Mavlono Faxriddin Aliy mutaxallas ba Safiy" sarlavhasi ostida shoirning g'azali keltirilgan. G'azal quyidagi misralar bilan boshlangan:

*Iloho, dar diyori mehnatam hashmat panohe deh,  
Zi dardu dog'-i ishqam toji taxt podishohe deh.*

Mazkur g'azal Aliy Safiyning "Devon"idan olinganligi aniq. Galdagi muhim vazifamiz ijodkorning ana o'sha "Devon"ini topishdan iborat bo'lmoqda.

Toshkent qo'lyozma fondlari – O'zR FA ShI asosiy fondi, H.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar fondi, O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi fondi, O'zbekiston Musulmonlari Idorasi kutubxonasida Aliy Safiyning barcha asarlarining o'nlab qo'lyozma nusxalari va toshbosma nashrlari saqlanib kelinmoqda. Quyida Faxruddin Aliy Safiyning Toshkent qo'lyozma xazinalaridan O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida mavjud asarlari nodir qo'lyozmalari tavsifi va tadqiqi haqida qisqacha so'z yuritamiz. Afsuski, ijodkor qalamiga mansub mazkur asarlarning zamonaviy ilmiy-izohli nashrlari yurtimizda hanuz amalga oshirilmadi.

Aliy Safiyning shoh asari "Rashahot"dan keyin ikkinchi yirik, muhim asari, shubhasiz, "Latoyif at-tavoyif" asari hisoblanadi.

Sharq qo'lyozmalari katalogida bu asar nomi لطائف الطوائف "Тонкие слова людей разных категорий", ya'ni "Turli tabaqa vakillarining nozik go'fti go'ylari" shaklida berilgan [CBP 1960, 144]. Bu asar ham forsiy tilda yozilgan.

Asarning Sharqshunoslik institutida o'n to'qqizta nusxasi mavjud. Ulardan ayrimlari, masalan, №9333 inv. raqam ostida saqlanayotgan nusxasi suqutlik (avvali yo'q) nusxadir. Asarning nusxalaridan biri – "Intixob az "Latoyif at-tavoyif" deb nomlangan. U atigi 13 varaq (26 sahifa)dan iborat. "Latoyif at-tavoyif"ning bu muxtasar nusxasi 4645 inventar raqam ostida saqlanayotgan kitobdagi ikkinchi asar hisoblanadi.

Tadqiqotimizda asarning Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida 3636/1 raqami bilan saqlanayotgan nusxasidan foydalanmoqdamiz. Mazkur qo'lyozma 21,5x26,6 sm hajmda, 119 varaq (238 sahifa)dan iborat. Nasta'liq xatida, har sahifasida o'n uch satrdan qilib matn joylashtirilgan. Kotibi – Abdulloh Xo'qandiy. Qo'lyozma hijriy 1253 sana (milodiy 1837 y.)da kitobat qilingan.

Asar (basmala, hamd va salovotdan keyin) shunday boshlanadi:

و این رساله یست مستی بلطایف الطوائف و لطایف بجهار ده باب است و الله ولی الرشاد و منه  
المبدء و ومعاد

Shundan so'ng muallif asar boblarining nomlanishini birma-bir bayon qiladi [2<sup>a</sup>]:

و فهرس الابواب باب اول این کتاب در بیان استحباب مزاح و در ذکر بعضی از مطایبهای حضرت  
رسول عالم صلی الله علیه و سلم ---

*Birinchi bob* Hazrat Payg'ambar sollallohu alayhi va

sallamning sahobayi kiromlarga, o'z xonadoni ahllariga muborak hazil-mutoyibalari zikri bayonidan; *ikkinchi bob* ma'sum imomlar-chahoryori kiromlardan eshitilgan nozik iboralar, ularning hazil-mutoyibalari zikri bayonidan; *uchinchi bob* podshohlarning hikoyalari va o'zaro hazil-mutoyibalari zikri bayonidan; *to'rtinchi bob* amirlar, bekdodalarning o'zaro hazil-mutoyibalari zikri bayonidan; *beshinchi bob* sipohiyar (harbiy odamlar, ya'ni lashkarboshilar va askarlar)ning o'zaro hazil-mutoyibalari zikri bayonidan; *oltinchi bob* fasih va balig', ya'ni so'zga chechan, gapni topib gapiradigan insonlarning o'zaro hazil-mutoyibalari zikri bayonidan; *yettinchi bob* mashoyix, ulamo, qozilar, faqihlar va voiz insonlarning o'zaro hazil-mutoyibalari zikri bayonidan; *sakkizinchi bob* oldin yashab o'tgan hakim (donishmand) zotlar va oxirgi davr hakimlarining o'zaro hazil-mutoyibalari zikri bayonidan iborat. Mazkur sakkizinchi bobda Aliy Safiy ta'burchilar va munajjimlarning o'zaro hazil-mutoyibalarini ham naql qilgan.

*To'qqizinchi bobda* shoirlarning o'zaro hazil-mutoyibalari; *o'ninchi bobda* she'r ahli, ya'ni shoirlarning ash'orida o'z aksini topgan ajib va g'aroyib badiiy lutflar; *o'n birinchi bobda* rijol (ya'ni, er kishilar) va ayollarning o'zaro hazil-mutoyibalari; *o'n ikkinchi bobda* baxil kimsalar, ochofat odamlar va yosh bolalarning lutf so'zlari haqida so'z boradi.

Asar quyidagi jumlar bilan tamomlangan [Safiy 119<sup>a</sup>]:

وصال نشیته ام و انتظارى آن میبیرم که کجا یاشد که این بار شود منتظر باش و چشم  
در بر در دار و کر نظر را در قنطار نهاد

Asar kolofonidagi yozuv:

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب تمام شد این نسخهء شریفه متبرکه ميمون المبارك  
مسمی بلطایف الظرایف حضرت مولانای جام نوره الله مرقدہ در يد ضعيف خيف حقير  
و غريب و شکستهء ناتوان بر تقصیر عبد الله خوفندی جواهری بامر امارت حکومت دستکاه در  
روز چهار شنبه در نهم ماه ربیع الثانی سنه 1253 اختتام بزیرفت

هیچ خطی نیست خالی از غلط خط تقدیست خالی از غلط

اللهم اغفر لی و لوالدیه و الاستاذیه و لجميع المؤمنین و المؤمنات و المسلمین و  
المسلمات امین و رب العالمین

روزیکه مرک دامن عمرم رها کنند این خاک تیره بند ز بندم

جدا کنند

یا رب نگاه دار تو ایمان آن کسی

کین خط من بوسند من را دعا کنند

"Latoyif at-tavoyif"ning yana bir nodir qo'lyozma nusxasi №3655 inv. raqam bilan saqlanadi. Bu nodir nusxa 1278/1863-yili kitobat qilingan, nasta'liq xatida, jami 119 varaq (238 sahifa)dan iborat. Ko'chiruvchisi – Mullo Ismoil ibn Mullo Azimboy.

Asar shunday (basmaladan so'ng) boshlanadi:

بعد از ادای لطایف تحمیداد الهی و وظایف صلوات حضرت رسالت بناهی علیه و  
آله صلوة ---

Jinin ko'yd qo'ldir bafqar nisbati mabadi ali bin al-husayn al-wa'iz al-kashfi al-mashhur ba al-vasfi  
ayde allah ba luf al-xafi ke jon dar shehur seneh tasec w tase'ma'ne buwaspe tahul ruzkar w taqab  
lail w nahar beed xalass w najat az habs yak saleh shehur herat w yemal an'awac riyasat w asnaf  
baliyat budod herat roud barake az jibal -

Mazkur nusxaning boshlanishi yuqoridagi nusxa boshlanishidan farqli ekani yaqqol ko'rinib turibdi. "Asar boshlanishi asliyatda qanday o'zi?" degan savolga javob topishimiz uchun ushbu asarning yo dastxat nusxasi va yoki ishonchli nusxasidan kitobat qilingan qo'lyozmasi kerak bo'ladi.

Asar quyidagicha tamomlangan:

و صال نشیته ام و انتظاری آن میبرم که کجا باشد که این بار شود منتظر باش و چشم  
در یر در دار و کر نظر را در قنطار نهاد

تمت الكتاب بعز الملك الوهاب نسخه لطایف الظرایف سنه 1278 شد بتوفیق خدای  
لا ینام این کتابت روز جمعه شد تمام علی ید الضعیف یخیف ملا اسماعیل ابن ملا عظیم بای  
غفر الله تعالی ذنوبهما و ستر عیوبهما والله اعلم بالصواب

Quyidagilar kitobning o'ng tarafi hoshiyasida (220<sup>b</sup>) qiyalatib yozilgan:

زانکه من بنده کنه کارم

هر که خواند دعا طمع دارم

بیشتر از مرگ میا یان رسید

شکر که این نسخه بعنوان رسید

Shundan so'ng keyingi, ya'ni 221<sup>a</sup> sahifada basmala va uning pastida jami olti misra forsiy she'r bitilgan.

Mir Alisher Navoiy odamlar ta'lim-tarbiyasi, qiziqishlari va e'tiqodiga ko'ra ularni bir necha tabaqalarga bo'lgan. Alisher Navoiyning fikricha, o'ttizdan ortiqroq tabaqalar bor [Navoiy 1963, 12].

Aliy Safiy "Latoyif at-tavoyif"da mazkur tabaqalardan ba'zilarining o'zaro suhbat, gurung, muloqot asnosidagi "badiyhatan" (hozirjavoblik bilan) aytgan gap-so'zlarini keltirish bilan birga o'sha shaxslardan har birining ma'naviy darajasi borligiga ham ishora qilgan.

"Latoyif at-tavoyif" eronlik olim Ahmad Gulchin Ma'oni tomonidan muqaddima, ilmiy-izohlar va ko'rsatkichlar ilovasi bilan nashr etilgan. Kitobning "Iqbol" nashriyoti muhri bilan O'zR FA Sharqshunoslik institutiga hadya qilingan nusxasi institut qo'lyozmalar asosiy fondida №22624-raqami bilan saqlanadi. "Latoyif at-tavoyif"ning mazkur Eron nashri bilan asarning Toshkent qo'lyozma nusxalari matnshunoslik va manbashunosligimiz nuqtayi nazaridan kelgusida, albatta, qiyoslab tadqiq etilishi lozim.



Aliy Safiy ijodida o'ziga xos o'rin tutgan "Latoyif at-tavoyif" mumtoz adabiyotimizda o'z an'anasiga ega bo'lgan badiiy-tarixiy nasrning yirik namunasidir.

2. "Anis ul-orifin" ("Orif zotlarning hamrohi"). Bu asarning nafaqat Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida va umuman, Toshkent fondlarida qo'lyozma, toshbosma va yo lito-grafik nashri nusxasi mavjud emas.

3. "Hirz ul-amon min fitan il-zamon" ("Zamona fitnalaridan xalos bo'lish uchun omonlik choralari"). Bu asarning Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar asosiy fondida jami 14ta qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, bu asar ham forsiy tilida yozilgan.

Tadqiqotimizda asarning Sharqshunoslik instituti qo'l-yozmalar xazinasida 9423-raqami ostida saqlanayotgan nusxasidan foydalanmoqdamiz. Qo'lyozma hijriy 1098 sana/milodiy 1686-yili ko'chirilgan. Kotib – Abu Tolib Abdulmalik. Mazkur qo'lyozma nusxa 15x24,5 sm hajmda, 108 varaq (216 sahifa)dan iborat. Nasta'liq xatida. Har sahifasida 21 satrdan qilib matn ko'chirilgan.

Asar quyidagicha boshlangan (basmaladan keyin):

الحمد لله محب الدعوات و رافع الدرجات و الصلوة و السلام على سيدنا محمد و  
بله مظهر الخيرات و مطهر البركات أما بعد جنين كويد فقير بي بضاعت و حقير خالی از  
استطاعت علی بن الحسين الواعظ الكاشفی ابده الله بالطف الخفی که این مجموعه است بر  
خواص حروف مقطعه قرآنی و اسماء حسناى ربانى و سوار و آیات فرقانى که از نفایس علوم  
خفيه است و مخصوص است بحضرت کرام اهل نبیت عليهم الصلوة و السلام—

4. "Farasnomai Safiy" ("Safiyning ot haqidagi dostoni").

Bu asarning nafaqat O'zR FA Sharqshunoslik institutida bir dona litografik nashri mustasno, birorta qo'lyozma nusxasi, shuningdek, toshbosma nusxasi ham topilmadi. Ammo eronlik tadqiqotchilari A.G. Ma'oniy bu asar qo'lyozmasi haqida ma'lumot bergan va litografik nashri mavjudligini ham aytib o'tgan. "Farasnomai Safiy" asari forsiy tilda yozilgan bo'lib, mazkur asar ot haqida va ayniqsa, otlar parvarishi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha masalalarni o'rganishda qo'l kelishi bilan ham ahamiyatlidir.

5. "Odob ul-as'hob" ("Birodarlik odobi" yoki "Birodarlar uchun odobnoma" kitobi). Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar asosiy fondida mazkur asarning jami sakkizta qo'lyozma nusxasi mavjud.

Biz asarning Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida 11726-raqami bilan saqlanayotgan nusxasidan foydalandik. Qo'lyozma hijriy 1284 sana / mil. 1867–1768-yili ko'chirilgan, 12,5x20,5 sm hajmda va jami 175 varaq (350 sahifa)dan iborat. Kotib Mir Fayzulloh Toshkandiy.

Asar quyidagicha boshlangan (basmaladan so'ng):

الحمد لله الذي زين من جزيل عطائه قلوب اوليائه بمحاسن الاوصاف و الأداب و  
الصلوة على سيدنا الذي بعثه الله ليتم مكارم الاخلاق و ادابه باحسان التأديب في كل باب و السلام  
على آله و اصحابه المتأدبين بأدابه بلا از تياب اما بعد ---

Qo'lyozma kolofonidagi yozuv:

تمام يافت اين نسخهء شريف اين غريق بحر عصيان محتاج برحمة ملك منان مير  
فيض الله تاشكندی روز يکشنبه از هجرت هزار و دو صد و هفتاد چهار بود اتمام يافت

يا ارحم الراحمين يا هادى المضلين فرياد رس

زانکه من بنده کنه کارم هر که خواند دعا طمع دارم

Ushbu varaq tepasida kotib qalami bilan 571, ya'ni "15-7varaq" degan yozuv mavjud. Ammo varaqqa qalamda 179-raqami yozib qo'yilgan. Bunga kitob avvalida yozilmasdan bo'sh qoldirib ketilgan to'rt varaq sabab bo'lgan. Kotib ularni hisobga olmagan.

Asar odob-axloq masalalariga bag'ishlangan. U har biri to'rt faslni o'z ichiga olgan sakkiz bobdan iborat. Asarda inson odobi mavzularga ajratilgan holda pand-nasihath yo'lida tushuntirib berilgan: *Birinchi fasl* – *iste'zon* (birovning oldiga kirish uchun izn so'ramoq), *salom*, *musofaha* (qo'l berib ko'rishmoq), *mu'onaqa* (safardan qaytganlar bilan quchoqlashib ko'rishmoq) va *taqbil* (salomga javob qaytarmoq) odobidan; *ikkinchi fasl* – salom bermoq odoblari bayonidan; *uchinchi fasl* – muloqot odoblari bayonidan; *to'rtinchi fasl* – suhbat ahlining ba'zi atvor va ahvoli zikridan iborat va unda o'n to'rt odob bor, ya'ni uxlamoq, libos kiymoq, yo'l yurmoq, otga minmoq, masjidida o'zini boshqalardan ustun qo'ymaslik va boshqa ko'plab odoblar bayon qilingan.

"Odob ul-as'hob" asari XIX asrda Muhammad Sodiq Koshg'ariy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan. Kitob Toshkentda "Odob ul-solihin" (Solih zotlar odobi) nomi bilan litografik usulda nashr bo'lgan. 1895-yili N. S. Likoshin tomondan "Odob us-solihin"ning rus tilidagi qisqartirilgan mazmuni e'lon qilingan. 1889-yili 'Laxtin' bosmaxonasida chop etilgan. 1900-yili mazkur tarjima Toshkentdagi "Porsev" matbaasida "Musulmonlikka oid material-lar to'plami"ning ("Сборник материалов по мусулманству") ikkinchi jildida qayta nashr etilgan. Mazkur nashrga asoslanilgan rus tilidagi asar matni 1992-yili "Kamalak" nashriyotida chop qilingan [Кашгарии 1992, 100].

Mazkur asarning bir qismi "Odob ul-as'hob"dan" degan nom bilan zamonaviy o'zbek tiliga tarjima qilinib, to'plamda berilgan [Сафий 2014, 160]. Umuman olganda, mazkur asar ham badiiy-tarixiy nasrning yirik namunasi hisoblanadi va u Aliy Safiy ijodida

o'ziga xos o'rin tutadi.

6. "Lavoyih ul-qamar" ("Oyning ko'rishlari haqida"). Asar forsiy tilda yozilgan. Bu asar Aliy Safiyga tegishlimi yoki uning otasi Mavlono Husayn Voiz Koshifiyami? Bu savolga javob topish uchun mazkur asar qo'lyozmalarini yaxshilab tadqiq etish zarur.

"Lavoyih ul-qamar" asarining O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida uchta nusxasi mavjud, ammo kartotekada 8312/IV raqam ostida saqlanayotgan nusxasigina qayd etilgan, xolos.

Asarning Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida yana bir qo'lyozma nusxasi mavjud. U 8312/4-raqami ostida saqlanadi. Biz asarning ana shu nusxasidan foydalandik. Mazkur qo'lyozma hijr. 1234 sana / mil. 1819-yili ko'chirilgan, 15x20 sm hajmda. Xati – nasta'liq, har varaqda 19 satrdan qilib ko'chirilgan. Asar jami 60 varaq (120 sahifa)dan iborat. Kotibi – Muhammad ibn Aliy Asg'ar.

Asar (kitob nomi va basmaladan keyin) shunday boshlanadi:

من تصنیفات ملا علی  
الحمد لله الذي بيده حكمت ازمنة الاختيار و بفيضه قدرة القتدار و الصلوة على رسوله  
و حبيبه محمد الامين المختار المبعوث باشارة و ---  
اما بعد از اداء ثناء قادر مختار جلسة العظبة و علمت كلمة كه دست اختيار از تقلد  
اعمال كارخانه ابداع و مشيت و تقريبات در خزانه اسرار قدرت و ارادت او كوتاه است يفعل  
الله ما يشاء و يحكم ما يريد و نثار انوار ثوابت و سبارات لمن كان له قلب و القى السمع و هو  
شهيد---

جنين كويد حقير فقير حسين على الصفى المشتهر بالكاشفى ايدالله بالالطف الخفى كه  
جون بمدد و دسبارى رفيق توفيق---تحقيق رساله كه---

Asar matnida yozilgan, ammo keyin va "ibn", "al-Bayhaqiy" kalimalari o'chirilgan, hoshiyada "as-Safiy" deb yozib qo'yilgan. Demak, kotib yanglishib, Aliy Safiyga uning otasi Mavlono Koshifiyning "Bayhaqiy" nisbasini bergan, ammo keyinchalik bu xatoni tuzatgan ko'rinadi.

Muqaddima avvalidagi *Chunin go'yad haqiy faqiy Ibn Husayn Aliy as-Safiy al-mushtahar bi-l-Koshifiy* jumlasini eslatadi. Chunki uning barcha asarlari mana shunday bir xil uslubda, ya'ni *Chunin mego'yad...* deb boshlanganligi bilan diqqatimizni tortadi.

Asar ushbu jumlar bilan tamomlangan:

---والله جامع الشمّل و يتم النور و اليه تصوير الامور وقع الفراغ من تسويده فى تاريخ  
شهر محرّم الحرام سنة 1234 من الهجرة النبوية

Keyin chap tarafda qizil rangda quyidagilar qiyalatib yozilgan:

حرره العبد الذليل الحقير الفقير المحتاج لرب الرحمان محمد بن علي عسكرى

الكازرونى سنه الف مائتين ثلثون اربع

Asarning Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida № 460 inv. raqam ostida saqlanayotgan yana bir nusxasi mavjud bo'lib, mazkur qo'lyozma hijriy 1305-yili ko'chirilgan, 21,5x26,6 sm hajmda. Jami – 127 varaq (254 sahifa). Kotibi noma'lum. Qo'lyozma o'tgan asr boshlarida yurtimizda “o'ris qog'ozi” nomi bilan tanilgan zamonaviy qog'ozga chiroyli nasta'liqda bitilgan.

Asar (basmaladan keyin) shunday boshlangan:

الحمد لله الذى بيد حكمته الاختيار و بقيضة قدرته اغته الاقتدار و الصلوة و السلام  
على رسوله و حبيبه محمد الامين المختار المبعوث باشارات دربك يخلق ما يشاء و يختار و  
السلام على آله الامجاد الاطهار و صحبه الاخيار ---اصحابى كالنجوم جنين كويد فقير حقير  
حسين بن على البيهقى المشتهر بالكاشفى ايده الله باللفظ الخفى كه جون بمدد دوستيارى رفيق  
توفيق -

Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida kartotekasida ham asar muallifi *Mavlono Husayn al-Vo'iz ibn Aliy al-Bayhaqiy al-mushtahar bi-l-Koshifiydir*. Qo'lyozmada asarning Mavlono Husayn Koshifiyga nisbat berilishi xato bo'lgan. Chunki Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning asarlari ro'yxatida bu asar yo'q.

Demak, mazkur nusxa ko'chirilayotgan payti kotib tomonidan asar muallifi nomi xato yozilgan yoki shunday xatolik mavjud bir qo'lyozmadan kitobat qilingan. Zero, Aliy Safiyga “Bayhaqiy”, “al-Bayhaqiy” nisbalarining berilishiga ham mana shu xatolik sabab bo'lgani aniq bo'lmoqda. Umuman olganda, mazkur asar haqiqatda kimga tegishli ekanligi borasida qat'iy xulosaga kelinmagani uchun ham yuqoridagi chalkashlik yuzagan kelgan. Bizning fikrimizcha, mazkur asar shu holatida Aliy Safiyga tegishli. Ammo asarning qadimiy qo'lyozmasi – muallif davrida kitobat qilingan nusxasi topilsagina, asarning qaysi Koshifiy qalamiga mansubligi aniq bo'ladi.

Mazkur nusxa ushbu jumlar bilan tamomlangan:

بعد از ايشان مراتب هر يكى را بحسب مرتبه ايشان اثرى بود هر چند مرتبه اعلى  
و اكمل باشد اختيار در حق وى اتم و اشمل بود والله جامع الشمس و منهم النور و اليه تصير  
---الامور

قد وقع الفراغ من تسويد النسخة الشريفة يوم

السبت 3 ذى الحجة الحرام سنة 1305 هجرى الف الف صلوة

Asarda, asosan, inson, uning qadr-qimmat, qobiliyatlari, fe'l-atvorlari xususida batafsil so'z yuritilgan. Muallif unda insonning ilm-u irfon, kasb-hunar, go'zal xulq bilan yuksak darajalarga yetishi va aksincha bo'lsa, qadrsiz bir jonzot holiga tushishi mumkinligi, ayanchli oqibatlariga giriftor bo'lishi kabi masalalarga keng to'xtagan.

Mazkur asar ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi ko'pgina

masalalarni o'rganishda qo'l kelishi bilan ham ahamiyatlidir.

7. "Manzumi Mahmud va Ayozi" ("Mahmud va Ayozi haqida she'riy doston").

8. "Asrori Qosimiy". Bu ikki asar – "Manzumi Mahmud va Ayozi" hamda "Asrori Qosimiy" asarlarining nainki Shida va umuman, Toshkent qo'lyozma fondlarida hozircha qo'lyozma nusxasi, shuningdek, toshbosma va litografik nashrlari ham topilmadi. Eronlik tadqiqotchi A. G. Ma'oni "Manzumi Mahmud va Ayozi" hamda "Asrori Qosimiy" haqida ma'lumot berar ekan, bu ikki asar forsiy tilida yozilganligi, hatto "Manzumi Mahmud va Ayozi" asarning litografik nashri mavjud ekanligini ta'kidlaydi [Сафий 1953, 8].

Ba'zi nashrlarda Faxruddin Aliy Safiy Imom Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhvardiyning (vaf. 1234 y.) عيون الحقايق و إيضاح الطرائق "Uyunul-haqoyiq va izoh ut-taroyiq" ("Haqiqatlar bulog'i va tariqatlar izohi") asarini arabchadan forsiy tiliga tarjima qilgani aytilgan [Ўрта аср Шарқ алломалари энциклопедияси 2016, 353-354]. Afsuski, bu asarning ham O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida va umuman, Toshkent qo'lyozma fondlarida birorta ham qo'lyozma nusxasi, shuningdek, toshbosma va litografik nashri ham topilmadi.

Aliy Safiy asarlarining Eron nashrlarini o'sha asarlar qo'lyozmalari bilan o'zaro qiyoslaganimizda, shu narsaga qat'iy amin bo'ldikki, ijodkor asarlari Toshkent qo'lyozma nusxalari qadimiyligi, matnlarining to'liq ekani bilan zamonaviy ilmiy nashrlardan farq qiladi. Litografik va toshbosma nashrlarning ham ko'p joylarida chalkashliklar uchraydi. Aliy Safiy asarlari Toshkent qo'lyozma nusxalari mana shu jihatdan g'oyat katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Faxruddin Aliy Safiy o'zidan boy ilmiy-adabiy meros qoldirgan. Uning asarlari o'ziga xos uslubda, mahorat bilan yozilganligi bois asarlarining yuzlab qo'lyozma holda kitobat qilinib, bizgacha yetib kelganligi so'zimizning yaqqol dalilidir. Ijodkorning e'tiqodiy, axloqiy, tasavvufiy-irfoniy qarashlari chuqur aks etgan merosini chuqur tadqiq etgan holda ilm-u ma'rifatga chanqoq xalqimizga yetkazish galdagi muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

### Adabiyotlar

Алишер Навоий. 1963. *Хазойинул-маоний. Фаройибус-сиғар*. 15 томлик.

1-том. Нашрга тайёрловчи Х. Сулаймон. Тошкент.

Алий Сафий. 2014. "Одоб ул-асҳоб"дан". *Аждодларимиз маънавий меросидан*. 89–103. Масъул муҳаррир О.Бўриев. Тошкент:

Фан.

<http://cheloveknauka.com/rashahotu-aynilhaet>.

لطائف الطوائف تأليف: مولانا فخر الدين على صفى (متوفى بسال 939)

با مقدمه و تصحيح و تحشيه و تراجم اعلام بسعى و اهتمام احمد كلجين معانى از انتشارات اقبال تهران،

آذرماه 1336، 424 ص، فهرست لطائف الطوائف: صص-462 – 325

Мавлоно Фахруддин Алий Сафий. 1373/1953. *Латойиџ ат-тавойиџ*.

Техрон.

Мухаммед Садык-и Кашгари. 1992. *Кодекс приличий на Востоке* (Адаб ул-салихын). Тошкент: Камалак.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №11726. 79<sup>a</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №9423. 1<sup>б</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №.11726. 1<sup>б</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №8312. 60<sup>б</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №8312. 119<sup>б</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №460. 1<sup>б</sup>-2<sup>a</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №460. 126<sup>б</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №3636/1. – Б. 1<sup>б</sup>-2<sup>a</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №3636/1. 118<sup>б</sup>-119<sup>a</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №3636/1. 1<sup>б</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №3655. 220<sup>б</sup>.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. №1023. 140<sup>a</sup>-140<sup>б</sup>.

СВР – *Собрание восточных рукописей*. 1960. Т.5. Тошкент: Фан.

*Ўрта аср Шарқ алломалари энциклопедияси*. 2016. Самарқанд.

## New manuscripts by Ali Safi Hiravi and works in the Tashkent Manuscripts Fund

Bahriddin Umurzoqov<sup>1</sup>

### Abstract

Today, when our national and spiritual values have been restored and the study of the masterpieces of our ancient manuscript heritage is given serious importance at the level of public policy, we have a deeper understanding of our ancient cultural heritage and national history, rooted in the distant past.

One of the master of words who made a great contribution to the development of world culture and science with his work was Fahriddin Ali Safi bin Husein Waiz Kashifi (d. 939/1539). His work is notable for covering various areas of secular and religious sciences. The works of Fakhriddin Ali Safi reflect the ideas of raising a person with high qualities through the scientific heritage of our ancestors, the advancement of young people to healthy thinking and pure morality through the foundations of our culture and religion.

This article provides information on two recently discovered new works of prose and one poem (gazelle) by Mavlian Fakhriddin Ali Safi Hirawi.

On the basis of the recently discovered this gazelle by Ali Safi, the rubai and poems in "Rashakhat", the researcher came to the firm conclusion that this artist could have had "Devon" (Collection of Gazelles). In his article, the researcher also examines in detail the manuscripts of Ali Safi's works in the Tashkent manuscript collections.

**Key words:** *manuscript, manuscripts, ghazal-i Ali Safi, "Sharh-i Masnavi", "Tukhfatu-l-muluk", faith, ethics, Sufism, irfan.*

### References

- Alisher Navoiy. 1963. *Xazoyinul-maoniy. G'aroyibus-sig'ar.* 15 tomlik. 1-tom. Nashrga tayyorlovchi H. Sulaymon. Toshkent.
- Aliy Safiy. 2014. "Odob ul-as'hob"dan". *Ajdodlarimiz ma'naviy merosidan.* 89–103. Mas'ul muharrir O.Bo'riev. Toshkent: Fan.

---

<sup>1</sup> Bahriddin S. Umurzoqov – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies.

**E-mail:** bahrumr\_nur@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-8870-156X

**For citation:** Umurzoqov, B. S. 2021. "New manuscripts by Ali Safi Hiravi and works in the Tashkent Manuscripts Fund". *Golden scripts* 3: 67–79.

<http://cheloveknauka.com/rashahotu-aynilhaet>.

لطائف الطوائف تأليف: مولانا فخرالدين على صفى (متوفى بسال 939)

با مقدمه و تصحيح و تحشيه و تراجم اعلام بسعى و اهتمام احمد كلجين معانى از انتشارات اقبال تهران،  
آذرماه 1336، 424 ص، فهرست لطائف الطوائف: صص-462 – 325

Mavlono Faxruddin Aliy Safiy. 1373/1953. *Latoyif at-tavoyif*. Tehron.

Muxammed Sadik-i Kashgari. 1992. *Kodeks prilichiy na Vostoke* (Adab ul-salixын). Toshkent: Kamalak.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №11726. 79<sup>a</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №9423. 1<sup>b</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №11726. 1<sup>b</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №8312. 60<sup>b</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №8312. 119<sup>b</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №460. 1<sup>b</sup>-2<sup>a</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №460. 126<sup>b</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №3636/1. – B. 1<sup>b</sup>-2<sup>a</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №3636/1. 118<sup>b</sup>-119<sup>a</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №3636/1. 1<sup>b</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №3655. 220<sup>b</sup>.

O'zR FA ShI. Qo'lyozma. №1023. 140<sup>a</sup>-140<sup>b</sup>.

SVR – *Sobranie vostochnix rukopisey*. 1960. T.5. Toshkent: Fan.

*O'rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi*. 2016. Samarqand.



## Muhsiniy she'riyati: asliyat va nashr qiyosi

Furqat To'xtamuratov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhiti vakili shoir Husaynquli Muhsiniy (1860–1917) lirik she'rlari matnshunoslik aspektida tadqiq qilingan. Shoirning “Gulshani jovid” devonining O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 7392-raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozmasi va “Barhayot gulshan” nomi bilan chop etilgan to'plamidagi she'rlari qiyoslab o'rganilgan. Natijada, shoirning o'zbek va fors-tojik tillarida bitilgan 239 ta g'azal yozganligi aniqlandi. Ulardan 211tasi o'zbek tilida, 28tasi fors-tojik tilida. “Barhayot gulshan” nashriga esa 136ta o'zbekcha g'azal kiritilgan. 7392-raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozmada mavjud 75 ta g'azal devon nashridan tushirib qoldirilganligi aniqlangan.

Muhsiniy devoni qo'lyozmasini joriy imlodagi nashri bilan qiyosiy o'rganish natijasida aniqlangan farqlar ilmiy tasnif etilgan va tahlil qilingan. Qiyosiy tahlillar natijasida Muhsiniy devonining mukammal nashrlarini tayyorlash matnshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** *matn, devon, qo'lyozma manba, asliyat, tabdil, g'azal, maqta', bayt, band, nashr nusxa, qiyosiy tahlil.*

### Kirish

Qo'qon adabiy muhiti o'ziga xos taraqqiyot tamoyillariga ega. Amiriy, Nodira, Muhyi, Muhayyir, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ushbu adabiy muhitning salohiyatli namoyandalari sermazmun va betakror lirik asarlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Davr adabiy harakatiga o'zining betakror ijod namunalari bilan ta'sir etgan ana shunday ijodkorlardan biri – Husaynquli Sulaymonquli o'g'li Muhsiniy (1860–1917) mashhur shoir va

---

<sup>1</sup> To'xtamuratov Furqat Safarmurodovich – o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** toxtamuratov81@gmail

**ORCID ID:** 0000-0001-9855-2353

**Iqtibos uchun:** To'xtamuratov, F. S. 2021. “Muhsiniy she'riyati: asliyat va nashr qiyosi”. *Oltin bitiglar* 3: 80–94.

mohir xattot sifatida o'zidan boy adabiy meros qoldirdi. Shoir lirik asarlari, ayrim ilmiy ishlarni istisno etganda, matnshunoslik nuqtayi nazaridan to'liq tadqiq etilgani yo'q. Ijodkorning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni munosib baholangan emas. Bu esa, o'z navbatida, shoir devonining qo'lyozma manbalari ustida tizimli tadqiqot ishlari olib borish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Shoir asarlari matni tarixini o'rganish ushbu ilmiy muammo yechimiga xizmat qilishi jihatidan ahamiyatlidir.

Matnshunoslikning asosiy muammolaridan hisoblangan matn tarixini o'rganmay turib, ijodkor asarlarining mukammal nashrini amalga oshirib bo'lmaydi. "*Matn tarixi*" tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini qamrab olishi" [Лихачев 2001, 33], e'tiborga olinsa, bu muammoni o'rganish nechog'liq zarur ekanligi yanada oydinlashadi. O'zbek matnshunosligida ham bu masalaga alohida diqqat qaratilgan. Matnshunos N.Jabborov fikricha: "...matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi" [Jabborov 2019, 12]. Ushbu nazariy fikrni Muhsiniy ijodini o'rganishga tatbiq etish uchun shoirning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 7392-raqami ostida saqlanayotgan "Gulshani jovid" nomli she'rlar devoni hamda uning 2008-yili Qo'qon adabiyot muzeyi xodimi Usmonjon Ne'matov tomonidan "Barhayot gulshan" nomi bilan chop ettirilgan nashr nusxasini qiyosiy o'rganish zarurati tug'iladi.

Ta'kidlash kerakki, ushbu nashr zahmatkash olimning uzoq yillik mehnatlari mahsulidir. Matnshunos A.Turdialiyev devon nashriga yozgan "Adabiy merosimizdan yana bir sahifa" sarlavhali so'zboshida Muhsiniy devoni haqida tahliliy fikrlarini bildirgan. Usmonjon Ne'matov nashrga yozgan kirish maqolasida Muhsiniy hayoti va ijodi, devonlari, tarjima asarlari hamda shoirning xattotlik mahoratiga doir qimmatli ma'lumotlarni kel-tiradi. Ular shoir hayot yo'li va uning adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitganligi bilan qimmatlidir. "Barhayot gulshan"dagi lirik asarlar qo'lyozma dastxat devondagi kabi asliyat tartibida nashr qilinishi shoir uslubi saqlanganini ko'rsatadi. Ushbu nashr Husaynquli Muhsiniy she'riyatini ilm-fan ahli hamda keng kitobxonlar ommasiga ma'lum qildi, shoir adabiy merosini tadqiq qilish imkoniyatlarini

yanada kengaytirdi.

Muhsiniy devonining Sharqshunoslik institutidagi qo'lyozma manbalarini o'rganish natijasida shoirning yetmishdan ortiq g'azallari devon nashriga kirmay qolgani aniqlandi. Jumladan, fondagi 7392-raqamli qo'lyozmada Muhsiniyning o'zbek va fors-tojik tilida yozilgan 239 ta g'azali mavjud. G'azallarning 211 tasi o'zbek va 28tasi fors-tojik tilida. "Barhayot gulshan" nashriga esa shoirning 136 ta o'zbekcha g'azali kiritilgan. Ma'lum bo'ladiki, 75 ta g'azal nashrga kiritilmagan. Qo'lyozmadagi she'rlar tartibi nashrda ham saqlangan. Usmonjon Ne'matov devonga yozgan kirish maqolada 7392-raqamdagi qo'lyozmada 7378 misra she'r borligini qayd qilgan. Kuzatishlar natijasida devonda noshir aytganidan ko'proq, ya'ni 7426 misra she'r mavjudligi aniqlandi.

Shoir ijodini ommalashtirish yo'lidagi dastlabki muhim ish sifatida ushbu nashrning qimmatini baland ekanligini ta'kidlagan holda, asliyat bilan qiyoslaganda, ayrim she'rlar matnida tafovutlar borligini ham qayd etish lozim. Ba'zi she'rlar tarkibidagi so'zlar xato o'qilgani, ayrim g'azallarning baytlari tushirib qoldirilgani kuzatiladi. Professor Shuhrat Sirojiddinovning "Matn tarixini o'rganish qo'lyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi. Matnlar **to'liq, nuqsonli, tuzatilgan** (redaksiyaga uchragan) yoki **tugatilmagan** ko'rinishlarda uchraydi. Qo'lyozma nusxalarda uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanadi" [Sirojiddinov 2019, 18], degan fikrlari nuqtayi nazaridan baho berilsa, Muhsiniy devoni nashridagi aksar lirik asarlar nuqsonli matnlar sirasiga kirishini ta'kidlash kerak. Bu matniy nuqsonlarni shoir she'rlarining asliyat nusxasi va joriy imlodagi nashr variantini qiyoslash orqaligina tuzatish mumkin. Asliyat va tabdil matnlarni qiyoslash asnosida aniqlangan farqlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- harf va qo'shimchalarning yozilishidagi tafovutlar;
- so'zlarning o'qilishidagi farqlar;
- g'azallardagi baytlarning tushirib qoldirilishi;
- she'r bandlarining qisqartirilishi.

### **Harf va qo'shimchalarning yozilishidagi tafovutlar**

Muhsiniy devoni nashriga she'riy asarlarda qo'llangan so'zlar tarkibidagi kelishik, egalik va boshqa qo'shimchalar hozirgi o'zbek adabiy tiliga moslashtirib kiritilgan. Bu esa Muhsiniy davridagi klassik she'riyat tili va ohangining yo'qolishiga olib kelgan. Shu sababli so'zlar tarkibidagi qo'shimchalar asliyatdagidek yozilishi

maqsadga muvofiqdir.

Quyidagi jadvalda mazkur farqlar qo'lyozma manbaga qiyoslangan holda ko'rsatildi:

<b>Nashrda</b>	<b>Qo'lyozmada</b>
hamdinga	<i>hamdingg'a</i>
hukmingdadurlar	<i>hukmingg'adurlar</i>
bo'ldi	<i>o'ldi</i>
ko'rguzdi	<i>ko'rguzsa</i>
bo'lg'ay	<i>o'lg'ay</i>
uttim	<i>etdim</i>
to'kkali	<i>to'kg'ali,</i>
o'qig'a	<i>o'qina</i>
tortqon	<i>tortg'ay</i>
tutqoy	<i>tutg'oy</i>
etmoqlik	<i>etmaklig'</i>
erur	<i>o'lur</i>
mulkina	<i>mulkida</i>
istagay	<i>istag'ay</i>
behbudlikda	<i>behbudlig'la</i>
jahonda	<i>jahondin</i>
o'lg'aymu	<i>bo'lg'aymu</i>
bo'lmasdin	<i>bo'lmayin</i>
etmoqqa	<i>etmakg'a</i>
ruhingda	<i>ruyingda</i>
g'amlarga	<i>g'amlarg'a</i>
turg'ali	<i>turmoqa</i>
maqamlari	<i>maqdamlarini</i>
to'madin	<i>ta'madin</i>
ramaqqa	<i>ramaqq'a</i>
ko'ngulga	<i>ko'ngulg'a</i>
g'amim	<i>g'aming</i>
ko'zga	<i>ko'zg'a</i>
so'zonlig'	<i>so'zonliq</i>
pushaymonlig'	<i>pushaymonliq</i>
boshida	<i>boshimda</i>
hasratingdin	<i>hasratingla</i>
meni	<i>menga</i>
baho	<i>baqo</i>

Nashrda qo'lyozmadagi *o-a* harflari, jarangli va jarangsiz undoshlar o'rtasidagi *d-t, q-g'* harflari o'zgartirib yozilgan. Bundan tashqari, *ga - g'a, kali - g'ali, g'a - na, qon - g'ay, qoy - g'oy, lik - lig', na - da, gay - g'ay, lik - lig', qa - g'a, g'ali - moqa, im - ing, lig' - liq* kabi qo'shimchalar ham **farqli shaklda** qo'llangan. Ushbu tafovutlar so'z ma'nosining o'zgarishi va o'zgacha mazmun ifoda etishiga olib kelgan.

### So'zlarning o'qilishidagi farqlar

Nashrdagi she'rlar tarkibida keluvchi ayrim so'zlar qo'lyozma manbadan farqlanadi. So'zlarning xato tabdil etilishi she'r mazmunining o'zgarishiga olib kelgan. Natijada, ayrim baytlardagi fikrlar g'aliz va tushunarsiz bo'lib qolgan. Masalan, nashr nusxada "o'lmag'il" radifli 11 baytli g'azalning 4-5-baytlaridagi **o'ldururkim** so'zi - *sindururkim, tama'* so'zi *tammoyi* tarzida noto'g'ri tabdil qilingan. Bu hol bayt mazmuni o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan. Jumladan, mazkur g'azalning 4-bayti nashrda quyidagicha berilgan:

*Zinda ko'ngling **sindururkim** ag'niyolar suhbatl,*  
*Faqr eli birla yurib, boylar gadoyi o'lmag'il*  
 [Muhsiniy 2008, 65].

Qo'lyozmada:

زنده كونكلو نك او لدورور كم اغنيا لار سهپتى  
 فقر ايلي برلان يوروب با ييلار كدای اولمغل  
*Zinda ko'nglung **o'ldururkim** ag'niyolar suhbatl,*  
*Faqr eli birla yurib, boylar gadoyi o'lmag'il*  
 [Muhsiniy 55<sup>b</sup>].

Nashr nusxada yo'l qo'yilgan xatolik bois "zinda" va "o'ldururkim" so'zlari hosil qilgan tazod yo'qolib qolgan. Natijada nafaqat matn mazmuniga, balki g'azal badiiyatiga ham putur yetgan.

Mazkur g'azalning 5-bayti nashrda quyidagicha tabdil etilgan:

*Har ne maqsudingni sen Olloh fazlidan tila,*  
*Qadringni kam qilmag'il, **tamomoyi** boyi o'lmag'il*  
 [Muhsiniy 2008, 65].

Qo'lyozmada:

هرنه مقصودينكى سن اللاه فضلدين تلا  
 قدرينكى كم قلماغل طماع باى اولمغل  
*Har ne maqsudingni sen Olloh fazlidan tila,*  
*Qadringi kam qilmag'il, **tama'** boyi o'lmag'il*

[Muhsiniy 55<sup>b</sup>].

Bayt mazmuni: *Har qanday maqsadingni sen Ollohdan tila, Qadringni kam qilib, tama qiluvchi boylardan bo'lmagin.* Nashr nusxada *qadringi* so'zi *qadringni* tarzida "n" harfi orttirib yozilishi natijasida vazn saktaligi yuzaga kelgan. *Tama'* so'zi *tamomoy* tarzida tabdil etilishi oqibatida baytdan anglashiladigan ma'no mavhumlashgan.

"Barhayot gulshan" devonida ishqiy mavzudagi 11 baytli g'azal qo'lyozmasining 5-baytidagi **so'zing** kalimasi nashrda **labing** shaklida berilgan bo'lsa, 10-baytida **xunobalar** so'zi **devonalar** ko'rinishini olgan. Nashrda:

*To'tiyi jonimni yoquti erur shakkar labing,*

*So'zlag'il, jonimg'a rohat o'ldi, ey, shirinmaqol* [Muhsiniy 2008, 65<sup>b</sup>].

Qo'lyozmada:

طوطى جانمنى ياقوتى ايروور شکر سوزنک

سوزلغیل جانیمغه راحت اولدی ای شرین مقال

*To'tiyi jonimni yoquti erur shakkar so'zing,*

*So'zlag'il, jonimg'a rohat o'ldi, ey, shirinmaqol*

[Muhsiniy 56<sup>a</sup>].

Matndan anglashiladigan mantiq ham tahrir etilgan so'zning qo'lyozmadagi kabi "so'zing" shaklida bo'lishini taqozo etadi. Ikkinchi misradagi "so'zlag'il" fe'li ham o'zidan oldin "so'zing" kalimasi kelishini taqozo qiladi. Qo'lyozmadagi shakl badiiy mantiqqa ham har jihatdan muvofiq ekanini ta'kidlash kerak.

Ushbu g'azalning 10-baytida xato tabdil qilingan so'z ma'noga jiddiy putur yetkazgan. Nashrda ushbu bayt mana bu tarzda berilgan:

*Bir guli ra'no firoqi yig'latur devonalar,*

*Chehrai zardim uza har dam to'kubmen ashki ol*

[Muhsiniy 2008, 66<sup>b</sup>].

Qo'lyozmada yuqoridagi bayt quyidagi shaklda kitobat qilingan:

برکلی رعنا فراقی یغلالتور خونابه لار

چهره زاردیم اوزه هر دم توکوب مین اشک ال

*Bir guli ra'no firoqi yig'latur xunobalar,*

*Chehrai zardim uza har dam to'kub men ashki ol*

[Muhsiniy 56<sup>a</sup>].

Bamisoli guli ra'nodek yordan ayriliq devonalarcha yig'latishi ham badiiy mantiqqa zid emas. Lekin "xunobalar" so'zi lirik qahramonning *ashki ol* to'kishi bilan ham mantiqiy bog'lanib, poetik mazmunning ta'sir kuchini bir necha barobar oshirib yuboradi. "Xunobalar"dagi "lar" qo'shimchasi "qon yig'lash" kechinmasining muttasil davom etishini ta'sirli ifodalashga xizmat qilgan. Ma'lum bo'ladiki, matndagi xatoning tuzatilishi she'r badiiyatining ham mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

"Barhayot gulshan"da 7 baytli muvashshah g'azal matla'si quyidagicha berilgan:

*Yuzingni tal'ati ortiqchadur **nuri** qamardan ham,  
Seningdek bormukin olam aro jinsi bashardan ham*  
[Muhsiniy 2008, 67<sup>b</sup>].

Qo'lyozmada ushbu bayt quyidagicha kitobat etilgan:

يوزينكنى طلعتى ارتوقچه دورشمسى قمر دنهم  
سينينكديك بارموكين عالم ارا جنس بشر دنهم  
*Yuzingni tal'ati ortiqchadur **shamsu** qamardan ham,  
Seningdek bormukin olam aro jinsi bashardan ham*  
[Muhsiniy 56<sup>b</sup>].

Nashr nusxaning birinchi misrasidagi *nuri* so'zi qo'lyozmada *shamsu* tarzida yozilgan. Zohiran, *nuri qamar* birikmasi ham badiiy mantiqqa zid emas. Lekin asliyatdagi kabi *shamsu qamar* tarzida o'qilganda, obrazli tafakkur teranlashgani, badiiy talqin mohiyatan kuchaygani yaqqol seziladi. Shu jihatdan, asliyat matni tiklanishi shoir ijodiy niyati to'laqonli ifodalanishini ta'minlaydi. Muallifning so'z qo'llash, obraz yaratish mahorati mukammalroq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Muhsiniy she'rlari tarkibidagi ayrim so'zlar asliyatdan noto'g'ri tabdil qilingan. Nashrga kiritilgan she'rlar tarkibida xato o'qilgan so'zlarning 7392-raqamdagi qo'lyozmada yozilish shakli quyidagi jadvalda berildi:

Nashr nusxada	Qo'lyozmada
afsona	<i>hangoma</i>
jahon	<i>zamon</i>
turub	<i>burun</i>
baxting	<i>islom</i>
nomi	<i>komi</i>
bemoringni	<i>xumoringni</i>

ko'ksumni	<i>ko'nglimi</i>
tiyri	<i>yuz</i>
birla	<i>uzra</i>
o'tub	<i>o'lub</i>
injilo	<i>ravshano</i>
ikki	<i>egma</i>
erur	<i>afruz</i>
bir	<i>har</i>
anjaq	<i>injiq</i>
bu	<i>bir</i>
gulu	<i>niholu</i>
husru	<i>harne</i>
tushub	<i>to'lub</i>
uzra	<i>ichra</i>
ayb	<i>ta'na</i>
nigahbori	<i>anga bori</i>
qilma	<i>etmay</i>
ayla	<i>ila</i>
anga	<i>ingan</i>
bo'lg'ay	<i>ungay</i>
bo'ylar	<i>tunlar</i>
labing	<i>so'zing</i>
etsalar	<i>aylasa</i>
davroni	<i>arbob</i>
tobishidin	<i>boshdin</i>
bo'ston	<i>guliston</i>
uza	<i>aro</i>
jonlar	<i>jonim</i>
osub	<i>solib</i>
tanin	<i>qastin</i>
ahli	<i>xalqi</i>
ichra	<i>birla</i>
ko'zum	<i>ko'zni</i>
birla	<i>uzra</i>
dardi	<i>so'zi</i>
kunduz	<i>kunlar</i>
sahfai	<i>mus'haf</i>

### **G'azallardagi baytlarning tushirib qoldirilishi**

Muhsiniy she'rlari jamlangan "Barhayot gulshan" devoni nashri bilan 7392-raqamli qo'lyozmani qiyosiy o'rganish natijalari



ba'zi g'azallarning maqta'si va ayrim boshqa baytlari tushirib qoldirilganini ko'rsatadi.

Masalan, *Topmadim olamda holim bilguchi ahli ramuz, / Shul sababdin kechalar orom yo'q, bexob ko'z*" matla'li g'azal nashr nusxada 10 bayt shaklida berilgan. 7392-raqamdagi qo'lyozma devonda esa 11 bayt bo'lib, 10-bayt nashrdan tushirib qoldirilgan. Mana, o'sha bayt:

اصلزاده نسبتدین قالمدی فرغانهده

قالغانی قیرغز قیچاق تاجیک منغت یوز

*Aslzoda nisbatidin qolmadi Farg'onada,*

*Qolg'oni qirg'iz-u qipchoq, tojik-u mang'it-u yuz*

[Muhsiniy 35<sup>a</sup>].

Ushbu g'azalda umrni behuda o'tkazish, havoi nafsga qullik, shariatni zalilu poymol etish, jaholat va qabohat singari shaxsni kamolotdan, jamiyatni taraqqiydan to'suvchi nuqsonlar qattiq tanqid qilinadi. Bu hol, o'z navbatida, yurtning mustamlaka girdobiga tushishiga sabab bo'lgani g'azalning quyidagi baytida ta'sirchan ifodalangan:

*Ketmasa insof eldin, kelmag'aydi yurtg'a,*

*Rus qavmikim, sarig' ruxsorayu feruza ko'z.*

[Muhsiniy 2008, 36b].

G'azal janriga oid she'rlar matnida aksar hollarda shoirning lirik kechinmasi bilan bir vaqtda ijtimoiy voqelik ham badiiy talqin etiladi. Matnda o'zgartirish va tahrirlar ba'zan ijodkorning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Matnshunos Nafas Shodmonovning yozishicha: "...matn muallifi harakatdagi voqelikni aks ettirar ekan, muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechiradi. Shu jarayonda u obyektiv va subyektiv sabablar ta'sirida matnning ayrim o'rinlariga munosabatini o'zgartirishi va ularga turli hajmlardagi tuzatishlar kiritishi mumkin. Bunday tuzatish va o'zgartirishlar matnning material, yaratilishi, shakllanishi, qurilishi va hokazo tarixiy, badiiy, g'oyaviy hamda uslubiy jihatlarini o'rganishga asos bo'ladi" [Шодмонов 2009, 22].

Shuningdek, ijtimoiy mavzudagi 11 baytli g'azalning maqta'si nashrda aks etmagan. Ushbu g'azal maqta'si asliyatda quyidagicha berilgan:

محسنی کچه قرانغوسی ایرور حامله دار

توغادور صیح وسعا دت انکا اولمه مایوس

*Muhsiniy kecha qorong'usi erur homilador,*

*Tug'odur subhi sa'odat anga o'lma ma'yus*

[Muhsiniy 36<sup>b</sup>]

G'azal maqta'i shoir ijodiy niyatining xulosasini ifodalayotgani bilan ajralib turadi. Maqta'ning tushirib qoldirilishi she'r matnining mantiqiy jihatdan yakunlanmay qolishiga sabab bo'lgan. Natijada, shoirning g'oyaviy maqsadi, izhor etmoqchi bo'lgan fikri kitobxon nazaridan chetda qolgan. She'rda Vatan va xalq boshiga tushgan qora kunlardan shikoyat ohangi ustuvorlik qiladi. Shoir mustamlakachilik siyosatini kecha qorong'isiga o'xshatsa, *subhi saodat* – baxt tongini erk va ozodlikka qiyoslaydi. Ya'ni, *zulm kechasi qorong'i bo'lsa ham u ozodlikka, hurlikka homilador. Ey Muhsiniy, shu bois sen g'amdan ma'yus bo'lma, yurtning ozodlikka erishish kunlari yaqindir* mazmuni baytda betakror badiiy ifoda bo'lib keladi. Darhaqiqat, kecha qanchalik qorong'u bo'lmasin, undan keyin yorug' tong keladi. Tuning subhi saodatga homilador bo'lishi – o'zga biror shoirda uchramaydigan ohorli tashbeh! Ko'rinadiki, shoir boshqa ko'plab zamondoshlari singari millat, el-yurt dardi bilan yashagan, uning erk va ozodlikka erishmog'ini orzu qilgan.

Devon nashrida “*Kog'oz*” radifli g'azal 9 baytli qilib berilgan. Ammo asliyat bilan qiyoslanganda, jami 11 baytdan tarkib topgani ayon bo'ladi. G'azalning 5-7-baytlari nashr nusxadan tushirib qoldirilgan. Jumladan, 5-bayt mazmuni quyidagicha:

کلکی شمشیر نی فتحید ہ ایروور هرکشور

آچلور دستى ايله جمله بر آيا كاغذ

*Kilki shamshirini fathida erur har kishvar,*

*Ochilur dasti ila jumla barr, oyo kog'az*

[Muhsiniy 26<sup>b</sup>].

Mazkur g'azalning 7-bayti ham nashr nusxadagi matnda mavjud emas. Ushbu bayt qo'lyozmada quyidagi tarzda keladi:

اول نهنگی کیم ایروورقارنیغه تارتار آسیا

آله قلاب نفس اچره قیلورجا كاغذ

*Ul nahangikim erur qornig'a tortar osiyo,*

*Olihi qullobi nafs ichra qilur jo kog'oz*

[Muhsiniy 26<sup>b</sup>].

Mazkur ikki baytning tushirib qoldirilishi natijasida g'azaldagi betakror obrazli tasvir xira tortib qolgan. Tashbeh va istoraga asoslangan poetik mazmun mavhumlashgan. Muallifning ijodiy niyati to'liq ifodalanmay qolgan. Tabiiyki, ularning tiklanishi g'azal matni mukammal bo'lishiga, badiiy talqinning mantiqiy izchilligi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Rus matnshunosi B.V.Tomashevskiyning fikricha: “Matn tarixi (bu tushuncha

anglatgan keng ma'noga ko'ra) adabiyot tarixi tadqiqotchisiga adabiy yodgorlikka oid zohiriy ma'lumotlarni emas, muallif laboratoriyasining botiniy jihatlarini kashf etish imkonini beradi" [Томашевский 1959, 148]. Ma'lum bo'ladiki, Muhsiniy lirik asarlarining matn tarixini o'rganish shoir ijod laboratoriyasi sirlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Ijodkorning "Qoshing mehrobi toqi sajdagohi jumla mu'mindur" satri bilan boshlanuvchi g'azali asliyatda 9 baytli bo'lgani holda, devonning nashr nusxasida 8 baytga aylantirilgan. Qo'lyozma manbada g'azalning 7-bayti quyidagicha kitobat qilingan:

آمانتگاه مضمون رمز ایروور صندوق سینمده  
 امین ایرماس کیم اول غار یتب ایتسه حرق خاین دور  
*Omonatgohi mazmuni ramz erur sanduqi siynamda,*  
*Amin ermaskim, ul oriyat etsa harfi xoyindur*

[Muhsiniy 30<sup>a</sup>].

Ushbu g'azalda mumtoz she'riyat uchun xos bo'lgan irfoniy mazmun badiiy talqin etilgan. Tabiiyki, ushbu baytning tushirib qoldirilishi g'azalning matniy yaxlitligiga putur yetkazgan va shoir ijodiy niyatini **noto'g'ri tushinishga** sabab bo'lgan.

Asliyatda 11 baytdan tarkib topgan "Soqiyo, may berki, tegdi ko'ngluma hushyorlig'" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning 5-bayti nashr nusxada mavjud emas. G'azal mohiyatini anglashda muhim bo'lgan ushbu bayt matni asliyatda shunday keladi:

توبه ایلابسیندور سین بولسه کلکشت بهار  
 یوقموناموسینگ سنی تاکیغچه بیعار لیغ  
*Tavba aylab sendursen bo'lsa gulgashiti bahor,*  
*Yo'qmu nomusing sani tokayg'acha beorlig'*

[Muhsiniy 45<sup>a</sup>].

Asliyatda mavjud baytlarning nashr nusxadan tushirib qoldirilishi matnning nuqsonli holga kelishiga sabab bo'lgan. Matn tarixini to'laqonli anglash imkoniyatini cheklagan.

### **She'r bandlarining qisqartirilishi**

Asliyat bilan qiyoslash natijasida devon nashrida Muhsiniy she'rlari bandlarining to'liq berilmaganlik holatlari ham kuzatiladi. Zoriy g'azaliga Muhsiniy muxammasining 4-bandi nashrga kiritilmay qolgani ushbu fikrni tasdiqlaydi. Qo'lyozma manbada yuqorida qayd qilingan muxammas hajmi besh banddan iboratligi ma'lum bo'ladi. Tushirib qoldirilgan band matni asliyatda quyidagicha:

آدم ديمانگيز اولمسه مهر محبتى  
اندين زياده اولدى بهايمنى صحبتى  
قىلمانگ انينگى تملينغه ذره رغبتى  
مين چكميشم الارقوليدىن كوب مصيبتىن  
چغز اولميشم كه قيدہ باروب آشياب قىلى

*Odam demangiz o'lmasa mehru-muhabbati,  
Andin ziyoda o'ldi bahoyimni suhbaty.  
Qilmang oning tamlig'ina zarra rag'baty,  
Men chekmisham alar qo'lidin ko'p musibaty,  
Chug'z o'lmishamki, qayda borib oshyon qilay*

[Muhsiniy 99<sup>a</sup>].

Shoirning odam va olam munosabati, hayot va e'tiqod haqidagi falsafiy qarashlari ifoda etilgan bu kabi satrlarning tushirib qoldirilgani nashr nusxadagi matnning nuqsonli ekanligini ko'rsatadi. Bu kabi nuqsonlarni tuzatish shoir asarlarining nisbatan mukammal matnlarini tiklash imkonini beradi. Chunki "...amaliy matnshunoslikning vazifasi testologik xatolardan xoli, muallifning dastxat varianti yoki shunga yaqin ishonchli ilmiy matnlarni tiklash muammolarini hal etishdan iboratdir" [Jabborov 2020, 51].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va tahlillardan xulosa qilish mumkinki, Muhsiniy lirik merosi jamlangan "Barhayot gulshan" devoniga kiritilgan she'rlarning asliyat asosidagi mukammal matnlarini tiklash zarur. Buning uchun, birinchidan, shoir devoni qo'lyozmalarini qiyoslab o'rganish, ikkinchidan, asliyat va tabdil nusxalardagi har bir she'rni so'zma-so'z, misrama-misra muqoyasa etish, uchinchidan, shu asosda xatolardan xoli, muallif variantiga muvofiq keluvchi yoki shunga yaqin matnlarni tayyorlash taqozo etiladi. Qiyosiy tahlillar kelajakda shoir asarlarining mukammal nashrlarini chop qilishga yo'l ochadi. Bu esa, o'z navbatida, Muhsiniy devonlari qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish, matniy tafovutlar va ularning kelib chiqish sabablarini tahlil etish, shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnini hamda uning asosida nisbatan mukammal nashrlarni tayyorlashni talab qiladi.

### Adabiyotlar

Жабборов, Н. 2019. "Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни". *Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишининг назарий ва манбавий асослари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари*, 12.

Тошкент: Mumtoz so`z.

- Жабборов, Н. “Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони”.  
*Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари: Республика илмий-амалий анжумани материаллари*, 51. Тошкент.
- Лихачев, Д.С. 2001. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва.  
*Текстология на материале русской литературы X – XVII веков*.  
Санкт-Петербург: Алетейя.
- Муҳсиний. 2008. *Девон. Барҳаёт гулшан*. Фарғона.
- Муҳсиний. ЎЗР ФА ШИ. Инв №7392.
- Муҳсиний. Ғафур Ғулом номидаги Фарғона вилоят Адабиёт музейи фонди. Қўлёзма. Инв 4303.
- Сирожиддинов, Ш. 2019. *Матншунослик сабоқлари*. Тошкент: Navoiy universiteti.
- Томашевский, Б.В. 1959. *Писатель и книга*. Очерк текстологии. Изд. 2-е, Москва.
- Шодмонов, Н. 2009. *Шоҳиду-л-иқбол – адабий манба*. Тошкент: Фан.
- Қайюмов, П. 2011. *Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти* (материаллар ва хотиралар). Тошкент: Tamaddun.

## Muhsini's Poetry: a Comparison of Originality and Publication

Furkat Tuxtamuratov<sup>1</sup>

### Abstract

In this article, the lyrical poems of the poet Huseinkuli Muhsiniy (1860-1917), a representative of the literary environment in Kokand are studied from the textual point of view. A comparative analysis of the poems of the poet's collection "Gulshani jovid" in the collection of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan 7392 digital manuscripts and published in collection "Barhayot gulshan". As a result, the poet wrote 239 ghazals in Uzbek and Persian-Tajik languages, 211 of them in Uzbek, 28 in Persian-Tajik, and 136 Uzbek ghazals in "Barhayot gulshan". The 7392 inventory is said to have been omitted from the 75 gazalle devon editionis identified in the digital manuscript.

With the current spelling edition of the Muhsiniy devoni manuscript there differences indentified as a result of comparative study, the scientific classifications analyzed. As a result of comparative analysis, it was concluded that the preparation of the perfect editions of Muhsiniy devoni is one of the urgent tasks before textual studies.

**Key words:** *text, devon, manuscript, source, originality, conversion, ghazal, praise, byte, busy, published, copy, comparative analysis.*

### References

- Jabborov, N. 2019. "O'zbek matnshunosligi va unda matn tanqidi, ilmiy-tanqidiy matn istilohlarining o'rni". *O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*, 12. Toshkent: Mumtoz so`z.
- Jabborov, N. "Matn tarixini o'rganish – ilmiy haqiqat mezoni". *O'zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari*, 51. Toshkent.
- Lixachev, D.S. 2001. Pri uchastie A.A. Alekseeva i A.G. Bobrova. *Tekstologiya na materiale russkoy literatury X – XVII vekov*. Sankt-Peterburg:

---

<sup>1</sup> *Furkat S. Tuxtamuratov* – teacher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** toxtamuradov81@gmail

**ORCID ID:** 0000-0001-9855-2353

**For citation:** Tuxtamuratov, F. S. 2021. "Muhsini's Poetry: a Comparison of Originality and Publication". *Golden scripts* 3: 80–94.

Aleteyya.

Muhsiniy. 2008. *Devon. Barhayot gulshan*. Farg'ona.

Muhsiniy. O'zR FA ShI. Inv №7392.

Muhsiniy. G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyi fondi.

Qo'lyozma. Inv 4303.

Sirojiddinov, Sh. 2019. *Matnshunoslik saboqlari*. Toshkent: Navoiy universiteti.

Tomashevskiy, B.V. 1959. *Pisatel i kniga*. Ocherk tekstologii. Izd. 2-ye, Moskva.

Shodmonov, N. 2009. *Shohidu-l-iqbol – adabiy manba*. Toshkent: Fan.

Qayyumov, P. 2011. *Xo'qand tarixi va uning adabiyoti* (materiallar va xotiralar). Toshkent: Tamaddun.

## Ahmad Tabibiyning turkiy tildagi ruboiylari

Shermuhammad Amonov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ahmad Tabibiy mumtoz ijodkorlar an'analarini davom ettirib, deyarli barcha janrlarda ijod qilgan. Hatto uning ijodida boshqa shoirlar ijodida kuzatilmaydigan o'ziga xos janr namunalari bor. Bu lirik asarlar, asosan, shoirning "Munisu-l-ushshoq" va "Hayrat ul-ushshoq" devonlarida jamlangan.

Ahmad Tabibiy asarlaridan ayrim namunalar o'tgan asrda chop ettirilgan. Ularning soni juda oz. Ta'kidlash lozimki, shoir lirik asarlari, umuman, uning butun boshli adabiy merosi tadqiq etilgani, ularning joriy imlodagi tabdillari amalga oshirilgani yo'q.

Ushbu maqolada Ahmad Tabibiyning turkiy tildagi ruboiylari manbalari, matni va ularning tabdili ilk bor berildi.

**Kalit so'zlar:** *Ahmad Tabibiy, shoir, devon, "Munisu-l-ushshoq", "Hayratu-l-oshiqin", janr, ruboiy, matn.*

### Kirish

Ahmad Tabibiy ijodida ruboiy alohida o'ringa ega. Chunki shoir devonlarida ruboiy janriga mansub asarlar salmoqli o'rinni egallaydi. Shuningdek, Tabibiy ruboiylari shoir adabiy-estetik qarashlarining eng mukammal shakllaridan hisoblanadi. Zero, shoir lirik merosining salmoqli qismi ruboiylar hissasiga to'g'ri keladi.

Ahmad Tabibiy lirik asarlari jamlangan shoirning turkiy devonlaridan biri – "Munisu-l-ushshoq"dir. Ushbu manbaning mukammal qo'lyozmalari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 3461, 6226, 8949-raqamlari bilan saqlanadi. Bundan tashqari, fondda shoirning turkiy tildagi lirik asarlari mavjud yana bir devoni bo'lib, bu 3460-raqamli qo'lyozma manbadir. Bu manba Tabibiyning

---

<sup>1</sup> Amonov Shermuhammad Normurotovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** amonov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-3962-1774

**Iqtibos uchun:** Amonov, Sh. N. 2021. "Ahmad Tabibiyning turkiy tildagi ruboiylari". *Oltin bitiglar* 3: 95–113.



“Hayratu-l-ushshoq” devonidir. Bundan tashqari, Ahmad Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan ko‘plab manbalarni fondda uchratish mumkin. Masalan, 654, 1122, 1123, 1124, 1148, 1159 kabi manbalar faqat Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan. Bundan tashqari, 20dan ortiq bayozlarda shoir lirik asarlaridan namunalari uchraydi. Ular shoirning ayrim asarlari jamlangani bilan yoki Tabibiy qalamiga mansub bir necha janrli lirik asarlardan namuna xarakteridagi manbalardir. Biroq yuqorida nomlari qayd etilgan manbalar (3461, 6226, 3460) shoir devonlarining to‘liq, mukammal nusxalari hisoblanadi. Shuningdek, fondda “Munisu-l-ushshoq” va “Hayratu-l-ushshoq” devoni jamlangan yana bir manba bo‘lib, u 8989-raqamli toshbosma manba hisoblanadi.

Ta’kidlanganidek, shoir “Munisu-l-ushshoq” devonining ikki qo‘lyozma nusxasi mavjud. Uning biri 3461 inventar, ikkinchisi esa 6226-raqami ostida saqlanadi. Ta’kidlash lozimki, bu ikki manba orasidan 6226-raqamlisi o‘ta tartibli, muqovalar unvonlangan holda, alohida jadvallar asosida, lirik asarlar qizil siyohda sarlavhalanib, chiroyli husnixat bilan ko‘chirilganidan, uni mukammal nusxa sifatida ko‘rsatish mumkin. Biroq bu ikki manba o‘zaro qiyosiy tahlil etilganda, ular orasida har jihatdan farqli xususiyatlar mavjudligi ayon bo‘ladi. Mulohazalarimiz shoir ruboiylari haqida bo‘lgani bois, boshqa masalalarga ortiqcha to‘xtalmasdan, e’tiborimizni ruboiylar haqidagi ma’lumotlarga qaratamiz. 6226-raqamli manbaning 233<sup>a</sup>-sahifasidan “ruboiyoti Tabibiy” (Tabibiy ruboiylari) boshlanadi. Bu manbadagi ruboiylarning soni 143 tani tashkil etadi. Aslida ushbu devondagi ruboiylar soni 144 tani tashkil etadi. Ya’ni 3461-raqamli qo‘lyozmadagi bir ruboiy devonning boshqa nusxalarida uchramaydi.

6226-raqamli manbadagi ruboiylar qizil siyohda raqamlangan bo‘lib, ular qo‘lyozmaning 245<sup>a</sup>-sahifasida tugaydi.

“Munisu-l-ushshoq” devonining 3460-raqamli nusxasida esa ruboiylar soni 202 tani tashkil etadi. Qo‘lyozmada 201 ta ruboiy raqamlangan holda ketma-ket keltiriladi. Bitta ruboiy hoshiyada ko‘chirilgani bois raqamlanmay ketilgan. Bu manbadagi ruboiylar soni 8989-raqamli toshbosma varianti bilan bir xil, ya’ni “Hayratu-l-ushshoq”ning toshbosma variantida ham 202 ta ruboiy raqamlangan holda bosilgan.

“Munisu-l-ushshoq” devonining 8989 inventar raqamli toshbosma variantini kuzatsak, unda ruboiylar soni 142 tani tashkil etadi. Ayon bo‘ladiki, ushbu toshbosma “Munisu-l-ushshoq” devonining 6226-raqamli nusxasi asosida bosilgan. Bu

esa 6226-raqamli manba devonning mukammal nusxasi degan yuqoridagi taxminimizni asoslaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, fondagi ayrim to'plamlar faqat Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan. Ana shunday qimmatli to'plamlardan biri fondagi 1122-raqamli bayozdir. Ushbu manbada shoirning qasida, munojot, g'azal, tuyuq, fard, chiston, qit'a, musaddas, musamman janrida yozilgan lirik asarlari qatorida Tabibiyning 102 ta ruboiysi kiritilgan. Ahamiyatlisi, ushbu ruboiylarning aksariyati, yuqorida nomlari qayd etilgan devonlarda uchramaydi.

Ahmad Tabibiy asarlaridan ayrim namunalar o'tgan asrda chop ettirilgan. Ularning adadi barmoq bilan sanarli darajada oz. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, Tabibiyning hozircha bizga ma'lum bo'lgan 400 ga yaqin turkiy tildagi ruboiylaridan 20 ga yaqini nashr etilgan [Табибий 1968].

Ta'kidlash lozimki, shoir lirik asarlari, umuman, uning butun boshli adabiy merosi tabdil etilgani yo'q. Zero, shoirdan boy adabiy meros yetib kelgan bo'lsa-da, ilmiy jamoatchilik undan bebahra qolayotir. Yuqorida ta'kidlanganidek, shoir ijodida ruboiylar salmoqli o'rin egallaydi. Quyida "Munis ul-ushshoq" devonidagi ruboiylarning asliyat va tabdilidan namunalar keltirdik.

رباعیات طبیی  
Ruboiyoti Tabibiy

(1)

حمد اولسون انگاکى بار قدیر یکتا  
قیلدی اکی حرفدین جهاننی پیدا  
نی اوشبو کهانکی اون سکز مینگ عالم  
بیل دوزخ جنت انس جن ارض سما

*Hamd o'lsun ongaki bor qodiri yakto,  
Qildi ikki harfdin jahonni paydo,  
Ne ushbu jahonki o'n sakkiz ming olam,  
Bil do'zaxi jannat, insu jin, arzi samo.*

(2)

حمد اولسون انگاکى لایق ارض سما  
اولغى نی ممنونی ایروور شاه گدا  
بیر کیمسگا دهر ایچرا قیلیب حسن عطا  
بیر کیمسنی قیلدی انگا زار شیدا

*Hamd o'lsun ongaki loyiq arzi samo,  
O'lg'ay ne mamnuni erur shohi gado,  
Bir kimsaga dahr ichra qilib husn ato,  
Bir kimsani qildi anga zori shaydo.*

(3)

حمدینگغه تیلیمنی دایم ایتهکیل گویا  
شکرینگغه دلیمنی مایل ایت صنع مسا  
صبریمنی فزون ایله بیروور چاغی بلا  
تقدیرینگا حاصل ایت ضمیریمدا رضا

*Hamdingg'a tilimni doim etgil go'yo,  
Shukringg'a dilimni moyil et subhi maso,  
Sabrimni fuzun ayla berur chog'i balo,  
Taqdiringa hosil et, zamirimda rizo.*

(4)

درداکی س پهروور دن قیلیب جور جفا  
اولشوخن ایتی من محزوننی صبا  
بو نوعکی دایم چکارام رنج و عنا  
خلق ایلاماگای ایردی منی کاش خدا

*Dardoki, sipehri dun qilib javri jafo,  
Ul sho'xdin itti man mahzunni sabo,  
Bu nav'ki, doim chekaram ranju ano,  
Xalq aylamagay erdi mani kosh Xudo.*

(5)

تا قیلدی عتاب قهر جانانه منگا  
درد اولدی انیس غصّه همخانه منگا  
قیلغاندا نظر حال پریشانیم نی  
تانگ قالغوسیدور عاقل دیوانه منگا

*To qildi itobu qahr jonona manga,  
Dard o'ldi anisu g'ussai hamxona manga,  
Qilg'onda nazar holi parishonim ne,  
Tong qolg'usidur oqilu devona manga.*

(6)

کیل بیر کچه رحم ایلابان ای یار منگا  
کیم فرقتینگ اجرا کوب آزار منگا  
لعلینگ هوسیدین اولگالی یتمیشمن  
احسان آنی بیر یول ایله زینهار منگا

*Kel bir kecha rahm aylabon ey yor mango,  
Kim furqating ichra ko'b ozor mango,  
La'ling havasidin o'lgali yetmishmen,  
Ehson oni bir yo'l ayla zinhor mango.*

(7)

تاکی اوتورای عمر پریشانلیغدا  
دیلدار جمال ساری حیرانلیغدا  
حجران غم رنج بیرله گریانلیغدا  
محزون غمگین حم بغرقانلیغدا

*Tokay o'tur-ey umr, parishonlig'da,  
Dildor jamoli sori hayronlig'da,  
Hijron g'ami ranji birla giryonlig'da,  
Mahzunu g'amgin ham bag'riqonlig'da.*

(8)

فریادکی چرخ کوب جفا قیلدی منگا  
دلدار نه بیر لحظه وفا قیلدی منگا

القسه بويكى محنت غم اجرا  
جان ايله دلفگار يا قيلدى منگا

*Faryodki, charx ko'b jafu qildi manga,  
Dildor na bir lahza vafo qildi manga,  
Alqissa bu iki mehnati g'am ichra,  
Jon ila dilfigor yo qildi manga.*

(9)

كىلدى همول آشوب جهان بزميم ارا  
حسنيني بو تون قيلدى عيان بزميم ارا  
آداب ايله اظهار تكلم قيلغاچ  
يتدى طرب و فيض جنان بزميم ارا

*Keldi hamul oshubi jahon bazmim aro,  
Husnini bu tun qildi ayon bazmim aro,  
Odob ila izhori takallum qilg'och,  
Yetdi tarabu fayzi chunon bazmim aro.*

(10)

يوز ييل اگر اوت اچره بولور مهل منگا  
هر نوع ياقار اوت داغى بار سهل منگا  
قويغىل بو صفت اوتتيكى دوزخدين هم  
بولغوسى بتر صحبت نا اهل منگا

*Yuz yil agar o't ichra bo'lur mahl manga,  
Har nav'yoqar o't dog'i bori sahl manga,  
Qo'yg'il bu sifat o'tniki do'zaxdin ham,  
Bo'lg'usi batar suhbatu noahl manga.*

(11)

گرچى منگا ايش ايلاماك عصيان يا رب  
چو شان سنگا ليك بحر غفران يا رب  
بارور چاغى صحراهي عدم ساريغه  
لطف ايلابان ايت همراهيم ايمان يا رب

*Garchi manga ish aylamak isyon, yo Rab,  
Chu sha'n sanga lek bahri g'ufron, yo Rab,  
Borur chog'i sahrohi, ey adam sorig'a,  
Lutf aylabon et hamrohim iymon, yo Rab.*

(12)

تونکون قیلیبان یوروق تفکرّ یا رب  
باطل ساری ایلاگوم تصوّر یا رب  
بو حالیمه بیر امدی تغیرّ یا رب  
تا حاصل ایته ای عجز تکثورّ یا رب

*Tun-kun qilibon yo'riq tafakkur, yo Rab,  
Botil sori aylagum tasavvur, yo Rab,  
Bu holima ber emdi tag'ayyur, yo Rab,  
To hosil etay ajzu takassur, yo Rab.*

(13)

تاکی یوراین هجر ارا فریاد ایلب  
کیل ککلبمه امدی خاطریم شاد ایلب  
توتغیل منگا اوز ایلکینگ ایله بیر ساغر  
کونگلومنی الم قیدیدين آزاد ایلب

*Tokay yurayin hajr aro faryod aylab,  
Kel kulbama emdi xotirim shod aylab,  
Tutg'il manga o'z ilking ila bir sog'ar,  
Ko'nglumni alam qaydidin ozod aylab.*

(14)

لطفینگنی منگا ایلا فراوان یا رب  
کیم ایشیم ایرور مدام عصیان یا رب  
گرچی منگا جرمدين قوتولماق مشکل  
لکین سنگا باردور اسرو آسان یا رب

*Lutfingni manga ayla farovon, yo Rab,  
Kim ishim erur mudom isyon, yo Rab,  
Garchi manga jurmdin qutulmoq mushkul,  
Lekin Sanga bordur asru oson, yo Rab.*

(15)

شوق اوتیغه کونگلوم ایلا سوزان یا رب  
دایم کوزوم ایت عشق ارا گریان یا رب  
بارورده عدم ساریغه لطفینگ بيله قیل  
همراه منگا گوهر ایمان یا رب

*Shavq o'tig'a ko'nglum ayla so'zon, yo Rab,  
Doim ko'zum et ishq aro giryon, yo Rab,*

*Borurda adam sorig'a lutfing bila qil  
Hamroh manga gavhari iymon, yo Rab.*

(16)

تا کیم منگا ایش جرم ارادور یا رب  
کونگوم گا فجور مدعادور یا رب  
قیل امدی طبیی غه کرم جام فنا  
کیم مقصد آنگا جام فنادور یا رب

*Tokim manga ish jurmarodur, yo Rab,  
Ko'nglumga fujur muddaodur, yo Rab,  
Qil emdi Tabibiyg'a karam jomi fano,  
Kim maqsad onga jomi fanodur, yo Rab.*

(17)

تا ارض قرار چرخ سایر یا رب  
تا عالم چرخ آنده ظاهر یا رب  
شاهیمنی قیلیب دولت عمرینی فزون  
خوشنود آنگا قیل همیشه خاطر یا رب

*To arz qaror charx soyir, yo Rab,  
To olami charx onda zohir, yo Rab,  
Shohimni qilib davlati umrini fuzun,  
Xushnud anga qil hamisha xotir, yo Rab.*

(18)

کیلگیلیکی باقیب یولینگ اوزه روز شب  
تینمای توکادور کوزلاریم اسرو کوب  
عشاقغه توز مهر وفا رسمینکیم  
دلیر غه جفاو جور ایرماس

*Kelgilki, boqib yo'ling uza ro'zi shab,  
Tinmay to'kadur ko'zlarim asru kavkab,  
Ushshoqg'a tuz mehru vafo rasminkim,  
Dilbarg'a jafovu javr ermas ansab.*

(19)

بولمیش مانگا ایش روز شب عصیان یا رب  
ایتمی دمی طاعت ساری جولان یا رب  
ایمدی چو بولور حشردا حالیم مشکل  
بو موشکولیم ایت لطف ایلا آسان یا رب

*Bo'lmish manga ish ro'zi shab isyon, yo Rab,  
Etmay dame toat sori javlon, yo Rab,  
Emdi chu bo'lur Hashrda holim mushkul,  
Bu mushkulim et lutf ila oson, yo Rab.*

(20)

يا رب من محزننى دلىن شادان ايت  
هر مشكل ايشيم لطفينگ ايله آسان ايت  
لوظفينگه ايسه مناسب جرم اهلى  
من خسته غه كوبدن كوب آنى احسان ايت

*Yo Rab, man mahzunni dilin shodon et,  
Har mushkul ishim lutfing ila oson et,  
Lutfingga esa munosib jurm ahli,  
Man xastag'a ko'pdin ko'p oni ehson et.*

(21)

لايقدور همول ذاتيغه نعت صلوات  
كيم سنتى كلميشدور آنينگ فوز نجات  
يا رب منگا هم شفاعتن ايلا نصيب  
بيرردا بولور اول كوني كيم جمع عमत

*Loyiqdur hamul zotig'a na'tu salavot,  
Kim sunnati kelmishdur oning favzi najot,  
Yo Rab, manga ham shafotatin ayla nasib,  
Berarda bo'lur ul kunikim jam'omot.*

(22)

اشوخ منگا دمی کرم اظهار ایت  
کلیمغه کیلیب بهشتدیک گلزار ایت  
گر استار ایسانگ تنگریدین عمر جاوید  
عشاقغه ترک ستم آزار ایت

*Ey sho'x, manga dame karam izhor et,  
Kulbamg'a kelib behishtdek gulzor et,  
Gar istar esang Tangridin umri jovid,  
Ushshoqq'a tarki sitamu ozor et.*

(23)

من خستنى غم كمنديدين آزاد ايت  
يعنى كى وصالينگ اچرا كونگلوم شاد ايت



بولدوم ستمينگ نيشسويدين كونگلوم خراب  
لطفينگ بيله بير زمان آنى آباد ايت

*Man xastani g'am kamandidin ozod et,  
Ya'niki visoling ichra ko'nglum shod et,  
Bo'ldum sitaming teshasidin ko'nglum xarob,  
Lutfing bila bir zamon oni obod et.*

(24)

بولدى منگا تا عالم ارا جانان دوست  
دور ايلادى كاميمچه بولوب دوران دوست  
اي دل نچه مشكلدا ايسنگ غم يماكيم  
گر اهل ايسه بولغوسى دورور آسان دوست

*Bo'ldi manga to olamaro jonon do'st,  
Davv ayladi komimcha bo'lub davron do'st,  
Ey dil necha mushkulda esang g'am yemakim,  
Gar ahl esa bo'lg'usidurur oson do'st.*

(25)

گر اوزنى جهاندا كامران بولدى توت  
كونگلينگ شب روز شادمان بولدى توت  
يتگچ اجل ايلاب همه اشياغا وداع  
جيسمينگ قرا توفراقدا نهران بولدى توت

*Gar o'zni jahonda komron bo'ldi tut,  
Ko'ngling shab ro'z shodmon bo'ldi tut,  
Yetgach ajal aylab hama ashyog'a vado',  
Jisming qaro tufroqda nihon bo'ldi tut.*

(26)

عشق اچرا اوزونگ قيلما گرفتار عبث  
جانينگنى اوت اوزه سالمه زنهار عبث  
چون شوخلار اچرا يوق وفا آثارى  
بس غمدا اوزونگ ايلامه بيمار عبث

*Ishq ichra o'zung qilma giriftor abas,  
Joningni o't uza solma zinhor abas,  
Chun sho'xlar ichra yo'q vafu osori,  
Bas g'amda o'zung aylama bemor abas.*

(27)

ای درگهینگا اهل جهان دور محتاج  
الطافینگا پیدا و نهاندور محتاج  
مندیک بیرى محتاجراق ایرمس اسلا  
گرچی سنگا بغایات ساندور محتاج

*Ey dargahingga ahli jahondur muhtoj,  
Altofingga paydou nihondur muhtoj,  
Mandek biri muhtojroq ermas aslo,  
Garchi senga bag'oyatsondur muhtoj.*

(28)

تا بولدی منگا سخن چاغی جانان کج  
آیلاندى منى کا ميم ايله دوران کج  
يالغان ایرور آلیدا منینگ راست سوزیم  
چندور دیسه گر مدعی نادان کج

*To bo'ldi manga suxan chog'i jonon kaj,  
Aylandi mani komim ila davron kaj,  
Yolg'on erur ollida mening rost so'zim,  
Chindur desa gar mudda'iy nodon kaj.*

(29)

ای لطفینگا عالم ایلی یکسر محتاج  
احسانینگا هم جومله پیغمبر محتاج  
البته بولور حاجت محصول روا  
اخلاص ایله یوز اورسه سنگا هر محتاج

*Ey lutfinga olam eli yaksar muhtoj,  
Ehsoninga ham jumla payg'ambar muhtoj,  
Albatta bo'lur hojati mahsuli ravo,  
Ixlos ila yuz ursa sanga har muhtoj.*

(30)

صبریمنى چهره نمایان قلغاچ  
هوشیم یوق اولور قدنى خرامان قیلغاچ  
بولغوسی غم ایچرا خاطریم آشوفته  
کیسوسینی یوز اوزره پریشان قیلغاچ

*Sabrimni chehra namoyon qilg'och,  
Hushim yo'q o'lur qadni xiromon qilg'och,*

*Bo'lg'usi g'am ichra xotirim oshufta,  
Gesusini yuz uzra parishon qilg'och.*

(31)

ساقی مینی توت بزم ارا ایستر قدح  
کیم یخشیدور ایچسه عاشق زار قدح  
بو دم کی منی غم سپاهی اولتوردور  
توتغای منگه حرکیم ایسه غمخوار قدح

*Soqiy, mayni tut, bazm aro istar qadah,  
Kim yaxshidur, ichsa oshiqi zor qadah,  
Bu damki, mani g'am sipahi o'turadur,  
Tutg'ay manga har kim esa g'amxor qadah.*

(32)

توتغیل منگا ای ساقی غمخوار قدح  
کیم ایچمک هوس کونگلومه بسیار قدح  
هر بزم ارا من خستغه گر توشسه کوزونگ  
توتماقنی دریغ ایلاما زینهار قدح

*Tutg'il manga, ey soqiy, g'amxor qadah,  
Kim ichmak havas ko'nqluma, bisyor qadah,  
Har bazm aro man xastag'a gar tushsa ko'zung,  
Tutmoqni darig' aylama, zinhor qadah.*

(33)

گر بولسه جفا قیلوردا دلبر گوستاخ  
عشاق ایما س وفادا یکسر گوستاخ  
صبرو تحمل پشه کیم بولماغوچه  
کام آماغوسیدور عشق ارا هر گوستاخ

*Gar bo'lsa jaf qilurda dilbar gustox,  
Ushshoq emas vafoda yaksar gustox,  
Kim bo'lmag'ucha sabru tahammul peshu,  
Kom olmag'usidur ishq aro har gustox.*

(34)

تا دهر ارا طیل حوسن چالدینگ ای شوخ  
ایشقینگ اولمین باشیما سالدینگ ای شوخ  
القصة قیلیب جور جفا بحد سان  
عشق اچرا منی قانیمه قالدینگ ای شوخ

*To dahr aro tabli husn cholding, ey sho'x,  
Ishqing o'lmayin boshima solding, ey sho'x,  
Alqissa, qilib javru jafu behaddi son,  
Ishq ichra mani qonima qolding, ey sho'x.*

(35)

مونداغكى قىلىب اشىنگى حيله اى شوخ  
انى اوزونگا ايت وصيله اى شوخ  
خرقه ارا بير كون اولماگىنگى فكر ايت  
غصنه چكيبان نيچوك كى بويله اى شوخ

*Mundog'ki qilib ishingni hiyla, ey sho'x,  
Oni o'zungga et vasiyla, ey sho'x,  
Xirqa aro bir kun o'lmagingni fikr et,  
G'ussa chekibon nechukki bo'yla, ey sho'x.*

(36)

اي عاجز اولوب چوگونه ذاتىنگغه خرد  
وصفىنگ عقلا تىلىده دىماك كا نى حد  
سامعسن آنگا هر كىشىكىم دىر ايسه اول  
دىر ايچرا صنم ياكى حرم ايچرا صمد

*Ey ojiz o'lub chugunai zotingg'a xirad,  
Vasfing uqalo tilida demakka ne had,  
Some'san onga har kishikim der esa ul,  
Dayr ichra sanam yoki haram ichra samad.*

(37)

اي دلبر غلمان نسب و حور نژاد  
كىمگا قىلورم عشق ارا ايلكىنگدن داد  
كىم فرقتىنگ ايچرا ايلابان من زارنى  
اغيارنى وصلىنگ مىدىن قىلدىنگ شاد

*Ey dilbar, g'ilmon nasabu hur najod,  
Kimga qiluram ishq aro ilkingdin dod,  
Kim furqating ichra aylabon man zorni,  
Ag'yorni vasling mayidan qilding shod.*

(38)

هجرىنگدا چكىب تاكى آه و فرىاد  
زهرى ستمىنگ ايچگلى بولدىم معتاد

ایلاب منی ایمدی درد غمدن آزاد  
ای شوخ وصالینگ ارا بیر تون قیل شاد

*Hajringda chekib toki ohu faryod,  
Zahri sitaming ichgali bo'ldim mu'tod,  
Aylabmani emdi dardu g'amdin ozod,  
Ey sho'x, visoling aro bir tun qil shod.*

(39)

وه قیلمادی بیر دم منی جاناتیم شاد  
بیر بوسه بیله ایلمادی جانیم شاد  
روشن قیلیبان تیره تونیم ایلمادی  
آجیب یوزینی اول مهتابانیم شاد

*Vah qilmadi bir dam mani jononim shod,  
Bir bo'sa bila aylamadi jonim shod,  
Ravshan qilibon tiyra tunim aylamadi,  
Ochib yuzini ul mahtobonim shod.*

(40)

مینى بیلادور عاشق مستانه لزیز  
آنداقکی چراغ اوتینی پروانه لزیز  
محنتتی بیلور رند اهلی آنداق راحت  
کیم طفل تاشین بیلگوسی دیوانه لزیز

*Mayni biladur oshiqi mastona laziz,  
Andoqki chirog' o'tini parvona laziz,  
Mehnatni bilur rind ahli andoq rohat,  
Kim tiftl toshin bilgusi devona laziz.*

(41)

ای لعل لبینگ قند ایله شکردن لزیز  
نی قند شکرکی آب کوثر دین لزیز  
عالم ارا شیرین کوب لکین یوقدور  
توتغان منگاسن لطف ایله ساغر لزیز

*Ey la'li labing qand ila shakkardin laziz,  
Ne qandu shakkarki obi Kavsardin laziz,  
Olam aro shirin ko'b, lekin yo'qdur  
Tutg'on manga san lutf ila sog'ardin laziz.*

(42)

غم بیتکالی آلسم قولیمه گر کاغز  
کوز یاشیم آقیب بولغوسی دور تر کاغز  
ایمدی آنی جان صفحسیغه یار غوتادور  
کیم لایق ایماس آنینگ اوچون هر کاغز

*G'am bitkali olsam qo'lima gar kog'az,  
Ko'z yoshim oqib bo'lg'usidur tar kog'az,  
Emdi oni jon safhasig'a yorg'utadur,  
Kim loyiq emas oning uchun har kog'az.*

(43)

کیلتور منگا ای ساقی خوشکو ساغر  
کیم مقصدیم اولدی نوش خوشبو ساغر  
من تولکونی شیر قیل بیریب ساغرکیم  
شیر اولغوسیدور گر ایچسه تولکو ساغر

*Keltur manga ey soqiy, xushku sog'ar,  
Kim maqsadim o'ldi no'sh, xushbu sog'ar,  
Man tulkuni sher qil, berib sog'arkim,  
Sher o'lg'usidur, gar ichsa tulku sog'ar.*

(44)

کیلسه ایدی لطف ایلبان ایام بهار  
کلبمگا آچیب نگار گلگون ساغر  
قالمس ایدی کونگلوم ارا ارمان زره  
نوش ایتساک ایکاو چمندا جام سر شار

*Kelsa edi lutf aylabon ayyomi bahor,  
Kulbamga ochib nigor gulgun sog'ar,  
Qolmas edi ko'nglum aro armon zarra,  
No'sh etsak ikkov chamanda jomi sar shor.*

(45)

جان ایله دلیم اسیر هجراندورلر  
هم کون بکون احوال پریشاندرلر  
بیر بوسه بیله الرنی خوشنود ایتکیم  
عشقینگ ارا مستحق احساندرلر

*Jon ila dilim asiri hijrondurlar,  
Ham kun bakun ahvol parishondurlar,*

*Bir bo'sa bila alarni xushnud etkim,  
Ishqing aro mustahiqi ehsondurlar.*

(46)

قىلغان من آشفته بو دلبرلردور  
جانىمنى ياقرغه نازپرورلردور  
شام ايله صباح ايلگن حالىمنى خراب  
جلاد ستمكار سمنبرلردور

*Qilg'on mani oshufta bu dilbarlardur,  
Jonimni yoqarg'a nozparvarlardur,  
Shom ila saboh aylagan holimni xarob,  
Jallodi sitamkor sumanbarlardur.*

(47)

خاطر منگه دوران غمىدين محزوندور  
دلدار جفاسىدين ياشيم گلگوندور  
بو ايشگه سبب نى گردش گردوندور  
تقدیر قضاى خالق بچوندور

*Xotir manga davron g'amidan mahzundur,  
Dildor jafosidin yoshim gulgundur,  
Bu ishga sabab ne gardishi gardundur,  
Taqdiri qazoi Xoliqi bechundur.*

(48)

اولدمكى ميبى عشقغه جام ايلديلر  
غم دوردى بيله تلخكام ايلديلر  
يوق يوقكى جهان غملرىنى سر تا پا  
جمع ايلبان آنگه عشق نام ايلديلر

*Uldamki mayi ishqg'a jom ayladilar,  
G'am durdasi bila talxkom ayladilar,  
Yo'q yo'qki jahon g'amlarini sar to po  
Jam' aylabon anga "ishq" nom ayladilar.*

(49)

هر كيمسه كى الیده حبيب يوقدور  
تانگ يوقکيم آنینگ صبر شيكى يوقدور  
کيم دردی فراغه بجز وصل نيگار  
قىلغوچى معالجه طبيبي يوقدور

*Har kimsaki ollida habibi yo'qdur,  
Tong yo'qkim oning sabri shikebi yo'qdur,  
Kim dardi firoqq'a bajuz vasli nigor  
Qilg'uchi muolaja Tabibi yo'qdur.*

(50)

فیلمس منگه رحم اول مهی خودکام هنوز  
یوقدور منگه گر هجریده آرام هنوز  
شاد ایتمک اوچون دمی بو خسته کونگلوب  
نوش ایتمدی بزمیم آرا بیر جام هنوز

*Qilmas manga rahm ul mahi xudkom hanuz,  
Yo'qdur manga gar hajrida orom hanuz,  
Shod etmak uchun dame bu xasta ko'nghlum  
No'sh etmadi bazmim aro bir jom hanuz.*

### Adabiyotlar

- Bobojon, Tarroh-Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. 1992. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm.
- Qosimov, Begali. 1983. *Izlay-izlay topganim*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Qosimov, Begali va boshq. 2004. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Tabibiy, Ahmad. 1968. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashryoti.
- Tabibiy, Ahmad. *Bayoz. G'azaliyoti Tabibiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №243.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon*. Toshbosma, O'zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Hayratu-l-oshiqin. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyof. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.
- Tabibiy, Ahmad. *Munisu-l-ushshoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1134.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1152, №5018.
- Tabibiy, Ahmad. *Vomiq va Azro. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1243.
- Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent.
- G'anixujaev, Fatxulla. 1978. *Ahmad Tabibiy*. Toshkent: Fan.



## Ahmad Tabibi's rubai in Turkish

Shermuhammad Amonov<sup>1</sup>

### Abstract

Akhmad Tabibi continues the tradition of classical artists, creating his activity almost in all genres. He even has his own genre, which is not found in other poets. These lyrical works are mainly collected in the poet's "Munisu-l-ushshak" and "Hayratu-l-ushshak".

Some examples of Akhmad Tabibi's works have been published in the last century. Their number is very small. It should be noted that the poet's lyrical works, in general, his entire literary heritage has not been studied, and their translations into the current spelling have not been carried out.

In this article, the sources, text and translations of Akhmad Tabibi's rubai in Turkish were given for the first time.

**Key words:** *Ahmad Tabibi, poet, divan, "Munisu-l-ushshak", "Khayratu-l-ushshak", genre, rubai, text.*

### References

- Bobojon, Tarroh-Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. 1992. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm.
- Qosimov, Begali. 1983. *Izlay-izlay topganim*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Qosimov, Begali va boshq. 2004. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Tabibiy, Ahmad. 1968. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashryoti.
- Tabibiy, Ahmad. *Bayoz. G'azaliyoti Tabibiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №243.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon*. Toshbosma, O'zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Hayratu-l-oshiqin. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.

---

<sup>1</sup> *Shermuhammad N. Amonov* – Doktor of Philology, dotsent, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

**E-mail:** amonov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-3962-1774

**For citation:** Amonov, Sh. N. 2021. "Ahmad Tabibi's rubai in Turkish". *Golden scripts* 3: 95–113.

Tabibiy, Ahmad. *Munisu-l-ushshoq. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №3460.*

Tabibiy, Ahmad. *Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №1134.*

Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №1152, №5018.*

Tabibiy, Ahmad. *Vomiq va Azro. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №1243.*

Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari.* Toshkent.

G'anixujaev, Fatxulla. 1978. *Ahmad Tabibiy.* Toshkent: Fan.

LINGVISTIKA  
LINGUISTICS

## Xalach tili va uning o‘zbek tili bilan ayrim yaqinliklari to‘g‘risida

G‘aybulla Boboyorov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Xalach eli turkiy el-uluslar orasida o‘ziga xos tili va turli voqeliklarga boy o‘tmishi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda Eronning markaziy qismidagi viloyatlarda yashab, turmush yo‘sinida ko‘chmanchilik yetakchilik qiluvchi ushbu elat O‘rta Osiyo va unga qo‘shni o‘lkalardagi bir necha xalqlarning etnik uyushuvida qatnashgan. Ayniqsa, turkiy ellar orasida turkman, o‘zbek, Anado‘lu turklari, shuningdek, afg‘onlar orasida ular bilan bog‘liq ko‘plab etnik atamalar saqlanib qolgan. Ilk o‘rta asrlarda Yettisuv tegralarida yashagan xalachlar VI–VIII yuzyilliklar orasida Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston (Pokiston) tomonlarga ko‘chib, bu yerlarda o‘z siyosiy uyushmalarini tuzishgan. Bu o‘lkalardagi bir qancha turkiy boshqaruvlarning o‘rnatilishida xalachlarning o‘rni bo‘lakcha. Eski hind, xitoy, baqtriy, arab, fors va turkiy tilli yozma yodgorliklarda ular bilan bog‘liq ko‘plab ma‘lumot – bilimlarning uchrashi buni ko‘rsatib turibdi.

**Kalit so‘zlar:** *xalachlar, til, tarix, o‘zbek tili, qarluq, o‘g‘uz, O‘rta Osiyo, Xuroson, Eron.*

### Kirish

Xalach yoki xalajlar – bugungi kunda so‘zlashuvchilarining soni 30-40 mingga yaqin, Eronning birmuncha kunbotar tomonlarida, Tehrondan 200 chaqirim janubi-g‘arbda Sultonobod va Sova (Hamadon va Qum viloyatlari orasi)dagi kengliklarda chorvachilik bilan kun kechirib, kundalik turmushida ko‘proq ko‘chmanchilik

---

<sup>1</sup>Boboyorov G‘aybulla Bolliyevich – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi.

**E-pochta:** gaybullah@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0003-3405-4325

**Iqtibos uchun:** Boboyorov, G.B. 2021. “Xalach tili va uning o‘zbek tili bilan ayrim yaqinliklari to‘g‘risida”. *Oltin bitiglar* 3: 114–126.

ustunlik qiluvchi turkiy elat o'laroq bilinadi. Eronda bugungacha 46ta qishloqda xalachcha so'zlashishi aniqlangan. Bundan tashqari, xalachlarning sezilarli bir bo'lagi ozarboyjon turkchasida, bir bo'lagi esa forsiy tilda so'zlashishga o'tishgan. O'zlarining bir necha o'nlab qishloqlariga ega xalachlarning o'ziga xos tili Erondagi ko'pchiligi turkiy tillarning o'g'uz tarmog'ida so'zlashuvchi ozarboyjon, qashqay, Xuroson turki, turkman va yana bir necha turkiy el-uluslardan anchagina ajralib turadi. Bir qarashda ularning tili o'g'uzchadek tuyulsa-da, ayrim kelishik qo'shimchalarining boshqacha yasalishi, o'g'uzchada uchramaydigan yuzlab eski turkcha so'zlarning uch-rashi va boshqalar bu tilni o'g'uz tarmog'iga kiritishga to'sqinlik qiladi. To'g'ri, bir necha yuzyilliklardan buyon xalachlarning o'g'uzlar bilan qo'shni va aralash yashashlari ularning tilida o'g'uzcha belgilarning oshishiga olib kelgan, biroq, xalach tilini o'g'uzchadan ajratib turadigan bosh ko'rsatkichlaridan biri – o'g'uz tillaridagi so'z boshi *g-* undoshi ko'pincha xalachchada *k-* deb aytilishi: *gel-* “kelmoq” o'rnida *kel-*, *go'z* o'rnida “ko'z” – *ko'z*; o'g'uzcha so'z boshi *d-* undoshining esa xalachchada *t-* deb aytilishi: *diri* – “tirik” o'rnida *tirri*, *tirrik*, *do'rt* – “4” o'rnida *to'rt* va boshqalar bu tilni boshqa turkiy tillarga, ayniqsa, o'zbek tiliga yaqinlashtiradi.

### **Xalach eli tarixi**

Xalachlar VI – VIII yuzyilliklarda O'rta Osiyodan Afg'oniston va Eronga ko'chib o'tishlaridan oldin o'g'uzlar bilan yonma-yon yashab, o'g'uzlarning 24 urug'idan biriga aylanib qolgan bo'lsa-da, uzoq o'tmishda ulardan boshqa turkiy urug' bo'lganini ko'plab yozma manbalar orqali kuzatsa bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'atit-turk” (“Turkiy so'zlar devoni”) (XI yuzyillik) asarida Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) bilan bog'liq bir og'zaki rivoyatni keltirib, Zulqarnayn kunchiqardagi turk o'lklarini qo'lga kiritish uchun Xo'jand daryosi (Sirdaryo)ni kechib o'tib, Isfijob (Sayram), Tarozi va Balosog'un shaharlaridan uzoqroqqa borgach, u yerdagi keng yaylovlarda ko'chmanchilik bilan kun kechiruvchi turk urug'lariga duch kelgani, ular 22ta oilani (to'g'rirog'i urug'ni) o'z ichiga olishini yozib, xalachlar to'g'risida quyidagicha bilgi – ma'lumotlarni keltiradi:

“Qiniq, salg'ur (urug'lari) shular jumlasidandir. Bu yigirma ikki oila ular orqasidan yayov borish yoki o'z o'rinlarida tura berish borasida kengashayotgan edilar, bular yoniga ikki kishi kelib qo'shildi. Oilalari ham ular bilan birga edi. Ular yuklarini orqalariga ortib olgan yo'sinda qo'shin ortidan borayotgan edilar. Ular charchab

qiynalgan, og'ir yuk ko'tarishdan terga tushgan edilar. Bu ikki oila, qolib ketgan yigirma ikki oilaga yo'liqqach, ular bilan so'zlashdilar. Qo'shin ketidan borish-bormaslik to'g'risida kengashdilar. Ikki oila ularga aytdilar: "Ey odamlar, Zulqarnayn yo'lovchi kishidir. U bir yerda turmaydi. Bizning yerlarda qolib ketmay, o'tib ketadi. O'z yerimizda o'zimiz qolamiz". Ular ikki oilaga aytdilar "qal ach, shu yerda turinglar", – och qolinglar, demakdir. So'ng ular xalach deb aytilganlar. Xalachlarning asli shudir. Ular ikki qabiladir" [Koshg'ariy 3, 421-422].

Ilk o'rta asrlarda Yettisuv o'lkasidan yo'lga chiqib, Amudaryoni kechib o'tgan xalachlar Afg'oniston va Hindiston oralig'idagi yerlarda o'rnashadilar. Xitoy, arab, forsiy va baqtriy tilli yozma manbalarda bugungi Afg'onistonning tubjoy elatlaridan biriga aylangan xalachlar o'rta asrlarda qarluq va o'g'uz turklari, sharqiy eroniy tilli elatlar va hindlar bilan qo'shni bo'lib yashay boshlaydilar [Sims-Williams 2000, 74, 82, 88; Абаева 2018, 33]. Shu yo'sinda ularning so'zlashuvida o'g'uz tiliga tobora yaqinlik ortib boradi. Shunga qaramay, xalach tilining o'ziga xos tomonlari saqlanib qolgan bo'lib, bu til bir tomondan O'rxun – Enasoy bitiktoshlarining tiliga, ikkinchi tomondan esa "xoqoniya turkchasi" (Qo'arxoniyarning ish yuritish tili)ning izdoshlari, boshqacha aytganda, turkiy tillarning qarluq tarmog'i bo'lmish o'zbek va uyg'ur tillari bilan yaqin o'xshashlikka ega. Ayniqsa, boshqa turkiy tillarda ko'p uchramaydigan til hodisasi – unlilar oldiga "h" tovushini qo'shish o'zbek va xalach turklarida ancha keng tarqalgan. Mahmud Koshg'ariy bu to'g'rida quyidagilarni yozgan: "X (tovushi) u (tovushi)ga almashdi. Shunga o'xshash bo'g'iz harflari ham bir-biriga almashadi. Ayniqsa, x alifga, alif x (tovushi)ga almashinishi hollari ko'p uchraydi. Kitob yozuvchisi Mahmud aytdi: bobolarimizning amir (so'zi)ni xamir deyishlari shuning o'rnagidir" [Koshg'ariy 1, 136].

### **Xalach tili va bugungi turkiy tillar**

Eski turkcha va bugungi turkiy tillardagi *o'kuz – ho'kiz, urkak – hurkak, ulkar – hulkar, yid, id – hid, o'l – ho'l* so'zlarini o'rnak o'laroq ko'rsatsa bo'ladi. Bu hodisa, ayniqsa, xalach tili uchun yalpi bir qoidaga aylanib ketganki, boshqa turkiy tillardagiga o'xshab o'zbek tilida quyidagicha aytiladigan so'zlarga xalachchada *h-* undoshi qo'shib aytiladi: *oyoq – hadaq, achchiq – haachug', och- – hach-, ayt- – hay-, in – hin, yiroq (iroq) – hiraq, og'riq – hag'rig', otliq – hatlug', o'tli – huo't-lug'* ko'rinishidadir [Ölmez 1995, 18-19]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, eski turkchadagi sifat yasovchi *-g'* qo'shimchasi

ko'pchilik turkiy tillarda tushib qolsa, o'zbek tilida birmuncha yaqin tovush *-q*, ayrim o'zbek shevalarida *-g'* ko'rinishida bo'lib, shu tomondan xalachchaga yaqin keladi: *oyoq – ayag', achchiq – achchig', og'riq – og'rig', otliq – otlig'* singari. Ayniqsa, bu holat o'zbek tili qarluq shevasining Buxoro shahar va shaharoldi shevalarida ko'proq saqlanib qolgan.

Xalach va o'zbek tillarida ko'proq saqlangan so'z boshi *h*-undoshi eng eski turkcha yoki ilk turkchada ham uchrab, keyinchalik o'zak turkcha va o'zak bulg'orchada deyarli yo'qolib ketgan. Ko'pchilik tilchilarga ko'ra, "O'zak Oltoycha"da *\*p* (*\*r*) tovushining izdoshi deb qaraladigan tovush "Ilk turkcha"da *\*h* (*\*h*)ga aylangan bo'lib, o'rta mo'g'ulchada *\*p* (*\*r*) ko'rinishida saqlangan. Tungusmanjur tillari ichida esa nanaychada shu ko'rinishdadir [Ölmez 1995, 18].

Xalach tilining o'ziga xos yana bir tomoni shuki, boshqa ko'pchilik turkiy tillarda *y*- ga aylangan undosh tovush bu tilda *-d*, *-d* o'laroq saqlanib qolganligidir. Eski turkchada, ayniqsa, O'rxun bitiktoshlarida *bedük* ko'rinishida uchraydigan "buyuk, ulug'" anglamidagi so'z xalach tilida *bidik, büdük, adaq – hadaq* "oyoq, adoq", *adir- – hadur-* "ayirmoq", *ked- – ked-* "kiymoq", *küdägü – kidey* "kuyov" va *b* [Ölmez 1995, 18]. Shu o'rinda o'zbek tilida ham bu tovushning ayrim so'zlarda eng eski turkchadagiga o'xshab so'z boshi va so'z o'rtasida *d*-, *-d*- ko'rinishida uchrab turishini aytib o'tish kerak: *dumaloq – yumaloq, adaq – adoq*. O'zbek shevalarida esa ayrim o'rinlarda *yostiқ* so'zining *dostiқ / dastiқ, yashirinma – dashirinma, ko'z yoshi – ko'z dashi* ko'rinishlarida qo'llanilishi ko'zga tashlanadi (Chiroqchi t.).

Xalach tilidagi ayrim so'zlar bu tilning ancha eski turkcha ekanini, hatto O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida qo'llanilgan turkchadan-da uzoqroq chog'larda yuzaga kelgan yoki ushbu bitiktoshlar yaratilgan Turk xoqonligi (552–744), Uyg'ur xoqonligi (745–840) va Qirg'iz xoqonligi (840–924) chog'ida ayri bir tarmoq o'laroq o'rtaga chiqqan tarmoq ekanini ko'rsatadi. Eski turkchadagi o'rin-payt kelishigi (lokativ) – *-ka, -qa, -da, -ta* qo'shimchalarining xalachchada *-cha* ekani kuzatiladi: *bo' herchä uch o'g'ul voramish* "bu kishining yonida uch o'g'lon bor emish", *sham istichä* "shom ustida, oqshom vaqtida" kabi [Ölmez 1995, 21]. Yana bir o'rnak keltiradigan bo'lsak, "yo'q, emas" anglamidagi eski turkcha "yo'q, ermas, tugul" so'zlari xalachchada "dag" ko'rinishida ishlatiladi [Doerfer 1987, 110, 112]. Mahmud Koshg'ariy bu so'zni Isfijob (Sayram) va Balosog'un (To'qmoq) shaharlari orasidagi Arg'u o'lkasida yashovchi

turklar ishlatishini shu yo'sinda aytib o'tadi: "dag', zag' – yo'q, emas ma'nosidadir (arg'ucha). "Ol andag' dag' ol" – u unday emas. So'ng o'g'uzlar yo'q, ermas, emas ma'nosidagi bu so'zni arg'ulardan olib, "dag' ol"ni "tegul" deb o'zgartirganlar. Chunki o'g'uzlar arg'ularga qo'shni turadilar. So'zlarida aralashish bor" [Koshg'ariy 1, 167].

Qizig'i shundaki, deyarli ming yil oldin keltirilgan "yo'q, emas" ma'nosidagi ushbu so'zlar o'zbek tilida ham ishlatilib, ulardan biri – "ermas" tilimizda "emas" (ayrim o'rinlarda "ermas" ko'rinishida ham) deb qo'llanilsa, "tugul" so'zining qo'llanilishi birmuncha toraygan. Chamasi, arg'ular ishlatgan "dag'" ko'rinishi o'zbek shevalarida keng ishlatiladigan "yaq, yaaq" so'zida saqlangan. Koshg'ariy arg'ucha deb keltirgan yuqoridagi "Ol andag' dag' ol" so'zlaridan ayrimlarining XX yuzyillik boshlarigacha o'zbekchada "Devon"da keltirilgan ko'rinishlariga yaqin qo'llanilgani ko'zga tashlanadi: bugungi o'zbekchadagi uchinchi shaxsni bildiruvchi "u" eski turkchada *ol* (o'l), *ul* olmoshi eski o'zbekchada "ul" ko'rinishida bo'lgan. *Andag'* – so'zi esa *andoq, undoq* ko'rinishlarida bugungi kunda ham o'zbek tili va shevalarida uchraydi.

Xalach tili bo'yicha izlanishlar olib borgan atoqli nemis tilchisi G. Dyorfer arg'u tili bilan xalachchada ko'plab o'xshashliklar borligini aniqlab, ushbu tilni arg'uchaning davomchisi, turkiy tillarning *n*-li tarmog'i, degan qarashni ilgari surgan [Doerfer 1987, 105-114]. Ayrim tilchilar Eftalitlar davlatini (420–565) qurgan, yozma manbalarda *abdal, haytal, eftal, \*oq-xun, ol-xun* (qizil xun) atamaları ostida tilga olingan elatlarining tilini *n*-li turkcha bo'lgan, deb sanaydilar. Shu o'rinda aniqlik kiritib o'tish kerak, bu tarmoq eng eski turkchanning izdoshi bo'lgan o'g'ur-bulg'or tarmog'i va "yalpi (o'rta) turkcha" (O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tili va bugungi ko'pchilik turkiy tillar)dan ajralib turuvchi, biroq ikkinchi tarmoqqa yaqin bo'lgan eski turkiy tildir. O'g'ur-bulg'orlar so'z o'rtasi va so'z so'nggida *z*- undoshi o'rnida *r*- undoshini, *š* (*sh*)- undoshi o'rnida *l*- undoshini qo'llagan bo'lsalar, "yalpi turkcha"da buning teskarisidir. *n*-li tarmoqqa o'rnak keltiradigan bo'lsak, uy hayvoni, mol ma'nosidagi "qo'y" so'zini Mahmud Koshg'ariy arg'u tilida *qon* (qo'n), boshqa turklarda *qoy* (qo'y) deb keltirgan bo'lsa, xalachlar ham bugungi kunda ushbu hayvonni *qon* (qo'n) deb ataydilar [Doerfer 1987, 112].

Shunga o'xshash eng eski turkchada uchraydigan so'z boshida *d*-, *n*- ko'rinishlarida bo'lgan, O'rxun-Enasoy bitiktoshlari va Koshg'ariy "Devoni" yozilgan kezlarda so'z boshida ko'proq *y*-, so'z o'rtasida *d*- ko'rinishini saqlagan tovush esa xalach tilidagi ayrim so'zlarda so'z boshida *n*- ko'rinishidadir. O'rnak uchun, xalach tilidagi

*numurtg'a* – “tuxum” soʻzi bugungi turkiy tillarning koʻpchiligida *yumurtg'a*, *yumurta*, *jumurtqa*, *jimirtqa*, oʻzbek tilining xorazm shevasida *уымырта*, *уымыртqadir* [ЎХШЛ 1971, 134]. Oʻzbek tilida va shevalarida argʻu va xalachchaga oʻxshash soʻz boshi y- undoshli soʻzlarning bir nechtasi n- li koʻrinishda saqlanganiga duch kelamiz: *nina* “igna” (Toshkent shevasida; Koshgʻariyda *yignā*), *nana* “yana” va b. [Кошғарий 1960 (III), 42; ЎХШЛ, 197].

Shuningdek, koʻpchilik turkiy tillarda soʻz oʻrtasidagi -gʻ- undoshi soʻz oʻrtasida tushib qolsa, xalach tilida buning teskarisi kuzatiladi: Koshgʻariy “Devon”da *yalg'a* – “yalamoq” deb keltirgan soʻz Onadoʻli turkchasi, ozarboyjon, oʻzbek va boshqa turkiy tillarda *yala*- koʻrinishida boʻlsa, xalach tilida *yalg'a*- koʻrinishida saqlanib qolgan [Doerfer 1987, 112]. Shu oʻrinda soʻz oʻrtasidagi -gʻ- tovushi oʻgʻuz turkchasidan farqli oʻlaroq eski turkchadagi kabi oʻzbek va uygʻur tillarida soʻz oʻrtasida ishlatilayotgani ham kuzatiladi. Eski turkcha *yalgʻan* soʻzi oʻzbekchada *yolgʻon* (*yalgʻan*), Onadoʻli turkchasi, ozarbayjon va turkman tillarida *yalan* koʻrinishida qoʻllanilishi bunga oʻrnak boʻla oladi [Кошғарий 1960 (III), 44].

Xalach tilining ham eski turkcha (Oʻrxun-Enasoy bitiktoshlari – xoqoniya turkchasi)ga, ham oʻzbek tiliga yaqin keladigan tomonlari borligini koʻrsatadigan oʻrnaklar -*gulik*, -*gʻuliy* sifatdoshi ishlatilishida ham koʻzga tashlanadi: eski turkcha *kelgulig* – xalachcha *kelgili* – oʻzbek shevalarida *kelgilik*. Oʻrnak uchun: *boʻkeligli herler almanlugʻallar* “bu keladigan kishilar olmonlardir”; *suv ichguluk hidish* “suv ichadigan idish” [Ölmez 1995, 20-22]. Ayrim oʻrinlarda oʻzbek tili va shevarida ham “bu yerlarga qaytib kelgulik qilmasin”, “koʻrgan koʻrguliging shu boʻlsin” singari soʻzlar yasalganini koʻramiz.

Eski turkcha soʻzliklarda uchrab, boshqa turkiy tillarda deyarli saqlanib qolmagan yoki fonetik oʻzgarishga uchragan ayrim soʻzlar bugungacha xalach tilida ishlatilayotgani kuzatiladi. Oʻrxun bitiktoshlarida “shahar” maʼnosida kelgan *balig* – xalach tilida *balugʻ* “qishloq”, *bedük* – *büdük* “buyuk”, *boʻd* – *boʻd* “boʻy”, *ked* – “kiymoq”, *toʻd* – “toʻymoq”, *kudägu* – *kidey* “kuyov”, *quдруq* – *qurduq* “quyruq”, *kisi* – *kishi* (ayol kishi), *ba-* – *vaa-* “bogʻlamoq”, *küdän* – *küden* “toʻy, ziyofat”, *üm* – *im* “shim”, *üt* – *hiit* “teshik”, *ürüng* – *hürüng*, *hiring* “oq (tus)” va b. [Ölmez 1995, 18; 21-22]. Qizigʻi shundaki, keltirilgan ushbu soʻzlarning sezilarli bir boʻlagi oʻzbek shevalarida saqlangan. Oʻzbek tilining Parkent shevasida “bir bogʻ oʻt” soʻzi “bir vaagʻ oʻt” koʻrinishida uchrab, undagi *vaagʻ* soʻzini xalachchadagi *vaa-* “bogʻlamoq” bilan, oʻzbek tilida keng qoʻllaniladigan “shim” (cholvor) soʻzi eski turkcha *üm*, xalachcha *im* “shim” bilan bogʻlanadi.



Shu o'rinda: tilshunoslar Koshg'ariy "üm" deb keltirgan so'zni o'zbek va yana bir necha turkiy tillardagi "shim" so'zi bilan tenglashtirib, bu so'zning negizida *ich+üm* – *ichum* – *ishum* – *shim* so'zi yuzaga kelganiga urg'u beradilar [ESTYA]. Bu yerda bugungi turkiy tillardagi "ishton", "ich-do'n" so'zlarining eski turkcha *ich+to'n* "ichki kiyim" so'zi negizida kelib chiqqaniga o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Eski turkcha va xalachchadagi *üt* – *hiit* "teshik" so'zi o'zbek tilining Sayram shevasida *hüt* "suv o'tish uchun devor tagidagi teshik" ma'nosida qo'llaniladi [ЎХШШЛ, 291]. Ko'pchilik turkiy tillarda unutilgan eski turkcha *ürüng* va xalachcha *hürüng* – "oq (tus)" so'zi Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi tog'liq hududda uchraydi. Bu yerdagi Urung-ag'ach ko'lining nomi negizida ham "Oq-og'och" ma'nosi yotadi, bizningcha.

Xalach tilida sanoq tizimi ham eski turkchaga o'ta yaqinlik saqlagan va bu tomondan ushbu til o'zbekcha bilan uyg'unlashadi. O'rnak uchun Koshg'ariy "Devon"da ellik deb keltirgan 50 soni xalach va o'zbek tillarida birdek qo'llaniladi [Koshg'ariy 1, 160]. Boshqa turkiy tillarda bu son *elli* (turk.), *elu*, *yelu* (qozoq) ko'rinishlarida uchraydi.

### **Manbalarda xalaj eli tarixi va tili**

Xitoycha "Tan-shu" yilnomasida xalachlar to'g'risida VII yuzyillikning ikkinchi yarmiga tegishli quyidagicha ma'lumot o'rin olgan:

"*Sye* hukmdorligi *Tuxolo* (To'xoriston)dan janubi-g'arbdadir. O'z nomi *Sao-gyuy-chji* va *Sao-gyuy* (Zobul) deb ataladi. *Xan-kin* boshqaruvi chog'i (656–660 yy.)da *Xe-da-lo-ji* (Xalach) deb atala boshladi ... Boshqaruvchisi *Xo-si-na* (G'azni) shahrida o'tiradi" [Абаева 2018, 33].

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalach tili turkiy sheva bo'lishi bilan birga, Turk xoqonligi davri tilidan ancha eskiroq bo'lgan. Bu qarashni Erondagi xalach turklari shevasida saqlangan ko'plab so'zlarning xoqonlikka tegishli O'rxun bitiktoshlarida uchraydigan so'zlardan ham eski ko'rinishga egaligi ham kuchaytiradi. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida Xalach urug'i bo'yicha uchta o'rinda to'xtab o'tgan bo'lsa-da, ularning tiliga tegishli biror so'zni ajratib ko'rsatmagan. Ayrim izlanuvchilar Koshg'ariy xalajlarni "xoqoniya turklari" (qarluq), o'g'uz va qipchoqlardan ajratib, ularni Arg'u o'lkasi turklariga yaqin deb ko'rsatganlar. Arg'u shevasidan ko'plab so'zlar keltirgan Koshg'ariy Arg'uni Taroz va Balosog'un orasidagi tog'lik o'lkaning nomi deb tanishtiradi [Кoшғарий I, 66;

III, 191].

Shunga qaramay, ko'pchilik G'arb tadqiqotchilari al-Xorazmiyning "Mafotih ul-ulum" (X yuzyillik) asarida "*Xalajlar haytallarning qoldiqlaridir*" deb keltirilgan ma'lumotga suyanib, xalajlarning kelib chiqishini mo'g'ul yoki turk-mo'g'ul urug'lar bilan bog'laydilar. O'z vaqtida 1900-yillari xalajlarning kelib chiqishiga to'xtalgan J. Markvart al-Xorazmiy keltirgan ushbu ma'lumot eftalitlarning kelib chiqishini hind-eroniy deb qarovchilarni o'ylantirib qo'yishini ta'kidlagan edi [Тезджан 2018, 2021].

2000-yillari bir qancha tanga va epigrafik topilmalar ilm olamiga tanitildi. Ulardan biri – taniqli tangashunoslar R. Göbl va H. Xumbax tomonidan tanishtirilgan pahlaviy taqvim bo'yicha 77-yili (720-y.) bostirilgan brahmiy yozuvli tangada "xalach" va "eltabar" atamaları o'rin olgan va yapon tadqiqotchisi Inabaganing fikricha, u "Xalach eltabari" ma'nosini anglatadi. So'nggi yillarda esa M. Alram va K. Lo Muzio kabi tangashunoslar ikki mis tanga bo'yicha izlanishlar olib borib, ularning 484-yili bostirilganligi va *halag/sano* va *halag/s* – "xalaj" atamasi o'rin olganligiga urg'u qaratishdiki, bu esa ushbu etnik atamaning yozma manbalardagi ilk bor uchrashini dir [Тезджан 2018, 17].

Ushbu tangalarning o'qilishi, ayniqsa, sanalashtirilishi bo'yicha hozircha aniq bir to'xtamga kelish qiyin. Biroq, tadqiqotchilarning bu qarashi to'g'ri bo'lib chiqsa, unda xalajlarning To'xoriston, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonda yoyilishi Turk xoqonligidan ancha oldin, 5-asrda yoki undan oldinroq yuz bergan bo'ladi. Bu esa chamasi xalajlar eftalitlarning bir urug'i sifatida ular bilan birga ushbu o'lkalarga kirib kelgan, deb sanashga imkon beradi.

Taniqli eronshunos olim N. Sims-Vill'yams yaqin yillarda ikkita baqtriycha hujjatni nashr qildirdi. Ularda Amudaryoning janubida yashagan xalajlarlar to'g'risida so'z yuritiladi. Ulardan biri – kushon erasi bo'yicha 446-yili (669-y.) yozilgan hujjatda "xalaj"lardan bo'lgan qul va ikkinchisi – 478 yili (700-y.) yozilgan hujjatda esa xalajlardan bo'lgan malika *χοτολογο ταπαγλυο βιλγαυο σαβοουο* (eski turk.: "Qutlug' tapug'lug' bilgasebuk") tilga olinadi [Sims-Williams 2000, 74, 82, 88]. Ushbu ma'lumotlar Hindiqushning shimoli – Amudaryoning kungayida yashagan xalajlar borasida xitoy, hind, arab va fors manbalarida keltirilgan bilgilarni to'ldiradi [Джуманиязова 2016, 69].

Xalaj – eftalitlarning keyingi avlodlari sifatida arab manbalarida ko'p bor tilga olinadi. Bu borada, ayniqsa, musulmon geograflari qiziq ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Abu Abdulloh al-

Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida quyidagi ma'lumotlarni qoldirgan:

"Hayatila – To'xoristonni boshqargan qudratli kishilar guruhi, Xalaj va Kanjina turklari ularning avlodidir" [Баходиров 2009, 114].

Arab muallifi Yoqut Hamaviy ular to'g'risida: "Xalajlar qadimdan Kobulda, Hindiston va Seyiston orasida, G'urning narigi yonida yashardilar" deb eslatib o'tsa, Ibn Havqal bu o'lkalarda yashaydigan "xalajlar turklarning bir bo'limi bo'lib, kiyim-kechaklari va tili turkchadir" deb yozadi. Idrisiy esa hozirgi Afg'onistonning markaziy viloyatlari va ularga qo'shni o'lkalarning yerli elatlari haqida shunday deydi: "Bu o'lkalarda xalaj nomli turklarning bir urug'i bo'lib, qadimda bu yerga kelib o'rnashgan. Ularning imoratlari Shimoliy Hindistongacha cho'zilgan. G'urning orqasida va G'arbiy Seyistonning bir qismida ularga duch kelasan. Ularning mol suruvlari va ekinzorlari bor. Boy yashashadi, kiyim-kechaklari turklarnikiga o'xshaydi, jang usullari va qurol-yarog'lari turklarniki bilan bir" [Konukcu 2002, 845-849].

Shimoliy Hindiston va Afg'onistonda yashagan xalajlarning ko'pchiligi keyinchalik o'z tillarini unutib, afg'onlashib ketadilar. Shunga qaramay, bu yerlardagi xalajlar anchagacha o'z etnik kelib chiqishini unutmagani o'z davri yozma manbalarida keltirib o'tilgan. Ular XII–XIV yuzyilliklarda Hindistondagi turk-mamluk davlati – Dehli sultonlari davrida boshqaruvda qatnashadilar. 1290-yili Dehli turk sultonligini qurgan Malik Feruz kelib chiqishiga ko'ra Dehli'dagi "yabg'u" unvonli xalaj oilasidan edi. Yirik hukmdori Alouddin Muhammad bo'lgan xalajlar bu yerda 1290 – 1320-yillar orasida boshqaruvni o'z qo'llarida ushlab turdilar. Borgan sari o'z turkligini unutgan xalajlar afg'onlashib, pushtunlarning *hiljiy / gilzay* (xallaj-zay) degan bir urug'iga aylanadi [Konukcu 2002, 845-849].

Xalajlar kabi eftalitlarning qoldiqlari sanaladigan yana bir turkiy urug' – *abdal* elatining bir bo'lagi afg'onlashib, abdaliy nomi ostida pushtunlar ichiga singib ketadi. Shunga qaramay, to yaqin yillargacha har ikki pushtun urug'i – xiljiy va abdaliylarda o'zaro bir-biriga yaqinlik tushunchasi saqlanib qoladi. Shimoliy Hindiston va Afg'onistondagi afg'onlashgan qarindoshlaridan farqli o'laroq Eronga ko'chgan xalajlar esa bugungi kunda ham o'z ona tilini saqlab qolishgan. Ularning tili qadimgi turk tiliga eng yaqin turkiy tillardan biri sanaladi. Taniqli nemis turkologi G.Dyorfer hozirda Eronda yashovchi kamsonli elatlardan biri bo'lmish xalajchanning arxaik bir turkiy til ekanini va uning Turk xoqonligi davrida rasmiy til sifatida qo'llanilgan O'rxun bitiklari tiliga yaqinligini isbotlab berdi [Doerfer

1987, 105-114].

Bu esa eftalitlar kimligi masalasining yanada chuqurroq tadqiq etilishini shart qilib qo'yadi. Chunki, bir etnos (eftalitlar)ni ham eroniy tilli sanab, ham ularning avlodlari (xalajlar)ni turkiy, deb bilish ayrim anglashmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Holbuki, Erondagi xalajlarning tili Turk xoqonligi adabiy turkchasiga nisbatan yaqin [Doerfer 105-114], bu esa ilk o'rta asrlarda Yettisuvdan To'xoriston va Kobul vodiysiga, keyinroq esa Eronga ko'chgan xalajlarning tili ashina va qarluqlarning o'zaro yaqin bo'lgani bilan bog'liq. O'rta asr muallifi Muhammad ibn Najib Bakronning "Jahonnoma" asaridagi ma'lumot ularning ilk yashash joy qae bo'lganini ko'rsatadi:

"Xalajlar turk urug'laridan bo'lib, Xallux (Qarluq) chegarasidan Zobulistonga (Qandahorga) ko'chishgan" [Dani Litvinsky, Safi 1996, 180].

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Xallux chegarasi deganda, arab-fors manbalarida Yettisuv va uning tevaraklari – Isfijob (Sayram)-dan Farg'onagacha cho'zilgan o'lkalar ko'zda tutilgan. Qarluqlar 766-yili Yettisuvda Turgash xoqonligini tugatgach, bu yerlarda o'zlarining Qarluq yabg'uligi deb ataladigan siyosiy uyushmasini qurgan edilar.

XIX yuzyillik oxiri – XX yuzyillik boshlarida o'zbek va turkmanlar orasida *xalaj*, *abdal* kabi urug'lar uchraydi. Turkmanlarda *abdal* – ersari, ata, chovdur, sariq urug'lari ichida, *xalach* esa ersari turkmanlari va Kichik juz qozoqlari orasida uchraganidek, o'zbek laqaylarning bir urug'i *abdal* deb ataladi [Атаниязов 1994, 112-114, 116; Kurbanov 2010, 248]. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda har ikki etnonim bilan ataladigan qishloqlar bor, bular: Abdal – Buxoro viloyati Qorako'l tumanida, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanida, Qora-abdal – Jizzax viloyati Forish tumanida; Xalaj – Buxoro viloyati Vobkent, Buxoro, Shofirkon, Romitan tumanlarida, Samarqand viloyati Ishtixon tumanlarida [Маликов 2018, 144, 155, 179, 180]. Shuningdek, Turkiya va Ozarbojonda bir necha qishloqlar Abdal, Xalaj deb atalib [Гейбуллаев 1986, 26, 28, 31], aholisi o'g'uz turkchasida so'zlashadi.

### **Xulosa**

Turkiy ellar o'tmishida o'zining ayri-ayri bir o'rniga ega xalachlarning tili va tarixi bo'yicha kelgusida yanada chuqurroq izlanishlar olib borish kerak bo'ladi. Ayniqsa, turkiy tillarning eng eski chog'laridagi holatini aniqlashda xalach tilida saqlanib qolgan so'zlarni tahlil qilish asqotadi. Shuningdek, bir-biriga yaqin qarindosh bo'lgan o'zbek va xalach tillarini o'zaro solishtirgan

holda izlanishlar olib borish tilimiz o'tmishi bilan bog'liq ko'plab chigalliklarning o'z yechimini topishiga olib keladi.

### Adabiyotlar

- Абаева, Т.Г. 2018. "Тюрки-хильжи в Афганистане". *Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии* 3. Древность. Средние века. Новая время. Под редакцией Ш.С. Камолиддина. Saarbrücken: LAP – Lambert Academic Publishing RU.
- Атаниязов, С. 1994. *Этнонимы в туркменском языке*. Ашгабат: Ёлым.
- Баходиров, Р. 2009. «История Востока в «Ключах наук». *Шарқшунослик*, 14: 108-117. Тошкент.
- Гейбуллаев, Г.А. 1986. *Топонимия Азербайджана (историко-этнографическое исследование)*. Баку: Элм.
- Джуманиязова, Ф. 2016. "Тюрки Тохаристана в VI – VIII вв.: Карлуки или Халаджи?". *Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии*. Древность. Средние века. Новая время. Под редакцией Ш.С. Камолиддина. 3: 69-75. Saarbrücken: LAP – Lambert Academic Publishing RU.
- Маликов, А.М. 2018. *Тюркские этнонимы и этнонимы долины Зерафшана*. Ташкент: Muharrir nashriyoti.
- Тезджан, М. 2018. "К вопросу о происхождении тюрков-халачей". *Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии*. Древность. Средние века. Новая время. Под редакцией Ш.С. Камолиддина. 3: 1329. Saarbrücken: LAP – Lambert Academic Publishing RU.
- ЎХШЛ 1971 - *Ўзбек халқ шевалари луғати*. (масъул муҳаррир Шоабдурахмонов Ш.). Тошкент: Фан.
- Dani, A.H., Litvinsky, V. A., Zamir Safi M. 1996. "Eastern Kushans, Kidarites in Gandhara and Kashmir, and Later Hephthalites". *History of Civilizations of Central Asia*. 3: 166-187. Paris: UNESCO.
- Doerfer, G. 1987. "Mahmūd al-Kāšyarī, Arḡu, Chaladsch". *Ural-Altische Jahrbücher*. 7: 105-114. Wiesbaden.
- Konukçu, E. 2002. "Akhunluların Kalıntısı Olarak Kalaçlar (Halaçlar)". *Türkler*. I: 845-849. Ankara.
- Kurbanov, A. 2010. *The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis*. PhD thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free Univer. Berlin.
- Sims-Williams, N. 2000. *Bactrian Documents from Northern Afghanistan*. I: Legal and Economic Documents. Oxford University Press.
- Ölmez, M. 1995. "Halaçlar ve Halaçça". *Çağdaş Türk Dili*. 7 (84): 15-22.

## **About the Halach language and some of its affinities with the Uzbek language**

Gaybulla Boboyorov<sup>1</sup>

### **Abstract**

Khalach is distinguished among the Turkic nations by a distinctive language and a rich past of various realities. Today, living on the central regions of Iran, living nomadic life, this nation took part in the ethnic Union of several society of Central Asia and its neighbor regions. Especially among the Turkic peoples - the Turkmen, the Uzbek, the Anatolian Turks, as well as among the Afghans, many ethnic terms associated with them have been preserved. In the early Middle Ages, the Khalachs, who lived in the Yettisuw (Semirech'e) country, moved to the sides of Afghanistan and Northern India (Pakistan) between the VI–VIII centuries AD, forming their own political associations here. The role of Khalch's in the establishment of several Turkic dynasties in these countries has a separate place. The presence of a large number of written sources in the old Indian, Chinese, Bactrian, Arabic, Persian and Turkic is proof of that.

**Key words:** *Halachs, language, history, Uzbek language, Karluk, Oghuz, Central Asia, Khurasan, Iran.*

### **References**

- Abaeva, T. G. 2018. "Tyurki-xilji v Afganistane". *Voprosi etnogeneza i etnicheskoy istorii narodov Sredney Azii* 3. Drevnost. Srednie veka. Novaya vremya. Pod redaksii Sh.S. Kamoliddina. Saarbrücken: LAP – Lambert Academic Publishing RU.
- Ataniyazov, S. 1994. *Etnonimi v turkmenskom yazike*. Ashgabat: Ilim.
- Baxodirov, R. 2009. «Istoriya Vostoka v «Klyuchax nauk». *Sharqshunoslik*, 14: 108-117. Toshkent.
- Geybullaev, G.A. 1986. *Toponimiya Azerbaydjana (istoriko-etnograficheskoe issledovanie)*. Baku: Elm.
- Djumaniyazova, F. 2016. "Tyurki Toxaristana v VI – VIII vv.: Karluki ili

---

<sup>1</sup> *Gaybulla B. Boboyorov* – Doctor of Historical Sciences, Associate Professor, National Archaeological Center of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

**E-mail:** gaybullah@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0003-3405-4325

**For citation:** Boboyorov, G. B. 2021. "About the Halach language and some of its affinities with the Uzbek language". *Golden scripts* 3: 114–126.

Xaladji?". *Voprosi etnogeneza i etnicheskoy istorii narodov Sredney Azii*. Drevnost. Srednie veka. Novaya vremya. Pod redaksii Sh.S. Kamoliddina. 3: 69-75. Saarbrücken: LAP – Lambert Academic Publishing RU.

- Malikov, A.M. 2018. *Tyurkskie etnonimi i etnotoponimi dolii Zerafshana*. Tashkent: Muharrir.
- Tezdjan, M. 2018. "K voprosu o proisxojdenii tyurkov-xalachey". *Voprosi etnogeneza i etnicheskoy istorii narodov Sredney Azii*. Drevnost. Srednie veka. Novaya vremya. Pod redaksii Sh.S. Kamoliddina. 3: 1329. Saarbrücken: LAP – Lambert Academic Publishing RU.
- O'XShL 1971 - *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. Mas'ul muharrir Shoabdurahmonov Sh. Toshkent: Fan.
- Dani, A.H., Litvinsky, B. A., Zamir Safi M. 1996. "Eastern Kushans, Kidarites in Gandhara and Kashmir, and Later Hephthalites". *History of Civilizations of Central Asia*. 3: 166-187. Paris: UNESCO.
- Doerfer, G. 1987. "Mahmūd al-Kāshyārī, Aryu, Chaladsch". *Ural-Altische Jahrbücher*. 7: 105-114. Wiesbaden.
- Konukçu, E. 2002. "Akhunluların Kalıntısı Olarak Kalaçlar (Halaçlar)". *Türkler*. I: 845-849. Ankara.
- Kurbanov, A. 2010. *The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis*. PhD thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free Univer. Berlin.
- Sims-Williams, N. 2000. *Bactrian Documents from Northern Afghanistan*. I: Legal and Economic Documents. Oxford University Press.
- Ölmez, M. 1995. "Halaçlar ve Halaçça". *Çağdaş Türk Dili*. 7 (84): 15-22.

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (\*) ishorasi



qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

### **III. Maqolada tarjimalardan foydalanish**

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

#### **6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi**

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transleteratsiyasini berish ham mymkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mymkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

**Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

## 7.2. Kitoblar uchun

**Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada**

### **berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:  
Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

### **Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

### **Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

### **Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.  
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

## **7.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarimas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr

sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

**Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globalashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

**Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

**Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

# QAYDLAR UCHUN

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.  
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.  
e-mail: goldenscripts@gmail.com  
Tel.: +99891 166-31-38  
Bosishga 30.09.2021-yilda ruxsat etildi  
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.  
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatga kiritilgan.  
Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.  
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,  
+99894 659 94 62